

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MIRUBAYDOV NASIM

“TURKISTONDA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKA TIZIMI”

Mutaxassislik

«O'zbekiston tarixi» magistri akademik darajasini olish uchun

D I S S E R T A T S I Y A

Ish ko'rib chiqiladi va himoyaga qo'yildi:	Ilmiy rahbar: _____ prof SH.S. G'afforov
Ilmiy maslahatchi	_____ Nasrullayev.
Ish ko'rib chiqiladi va himoyaga qo'yildi. «O'zbekiston tarixi» kafedrasi mudiri:	_____ dots Xoliqulov. R. Sh.
Fakul'tet dekani:	_____ prof Sh.S. G'afforov

S A M A R Q A N D - 2012

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3-9
I BOB TURKISTON O'LKASIDA ROSSIYA MUSTAMLAKA TUZUMINING YUZAGA KILISHI.	
1.1 Podsho Rossiyasining Turkistonni bosib olishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil qilinishi.....	10-17
1.2. Turkiston general-gubernatorligida hokimiyat tuzilishi va uning funktsiyalari.....	18-31
1.3 Markaziy boshqaruv, Viloyat va tuman boshqaruvi, Toshkent shahri idorasi. Qishloq boshqaruvi tuzilmalarining shakllanishi	32-45
II BOB TURKISTONDA RUS GENERALLARI AMALGA OSHIRGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI.	
2.1 Turkiston o'lkasida harbiy generallari amalga oshirgan mustamlaka tadbirlari... ..	46-61
2.2 1892-yilgi qo'zg'olon va uning Podsho Rossiyasi tomonidan ayovsiz bostirilishi.....	62-69
III BOB. TURKISTON O'LKASIDA HARBIY-MA'MURIY VA TABAQAVIY AMALDORLAR HOKIMIYATINING YUZAGA KELISHI	
3.1 Turkiston oliy-harbiy amaldorlar byurokratiyasining shakllanishi.....	70-77
3.2 O'lka va viloyat amaldorlari.....	78-83
3.3. Uezd va volost xukmdorlari faoliyatiga sharhlar	84-88
XULOSA	89-92
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR	
RO'YXATI.....	93-96

KIRISH

“Chuqur tahlil va mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni eng avvalo tarixchilarni chalg’itadi. Ular eshitganlarni haqiqat shu ekan deb, o’quvchilarga ham yetkazishadi. Faqat bahs munozora mevasi bo’lgan xulosalargina bizga to’g’ri yo’l ko’rsatishi mumkin”.²

Tadqiqotning dolzarbligi. O’zbekiston Respublikasi zamonaviy mustaqil davlat sifatida 1991 yilda tarix sahnasida paydo bo’ldi. U Rossiya imperiyasi mustamlakachiligini davom ettirgan, sho’rolar hukmronligini ta’minlagan 1924 yilgi siyosiy va ijtimoiy shartnomdan butunlay voz kechdi. Rossiya imperiyasi ochiq-oydin mustamlakachilik siyosatini yuritgan, tub xalqlar turmushining kamsitilishini qonunlashtirgan davlat bo’lgan bo’lsa, sovet davriga kelib vaziyat yanada murakkab tus oldi. Sho’rolar davlati mafkurasi baynalmilalchilikka asoslangan bo’lib, bu nazariy jihatdan barcha millat va elatlarga teng huquq va imkoniyatlar berardi, biroq amalda esa Sovet Ittifoqi avvalgi imperiyaning vorisi sifatida u davlat tuzilmalarining avvalgi xukmronligini rivojlantirdi va mustahkamladi, mintaqa iqtisodini xom ashyo yetishtirishga yo’naltirdi, milliy madaniyat va qadriyatlarni oyoq osti qildi, rus tilining rasmiy til sifatidagi yetakchi mavqeyini mustahkamlab, mahalliy xalqlarga nisbatan ruslashtirish siyosatini va shafqatsiz jazo tadbirlarini amalga oshirdi.

Mustaqillik yillari O’zbekiston uchun milliy davlatchilikni tiklash, jamiyatni demokratiya asosida qayta qurish va hokimiyat funkstiyalarini taqsimlash tamoyillarini ishlab chiqish, shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlash, erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun asos bo’luvchi poydevorni qurish bo’yicha mashaqqatli mehnat qilish davri bo’ldi.

Har qanday jamiyat hayotida bunday tub, olam-shumul o’zgarishlar bosqichma-bosqich, ba’zan bir necha o’n yilliklar va hatto asrlar davomida amalga oshadi. Shu bois tarixiy o’tmish saboqlarini hisobga olmasdan, mintaqamizdagi

¹ Каримов И. А. «Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият» Тошкент «Ўзбекистон» 2006.

² Karimov I. A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997, 8-9 bet.

xalqlarning tarixiy tajribasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, shu jumladan, O'rta Osiyo davlatchiligi tajribalarini o'rganmasdan, bugungi kunda buyuk deb ta'riflash mumkin bo'lgan hozirgi islohotlarning mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish va baholash mumkin emas.

Rossiya imperiyasi mustamlaka tizimini

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov qayd etganidek: «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi».¹ I.A. Karimovning tarix fani vakillari bilan uchrashuvidagi suhbatlarida ushbu fanning dolzarb muammolari muhokama qilinib, ijtimoiy taraqqiyotning qonuniyatlarini chuqur o'rganish, O'zbekistonda davlatchilikning qaror topishini ta'minlangan tarixiy sharoitlarga aniqlik kiritish, Podsho tuzumi va sovet tuzumlarining bu jarayonlarga salbiy ta'siri omillarini aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratish mavzuning dolzarbligidir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ular ongida milliy istiqlool tafakkurini va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda Tarix fanining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir. Tarixiy o'tmishsiz biror-bir xalqning buguni bo'lmagan va kelajagi ham bo'lmaydi. Tarix fani odamlarni uylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni farqlash tahlil qilish va ulardan amaliy va hayotiy xulosalar chiqarishga yordam beradi².

XIX asrning 40 yillarida Podsho Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy yurishlar rejasi qabul qilinishi va shu rejaning uzoq tarixga ega ekanligi o'quvchilarning ongiga singdirilar edi « Turkistonda Rossiya imperiyasining mustamlaka tizimi» deb nomlagan mazkur tadqiqotni o'rganish davrida Podsho Rossiyasi qo'shinlarining Turkistonni bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy sabablarini, o'lka xalqlarining o'z ozodligi va mustaqilligi uchun olib

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XIX аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон». 1997, 140-бет.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Ўзбекистон», 1998.

borgan kurashlari va bu yo'lda bergan qurbonlarini, bosqinchilar tomonidan qilgan vahshiyliklarni, harbiy muvaffaqiyatlar zo'rvonlik bilan qo'lga kiritilganligini ochib berish, ularning asosiy maqsadi O'rta Osiyo xonliklarini arzon xom ashyo yetkazib beruvchi o'z mustamlakasiga aylantirish, bozorlarini rus tadbirkorlari uchun ochib berish ekanligini yoritish asosiy vazifasilaridan hisoblanadi. Podsho tuzumi qo'shinlarining O'rta Osiyo xonliklariga bostirib kirishning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sabablarini o'quvchilarga yanada chuqurroq anglab olishlari uchun krepostnoy huquqining bekor qilinishi, bozor iqtisodi sanoatining, birinchi navbatdagi to'qimachilik sanoatining rivojlanishi, 1860-1917 yiilarda Rossiyada kapitalistik islohatlarining rivojlanganligi XIX asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasida savdo aloqalarining rivojlanganligi O'rta Osiyo xonliklarining strategik ahamiyatga ega bo'lganligi Angliyaning O'rta Osiyoga nisbatan tajavuzkorlik siyosatiga doir bilimlarni ishga soladi, o'rganilayotgan tarixiy voqealar mazmunini yanada chuqur tahlil qiladi.

Tadqiqotning ishlanish darajasi. Mazkur dissertatsiyani yoritishda arxiv hujjatlaridan foydalanish mavzuga yangicha qarashlarni hosil qiladi. Mazkur davr tarixini yoritishda izlanishlar olib borgan tarixchi olimlarni shartli tarzda uch boshqichga bo'lishimiz mumkin. Birinchisi imperiya davrida ayrim rus tarixchilari yozgan esdaliklari, ular tomonidan yoritilgan monografiyalar, ilmiy tupamlar, ikkinchi davr sho'rolar davri tarixshunosligi asosida yoritilgan adabiyotlar, uchinchi davri mustaqillik yillarida tarixchi olimlarimiz tomonidan olib borilgan izlanishlar va chop etilgan monografiyalar, tadqiqot ishlaridir.

XIX asrning 60-70 yillaridan boshlab Podsho Rossiyasining O'rta Osiyoda olib borgan siyosati Rossiya jamoatchiligining fikr-e'tiborini o'ziga jalb qila boshladi. Mazkur muammoning turli jihatlarini Turkiston materiallarda, maqola va taqrizlarda faol muhokama qilina boshlandi. Maqolalarning mavzuni qamrovi ancha keng bo'lib, ularda hukumat doiralarining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish, ularni mustamlakaga aylantirish borasidagi chora-tadbirlari, u yoki bu siyosiy qiyinchiliklarni hal qilishning harbiy usullari, Turkiston ma'muriyatining xalq ommasi noroziliklarini zo'rvonlik bilan bostirish siyosati muhokama qilinar,

Rossiya davlatchiligi asoslarini Turkiston jamiyatiga faol joriy etishning to'g'riligi va maqsadga muvofiqligi yuzasidan munozaralar olib borilardi. Podsho tuzumining Turkiston o'lkasida olib borgan siyosati N.A. Abduraximova va F. Ergashevlarning kitobida aniq kursatilgan.

Turkistonda Podsho tuzumi ma'muriyatining «ishchanligi» xaqida turli taxminlar aytilib, amaldor-byurokratik apparat tomonidan amalga oshirilayotgan «kulturtregerlik» va ma'rifiy tadbirlarning muvaffaqiyati hususida jiddiy shubha bildirilgan, bu apparatning poraxo'rlikka, zo'ravonlikka asoslanganligi va «yangi koloniyani rastional» ekpluatastiya qilishga noqobilligi haqidagi faktlar ko'plab keltirilgan. Podsho tuzumi Turkistonni «kapitalistik usullar» bilan o'zlashtirishga imkon berishni istamaslikda ochiqdan-ochiq ayblangan. Turkistonni boshqarishga doir 1871 va 1873 yillardagi nizom loyihalari hukumatga tasdiqlash uchun taqdim etilganidan keyin, hamda amerikalik diplomat E. Skaylarning O'rta Osiyoga tashrifi (1873 yil martdan noyabrgacha) to'g'risidagi hisoboti e'lon qilinganidan so'ng ayniqsa qizg'in tus oldi.

Diplomatning hisobotida Turkistondagi o'zaro munosabatlari haqidagi masalalar sharhi bilan birgalikda, Turkiston ma'muriyatining «ishchan» sifatlarini xarakterlovchi materiallar ham berilgan edi. E. Skayler rus ma'muriyati saflarida kata oylikka ega bo'lish va mo'may boylik orttirish niyatida bo'lgan kishilar ko'pligini alohida qayd etib o'tadi; Petrovsk, Avliyoota va Qurama uездlarida qayd etilgan poraxo'rlik va g'azna pulini o'g'rlash holatlari hamda Xo'jand, Verniy, Kopal va Pervosdagi ma'murlarning boshboshdoqliklaridan misollar keltiradi. Skaylarning fikricha, amaldorlarning noqununiy yig'implari, boshboshdoqligi, soliq tizimining tartibga solinmaganligi mahalliy aholining keng noroziligini keltirib chiqarishi va bu bilan Podsho tuzumining mintaqadagi hukmronligiga xavf tug'dirishi mumkin edi.¹ Turkistonning tabiiy resurslariga va uni boshqarishga qiziqish kuchayishi bilan rasmiy yo'nalishlarga bag'ishlab e'lon

¹ Дмитриев Г.Л. Депенша Е. Скайлера и проблемы среднеазиатской политики царизма 70-х XIX в. Материалы по истории, историографии и археологии. Сб. науч.тр. № 517, Т., 1976.

qilingan ishlar ham paydo bo'ldi.¹ Bu ishlarning bir qismi O'rta Osiyoni bosib olish, bir qismi esa ma'muriy va mustamlaka qurilishi masalalariga, Rossiyaning mintaqadagi mafkuraviy, iqtisodiy va savdo-sotiq imkoniyatlarini kengaytirish yo'llariga, Rossiyaning bu sohalardagi gegemonligini ta'minlash usullariga, mustamlakachilikning Rossiya modelini «takomillashtirish» borasida mualliflarning tavsiyalariga bag'ishlangan. Biroq, bu ishlarning barchasida Podsho tuzumining mintaqada yuritgan bosqinchilik siyosatining prinsipial asoslariga shubha bildirilmaydi, aksincha, u Podsho tuzumining tashqi siyosatidagi yutuqlari sifatida madh etiladi. Ushbu fikr-mulohazalarga asos bo'lgan tarixiy materiallar mualliflar tomonidan bir yoqlama va buzib ko'rsatilgani sababli, ularning ishlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Manbalarga murojaat etgan holda ushbu masalaga oydinlik kirataylik.

Masalan, mualliflarning fikricha go'yoki, rus ma'murlari Turkistonda ma'muriy, moliyaviy, sudlov va boshqa xil «islohatlar»ni amalga oshirishda, eng avvalo, xayrli maqsadlarni: Turkiston xalqlarini «Yevropa taraqqiyoti»darajasiga erishtirish, yangi «fuqarolik jamiyati»ni qurishni ko'zlagan. O'zaro urushlar, O'rta Osiyodagi hokimlarning zo'ravonligi va talon-torajlaridan charchagan Turkiston xalqlari go'yoki o'zlari Rossiya tasarrufiga o'tishga intilgan, Podsho tuzumi tuzumiga faqat mahalliy xon, bek va ruhoniylarning ayrim vakillarigina qarshilik ko'rsatgan, degan g'oyalar targ'ib qilinadi.

N.I. Kraft, V.N. Kaplun, S.N. Tregubov, N. Fioletov, N. Voloshinin, V. Gessen² va boshqalarning asarlarida Turkistonni boshqarish bo'yicha qonunchilik aktlarini ishlab chiqish jarayoni, sudlov tizimi asoslari, yangi davlat muassasalari, moliya tizimlarini joriy qilish to'g'risidagi aniq ma'lumotlar bilan bir qatorda, mualliflar mintaqada an'anaviy bo'lgan, Podsho tuzumi tomonidan saqlab qolingan ijtimoiy-huquqiy institutlarni har tomonlama tahlil qilishga urinmaydilar.

¹ Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. СПб., 1868; Костенко А.Ф. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. СПб., 1871; Григорьев В.В. Русская политика в отношении Средней Азии. СПб., 1874; Иванов А. Русская колонизация в Туркестанском крае. СПб., 1890; Абаза К.К. Завоевание Туркестана. СПб., 1902; Кологривов Ю.В. Русские владения в Средней Азии. СПб., 1898. Свет и тени колонизации. СПб., 1914; Гессен В. О судебной власти. Сб. Судебная реформа. Т.1.М., 1915 ва бошқа.

² Крафт Н.И. Судебная система в Туркестанском крае и степных областях. Оренбург, 1896; Каплун В.Н. Положение об управлении Туркестанского края. Т., 1903.

Asosan bu tuzilmalar almisoqdan qolgan va qoloq deb ta'riflanib, ularning o'lkada vaqtinchalik saqlab qolinishi mahalliy aholi «Podsho tuzumi afzalliklari»ni qabul qilish darajasiga hali o'sib yetmagani bilan izohlangan. Yuqorida qayd etilgan ishlarning mazmunidan ular, shunchaki, mavzular tavsifidan iborat ekanligi, ularda keltirilgan faktlar jiddiy tahlil qilinmaganligi ko'zga tashlanadi. Mualliflar o'zlarining maqola va boshqa ishlarida ushbu davrdagi islohotlar ijtimoiy emas, balki, ular sof ma'muriy tadbirlar sifatida Podsho tuzumining buyuk davlatchilik va gegmonlik maqsadlari yo'lida xizmat qilgan, degan xulosa chiqaradilar.

Tadqiqotning manbaviy bazasini rasmiy ish yo'ritish ho'jatlari, matbuot va arxiv materiallari, xotiralar tashkil qilgan.

Ma'lumot ko'lamini va ahamiyatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining hujjatlar jamg'armalari, jumladan, 1-jamg'arma - Turkiston general-gubernatori devoni (Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора); 15-jamg'arma - Farg'ona viloyati Chimyon uyezdi boshlig'i boshqarmasi (Управление начальника Чимионского уезда Ферганской области); 17-jamg'arma - Sirdaryo viloyat boshqaruvi (Сырдарьинское областное правление); 18-jamg'arma - Samarqand viloyat boshqaruvi (Самаркандское областное управление); 19-jamg'arma - Farg'ona viloyat boshqaruvi (Ферганское областное управление) materiallari va boshqa jamg'armalardan olingan ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib ularda o'lka, viloyat, uyezd va bo'lis mustamlaka; hokimiyat tizimlarining Turkistonni boshqarish bo'yicha faoliyati; xalq ommasining ahvoli va uning chorizm tuzumiga qarshi chiqishlari haqidagi ma'lumotlar; Turkistondagi amaldorlarning siyosiy inqirozlar, «favqulodda» va harbiy holat e'lon qilingan davrlardagi xatti-harakatlari ta'riflovchi voqealiklar, xalqlarning bu chora tadbirlarga munosabati, ma'murlarning mustamlakachilik va ruslashtirish chora-tadbirlari haqidagi hujjatlar va shu kabilar jamlangan.

Tadqiqotning predmeti. Tadqiqotning predmeti XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya - Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnash kelishi va raqobatda ruslar qulining baland kelishi, Podsho

Rossiyasi tomonidan Turkistonni mustamlakaga aylantirilishi uni boshqarish to'g'risida 1865-1886-yilgi nizomlarni ilmiy jihatdan tahlili qilish, Podsho tuzumiga qarshi xalq norozilik harakatlarini yoritish, Rossiyadagi ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar va ularning o'lkamiz hayotiga ta'siri, o'lkadagi agrar, industrial siyosat negizlarini, mustamlaka tizimning harbiy xalq boshqaruviga asoslanganligini yoritish ilmiy ishning asosiy predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot ob'yekti. Tadqiqotning ob'yekti qilib arxiv hujjatlari hamda O'zbekiston tarixiga oid asosiy adabiyotlar va monografiyalardan foydalangan holda Podsho Rossiyasi mustamlaka tuzimi tarixini o'rgangan bir qator monografiyalari va alohida ajratib olingan arxiv hujjatlari ilmiy tadqiqot ishining asosiy obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotimiz natijalaridan Podsho Rossiyasi Turkistonda mustamlaka tizimi tarixi bilan qiziquvchi shaxslar ushun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa va adabiyotlar ruyxatidan iboratdir. Tadqiqotning birinchi bobi Turkiston o'lkasida Rossiya mustamlaka tuzumining yuzaga kilishi, deb nomlanib unda Podsho Rossiyasining Turkistonni bosib olishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil qilinishi, Turkiston general-gubernatorligida hokimiyat tuzilishi va uning funktsiyalari, Markaziy boshqaruv, Viloyat va tuman boshqaruvi, Toshkent shahri idorasi. Qishloq boshqaruvi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi Turkistonda rus generallari amalga oshirgan mustamlakachilik siyosati, deb nomlanib unda Turkiston o'lkasida harbiy generallari amalga oshirgan mustamlaka tadbirlari, Xalq qo'zg'olonlarining Podsho Rossiyasi tomonidan ayovsiz bostirilishi kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi Turkiston o'lkasida harbiy – ma'muriy va tabaqaviy amaldorlar hokimiyatining yuzaga kelishi deb nomlanib unda Turkiston oliy byurokratiyasi, O'lka va viloyat amaldorlari, Uezd va volost xukmdorlari kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

I BOB TURKISTON O'LKASIDA ROSIYA MUSTAMLAKA TUZUMINING YUZAGA KILISHI

1.1 Podsho Rossiyasining Turkistonni bosib olishi.

XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya - Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Ularning har biri o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar olib borayotgan Buyuk Britaniya Rossiyaning Turkistonga kirib kelayotganidan xavfsiramoqda edi. Ost-Hindiston kompaniyasi tomonidan josuslik ma'lumotlarini to'plash maqsadida, 1831-1833 yillarda yuborilgan leytenant Aleksandr Berns Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga go'yo sayoh sifatida keladi. U yig'ilgan dallilar va shahsiy kuzatuvlar asosida uch jildlik "Buxoroga sayohat" nomli kitob yozib, unda, jumladan: "o'zbeklar... mening kim ekanimni bilmaganlaridan barcha narsalar xususida, hukmdorlari va siyosatidan tortib, bozordagi ahvol haqida ham tortinmay so'zlashdilar" - deb yozadi.

Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. 1841-1842 yillarda Angliya hukumati mayor Konollini Xivaga, polkovnik Stoddartni Buxoroga maxsus missiya bilan yubordi. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida bo'lib, Rossiya tajovuzidan saqlanish uchun uchta xonlik bir-birlariga yordamlashishini, kuchlarini birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin bilan yordam berishga va'da qiladilar. Biroq rasmiy hujjatlarni bo'lmagani sababli amir Nasrullo ularni zindonga tashlatadi. Bularni qutqarish uchun Angliya tomonidan Turkiya homiyligida mayor Volf Buxoroga yuboriladi, ammo uning 1843-1845 yillarda Buxorodagi urinishidan ham natija chiqmadi, zindondagilar qatl etiladi. Volfning o'zi zo'rga qochib qutiladi. Shuningdek, 1843 yilda Xivaga kelgan kapitan Ebbot ham Angliya manfaatlari yo'lida ishlagani ma'lum¹.

¹ Rustambek Shamsiddinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. Vatan tarxi(XVI-XX asr boshlari) ikkinchi kitob, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. "Sharq" T.,2010. 152-153 betlar

Ost-Hindiston kompaniyasi O'rta Osiyo bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossiya tovarlarini siqib chiqarishini ta'minlashga zo'r berdi. Bu borada ular Hind va Eron savdog'arlaridan ham keng foydalandi.

Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirish va uni egallashga intilishi chor Rossiyasini tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo'lganidan foydalanib, harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Xonliklarning shimoliy-g'arbiy hududida Orenburg general-gubernatori Perovskiy katta qo'shin bilan 1853 yilda Qo'qon xonligining strategik ahamiyatga molik bo'lgan Oq masjid (hozirgi qizil o'rda) qal'asini bosib oladi va u yerda mustahkam o'rtnashadi.

Xonliklarning shimoliy-sharqiy tomonida esa harbiy Sibir general-gubernatori Gosford 1860 yilda Qo'qon xonligi hududiga qarashli harbiy istehkomlarga hujum qilib, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal'alarni birin-ketin bosib ola boshlaydi.

Perovskiy va Gosfordlarning harbiy harakatlari amalda chor Rossiyasining O'rta Osiyoga e'lon qilinmagan bosqinchilik yurishining boshlanishi edi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksandr II tomonidan 1859 va 1861 yillarda o'tkazilgan Saroy kengashida muhokama qilinadi va birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqli qilishi, unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilinadi¹.

1864 yil may oyida Qo'qon xonligi hududiga sharq tomondan Chernyaev qo'mondonligidagi Rossiya qo'shinlari, g'arbdan Verevkin qo'shinlari bostirib kiradi. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlari: Avliyoota, Suzok, Turkiston egallandi. Bosqinchilar 1864 yil 14 iyulda Chimkentga yurish boshlaydilar. Bu orada Qo'qon xoni Sulton Sayyidxon va Aliquli Amirlashkar bor kuchlarini to'plab, Chimket atrofida jangga tayyorlandilar. Uch kun davomida qattik jang bo'ldi. Jangda Aliquli Amirlashkar qo'shinlari g'olib chiqdi, Chernyaev qo'shinlari jangda yengilib, orqaga chekinishga majbur bo'ldi.

¹ Rustambek Shamsiddinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. Vatan tarxi(XVI-XX asr boshlari) ikkinchi kitob, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. "Sharq" T.,2010. 154-155 betlar

Aliquli Amirlashkar o'z qo'shinlarini bosqinchilar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun jangga tayyorlayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligi hududlariga bostirib kirganligi to'g'risida habar olindi. Aliquli Amirlashkar o'z qo'shinini bosqinchilarga emas, Buxoro amiriga qarshi Qo'qonni himoya qilishga otlantirishga majbur bo'ldi. Vaziyat Chernyaevga qo'l keldi, uning qo'shinlari Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'sqilib, 1864 yil 14 sentyabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtirdi va shaharni bosib oldi.

Mansab va unvonlarga o'ch Chernyaev 1864 yil 2 oktyabr kuni Toshkentga hujum boshladi. Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik, muhim strategik ahamiyatga molik shahari bo'lib, 100 ming atrofida aholi yashardi. Shahar Shayxontoxur, Sebzor, Beshyogoch va Ko'kcha dahalariga bo'linardi. 12 darvozasi, 189 masjid, 10 madrasasi mavjud bo'lgan. Toshkent uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7 metr bo'lgan devor bilan o'rab olingan edi.

Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyaev qattiq mag'lubiyatga uchradi, 72 zobit va askarni y yoko'tdi. Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi.

Chernyaev 1864-1865 yil qishini harbiy tayyorgarlik bilan o'tkazdi. Uning qo'shinlari Sibir va Orenburgdan yetib kelgan qurol-yarog', yangi batal'onlar, sapyorlar rotalari bilan to'ldirildi. 1865 yil bahoridan Chernyaevning yangi hujumi boshlandi. 28 aprel kuni Chirchiq daryosi qirg'og'idagi Niyoo'zbek qal'asini egallab, Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovuz anhoriga Chirchik daryosidan suv chiqarib beruvchi to'g'onni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldirdi. Aliquli Amirlashkar katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga yetib keladi. Toshkent uchun shiddatli janglar bo'ldi. Aliquli Amirlashkar og'ir yaralandi va halok bo'ladi. Nihoyat shahar himoyachilarining qarshiligi sindirildi, 15 iyun kuni Chernyaev Toshkentni zabt etdi. 17 iyunda Chernyaev Toshkentning nufuzli kishilari bilan muzokara olib boradi va zo'ravonlik bilan shahar o'z ixtiyoriga ko'ra rus qo'shinlariga taslim bo'lgani, shahar aholisi o'z dinida qolishi, ishlar shariat asosida olib borilishi, hovli va bog'lar o'z egallari qo'lida qolishi to'g'risida ikki tomonlama ahdnoma imzolanadi. Toshkent Rossiya imperiyasining tarkibiy qismiga aylantirildi. Orenburg general-gubernatorligi

tarkibida Turkiston viloyati tuzildi, uning harbiy gubernatori etib general Chernyaev tayinlanadi.

Chernyaev 1866 yil yanvarida Jizzaxga hujum qiladi va mag'lubiyatga uchraydi. O'zboshimchaligi uchun Chernyaev Sank-Peterburga chaqirib olinadi, o'rniga general Romanovskiylar tayinlanadi.

Romanovskiylar Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshlaydi. Chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan Qo'qon hududlari bosib olinayotgan paytda Buxoro amiri tomoshobin bo'lib turgan bo'lsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan paytda Qo'qon xoni Xudoyorxon sukut saqlab turdi. 1866 yil may oyida Yerdarda bo'lgan jangda amir Muzaffar qo'shinlari yengildi, amir Jizzaxga kochdi. Romanovskiylar yurishni Xo'jand tomonga yo'naltirdi, 1866 yil 19-22 may kunlari bo'lgan qattiq janglar natijasida Xo'jandni egallaydi¹. 1866 yil avgustda Orenburgdan general-gubernator Krijanovskiylar Toshkentga keldi va Romanovskiylar bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlashdi. Katta qo'shin yordamida 1866 yil oktyabrda O'ratepa viloyati, Zomin qal'asini bosib oladi. Jizzax uchun katta jang bo'ldi. Jizzax shahri balandligi 4 metr va eni 3 metrlik ikki qavat devor bilan o'rab olingan bo'lib, qal'aga o'xshardi. Shaharda 10 ming himoyachi askar, 53 to'p bor edi. Himoyachilar shaharga kirib-chiqadigan darvozalarni tuproq bilan ko'mib tashlab, yo hayot, yo o'lim uchun jang qildilar. 11-18 oktyabr kunlari bo'lgan jang natijasida bosqinchilar Jizzaxni egalladi².

Aleksandr II 1867 yil 14 iyulda Turkiston general-gubernatorligi va Turksiton harbiy okrugini tuzish to'g'risida farmon berdi. General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'yutant K.P.Fon Kaufman tayinlandi. Unga biror bir davlatga urush e'lon qilish, sulh tuzish, harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan. Shu boisdan u "Yarim podshoh" deb atalardi. Bu tadbir chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi yo'lidagi harakatida yangi bosqich bo'ldi.

¹ O'sha joyda. 162 bet.

² Rustambek Shamsiddinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. Vatan tarxi (XVI-XX asr boshlari) ikkinchi kitob, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. "Sharq" T., 2010. 162-163betlar

Kaufman Samarqand tomon yurish boshlaydi. 1868 yil 1 may kuni shahar yaqinidagi Cho'ponota tepaligida Buxoro amiri qo'shinlari bilan jang qilib, ularni osongina mag'lubiyatga uchratadi, dovrug'i olamni tutgan Samarqand 2 may kuniyoq deyarli jangsiz dushmanga taslim bo'ladi.

Buxoro amiri o'z qo'shinlarini to'plab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon yurdi. Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon yurdi. Ikki tomon qo'shinlari Zirabuloqda 1868 yil 2 iyunda to'qnashdi, qattiq jang bo'ldi, amir qo'shinlari tor-mor etildi. Bu orada Samarqandda istilochilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Shahrisabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27 may kuni Samarqandga qo'shin bilan yetib kelib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda Kaufman tomonidan Samarqandga qoldirilgan polkovnik Nazarov va mayor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang qildilar. Jang 8 kun davom etdi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275tasi o'ldirildi va yarador qilindi. Samarqanddagi voqealardan xabar topgan Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib keladi va 8 iyun kuni shaharni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni yondirishga buyrug' beradi. Aholi qirg'in qilindi, masjidlar va tarixiy yodgorliklar yondirildi, qadimiy noyob moddiy va ma'naviy obidalar Peterburga olib ketildi.

1868 yil 23 iyunda Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi. Buxoro amirligi chor Rossiyasining vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan davlatga aylantirildi. Sulhga binoan, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Katta Qurg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir 125 ming tilla (500 ming so'm) tovon to'lash majburiyatini oldi. Bunday bosqinchilik, talonchilik sulhi aholi yuqori tabaqa vakillarining nafratini kuchaytirdi. Abdumalik, Jo'rabek va Bobobek kuchlari nafaqat bosqinchilarga, shuningdek, amir Muzaffarga qarshi ham qaratildi. Ular Abdumalikni amir deb e'lon qiladilar. Amir Muzaffar endi bosqinchilarga emas, Kaufman yordamida o'z vatandoshlariga qarshi urushga kirishadi va 1870 yil avgustida ularni kuch bilan bostirib, o'z taxtini saqlab qoladi. Shahrisabz va Kitob beklilari amirlik tarkibida qoladi¹.

¹ Rustambek Shamsiddinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. Vatan tarxi(XVI-XX asr boshlari) ikkinchi kitob, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. "Sharq" T.,2010. 164-165 betlar

Kaufman 1873 yil bahorida 12 mingdan ortiq zobit va Askar, 56 to'p-zambaraklar bilan Xiva xonligiga yurish boshladi. Ayni paytda Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishloq, Krasnovodsk, shuningdek, Kavkaz okrugi qo'shinlari ham yurishga kirishgan edi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II bosqinchilarga qarshi o'z qo'shinlarining bir qismini Muhammadmurod devonbegi boshchiligida Chorjy tomonga, yana bir qismini amir To'ra boshchiligida Xazoraspga, yana bir qismini Eltuzar inoq boshchiligida Qo'ng'iro't tomonga, Inoqbek boshchiligidagi qismni Xo'jayliga safarbar etdi. Amudaryo bo'ylarida qirg'inbarot janglar bo'ldi. 1873 yil 18 may kuni Kaufman otryadlari Amudaryodan o'tib Xazorasgni egallaydi, Qo'ng'iro't va Xo'jayli shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etildi, talandi. Istilochi qo'shinlar Xivaga yaqinlashib qolganda Muhammad Rahimxon poytaxtni tashlab chiqadi turkman ovuliga yashirinadi. Xivalik Otajon to'ra Kaufman huzuriga kelib shaharni vayron etmaslikni so'raydi. Kaufman shaharni zabt etib, Otajon to'raga xonni topishni buyuradi va xon xazinasini, moddiy-ma'naviy boyliklarni qo'lga kiritadi.

1873 yil 12 avgustda Xivaga yaqin Gandimiyon qishlog'ida Kaufman bilan Muhammad Rahimxon uchrashuvi bo'ldi¹, tarixda Gandimiyon shartnomasi deb nom olgan shartnoma imzolandi. Shartnomaga muvofiq Xiva xonligi Rossiyaning vasaliga aylantirildi. Amudaryo quyi oqimining o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, xonlikka 2 million 200 ming so'm tovon to'lash yuklatildi, Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida boj va majburiyatlarni bajarishdan ozod etildi.

Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. Bu vaqt Qo'qon xonligida xokimiyat uchun ichki kurash avjga chiqqan edi. 1868 yil 13 fevralda Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida shartnoma imzolangan bo'lib, xonlikning istilochilar bosib olgan hududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Rossiya savdog'arlariga Qo'qon xonligining barcha hududlarida hech qanday moneliqsiz faoliyat yuritish, karvonsaroylarga ega bo'lish huquqi berilgan edi. Bu shartnomadan qoniqmagan kuchlarning Xudoyorxondan noroziligi ortib boradi. Buning ustiga xonlik hududi qisqarganligini ro'kach qilib, xazinani

¹ Rustambek Shamsiddinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. Vatan tarxi (XVI-XX asr boshlari) ikkinchi kitob, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. "Sharq" T.,2010. 174- bet

to'ldirish uchun yangi-yangi soliqlar joriy etiladi. Xudoyorxon bosqinchilarga o'zini yaqin tutar, Qo'qon bilan Rossiyani bir davlat deb hisoblardi. Bunday vaziyat Farg'ona vodiysida Xudoyorxonga qarshi g'alayonlarni keltirib chiqardi. Qozg'alonchilarning bir qismiga mullo Ishoq boshchilik qiladi, o'zini Qo'qon xoni Olimxonning nabirasi Po'latxon deb e'lon qiladi. Xonlikda Xudoyorxonning o'g'illari Nasriddinbek va Muhammad Aminbek, ukasi Sulton Murod, nevarasi Nazarbek, Sherali dodxoq, Abdurahmon oftobachi va boshqalar ham bosh ko'taradilar. Ular bir tomondan, chor Rossiyasi bosqinchilarga qarshi, ikkinchi tomondan, Kaufmanga batamom tobe bo'lib qolgan Xudoyorxonga qarshi kurash boshlagan edilar. Xalq qozg'alonchi kuchlarga ergashadi va 1873 yildan e'tiboran butun vodiya qozg'alon boshlanadi. Xudoyorxon ularni bostirishga o'zlik qilib, oxiri Qo'qondan Toshkentga qochib ketadi.

Kaufman Xudoyorxonning 40 aravadagi boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi. Xon u yerdan qochib hajga ketadi va hayoti ayanchli yakun topadi. Xudoyorxon qochgach, qozg'alonchi kuchlar kimni xon qilib ko'tarish masalasida ikkiga bo'linib ketadi. Ayrim kuchlar Nasriddinbekni, boshqalari Po'latxonni taxtga chiqarmohchi bo'ladi, ziddiyat yanada kuchayib bordi¹.

Kaufman xonlikdagi ichki kelishmovchilikdan foydalanib, uni batamom bosib olish uchun 1875 yil avgustda katta qo'shnlarni urushga safarbar etadi. Nasriddinbek, lashkarboshi Abdurahmon oftobochi bosqinchilarga taslim bo'lib ular tomoniga o'tadilar. 1876 yil fevralda Po'latxon boshchiligidagi xalq qozg'alonlari qon bilan bostirildi. Po'latxon 1876 yil 1 martda dorga osildi, uning safdoshlari ayovsiz jazolandi. 1873-1876 yillardagi Farg'ona vodiysidagi qozg'alonlar xalqning ozodlik harakati edi. Buni o'sha davrda Kaufman ham xalq qozg'aloni deb e'tirof etgan.

Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus farmoniga binoan Qo'qon xonligi tugatildi, uning o'rniga Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi. U tez orada Oloy vodiysini ham o'z tasarrufiga kiritdi.

¹ Rustambek Shamsiddinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. Vatan tarxi (XVI-XX asr boshlari) ikkinchi kitob, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. "Sharq" T.,2010. 176- bet

Endi bosqinchilar turkmanlar yashaydigan hududlarni istilo qilishga kirishdilar. 1877 yilda Qizil Arvot, 1881 yilda Ashabot, 1884 yilda Marv bosib olindi. Bosib olingan yerlar Kaspiyorti viloyati tuzilib, u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi 20 yil davom etgan qonli urush bilan butun O'rta Osiyoni bosib oldi. Bosib olingan o'lkada mustahkam va batamom o'rnatib olish maqsadida chet mamlakatlar bilan chegaralarni aniqlash choralari ko'rdi. 1881 yilda Rossiya-Eron chegara konvensiyasi imzolani, yangi Rossiya mulklari va Rossiya-Eron o'rtasidagi chegarasi, 1895 yilda esa Pomirdagi chegaralar belgilandi. Bu chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi bosqinchilik, talonchilik harakatining yakunlovchi nuqtasi bo'ldi.

1. 2. Turkiston general-gubernatorligida hokimiyat tuzilishi va uning funktsiyalari

Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga G'arbiy Sibir general-gubernatorligi tasarrufida bo'lgan Semipalatinsk viloyati hududining bir qismi kiritildi. Chegara chizig'i Semipalatinsk viloyati chegarasidan Balxash ko'lining o'rtasigacha, undan esa daryosi bo'ylab cho'zilib Sarisuv daryosiga qadar davom etardi. Orenburg general-gubernatorligi bilan chegara chizig'i Perovsk ko'rfazi o'rtasigacha, Termembes tog'iga, undan Terken, Qalmas, Muzbil, Oqqum, Cho'bartepa tog'lari bo'ylab Mo'yinqumning janubiy etaklari va Sarisuv daryosi Chu daryosi bilan qo'shilgan joyga qadar borardi¹.

Turkiston general-gubernatorligi 1867-1886 yillarda viloyat va uyezdlarga bo'lingan edi. O'rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh joylarda uyezdlar o'rniga ularga mo'vavishdagi harbiy-hududiy birliklar okruglar, bo'limlar va rayonlar tashkil qilingandi.

Dastlab, Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat: markazi Toshkentda bo'lgan Sirdaryo hamda markazi Verniy shahrida bo'lgan Ettisuv viloyatiga bo'linardi. Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga qo'shimcha tarzda quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar tashkil qilindi: 1868 yilda - markazi Samarqandda bo'lgan Zarafshon okrugi; 1874 yilda - markazi Petroaleksandrovs (To'rtko'l)da bo'lgan Amudaryo bo'limi; 1876 yilda Ko'qon xonligining tugatilishi hisobiga - markazi Yangi Marg'ilon (Farg'ona) shahrida bo'lgan Farg'ona viloyati.

Ettisuv viloyati Sergiopolsk, Ko'pal, Verniy, Issiqko'l va To'kmoq uyezdlariga bo'linar edi. 1882 yili u Turkiston general-gubernatorligi tarkibidan chiqarildi.

Sirdaryo viloyati tarkibida 1868 yili Avliyoota, Qazala, Qurama (markazi - Ko'yliq qishlog'i), Perovsk, Turkiston, Xo'jand va Chimgent uyezdlari tashkil qilindi. Toshkent shahri mustaqil ma'muriy birlikni tashkil etdi.

¹ ЎЗР МДА, И-1 жамғарма, 20-рўйхат, 117-иш, 11-варақ

Zarafshon okrugi hududi dastlab Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'linar edi. 1871 yilda ularga yangi ma'muriy-hududiy birlik - Tog'li tumanlar qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda bekliklardan tuzildi. Samarqand bo'limi uchta, Kattaqo'rg'on bo'limi esa bitta tumandan iborat edi.

Xiva xonligidan ajratib olingan hududning bir qismida tashkil qilingan Amudaryo bo'limi Chimboy va Sho'rxon uchastkalariga bo'linardi.

Farg'ona viloyati hududida Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, O'sh va Chust uyezdlari bo'lib, ular bilan bir vaqtda CHimyon (1879 yildan boshlab - Isfara) uyezdi tuzilgan edi, uning hududi 1881 yilda Qo'qon va Marg'ilon uyezdlariga bo'lib yuborildi. Hududni tashkillashtirish tizimidagi eng quyi bo'g'in - bo'lis (volost) hisoblanardi. Biroq, bo'lis boshqaruvi izchil ravishda faqat Farg'ona viloyati hamda Zarafshon okrugida joriy qilindi. Boshqa joylarda esa, ko'chmanchi aholi sonining ko'pligi tufayli, bo'lislar bilan bir qatorda, aholi o'troq yashovchi rayonlarda oqsoqolliklar ham tashkil qilindi. Xo'jand uyezdi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning hududi uchta - Xo'jand, O'ratepa va Jizzax rayonlariga bo'linardi. Umuman olganda, chorizm tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy bo'linishda o'lkaning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va milliy xususiyatlari hisobga olinmadi. U haqli ravishda byurokratik-g'azna ahamiyatiga molik deb atalgan hududlarni tashkillashtirish bo'yicha umumimperiya tadbirining qonuniy davomi bo'ldi. «1863-1867 yillardagi muvaffaqiyatlar, - deb yozadi Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman o'zining podshoga yo'llagan hisobotida, - ...bu turg'un va o'z turg'unligiga o'ralgan mam- lakatning butun siyosiy tizimini barbod qilgani holda, yakson bo'lgan kuchlarni qo'lga olish, ularni o'lkaga rus davlati manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib kelingan yangi ijobiy siyosiy va fuqaroviy dasturlarni bajarishga yo'naltirishni uddalay olmadi»¹¹.

¹ «Русский вестник». 1868. №5.Х.Зиёевнинг «Завоевание Бухарского и Хивинского ханств царизмом» мақоласидан олин- ган. «Общественные науки в Узбекистане». 1990, №8, 39-бет.

Peal turmush chorizmning «taraqqiyot olib kirish» borasidagi rejalaridan ancha murakkab bo'lib chiqdi. O'n minglab kishilar chor agressiyasiga qarshi kurashga qo'zg'aldilar. Kaufman rus davlatining manfaatlarini bosqinchilarga qarshi yalpi qattiq kurash sharoitida joriy qilishga majbur bo'ldi. Biron-bir ahamiyatga molik shahar jangsiz taslim bo'lmadi. «Osiyoliklar, albatta, O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarimiz qonli solnomasining dahshatli tafsilotlarini juda yaxshi biladilar, - deb yozadi o'sha voqealar davrida yashagan M.Zinovev, biroq shunday bo'lsada, yo'limizda uchragan barcha shahar va qal'alarni kuch bilan olishimizga to'g'ri keldi»⁸.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida «harbiy vaziyat» omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan, yuzaga kelgan va qoida tarzida «muvaqqat» xususiyatga ega edi. Chunonchi, «Sirdaryo va Ettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom» 1867 yili «tajriba tarzida uch yilga» joriy qilindi. Undan tashqari, 1868 yilning iyunida «Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari», «Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha 1873 yil muvaqqat nizom», «Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha 1874 yil 21 may nizomi» ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi.

Ularning barchasi o'z faoliyatida «harbiy va ma'muriy hokimiyatning birdamligi va uning bitta qo'lda birlashtirilishini» tasdiqladi. SHu bilan birga, yuqorida qayd etilgan vaziyat omili va mahalliy jamiyatning an'anaviy ijtimoiy-huquqi tenglashtirish» borasidagi rejalaridan ancha murakkab bo'lib chiqdi. O'n minglab kishilar chor agressiyasiga qarshi kurashga qo'zg'aldilar. Kaufman rus davlatining manfaatlarini bosqinchilarga qarshi yalpi qattiq kurash sharoitida joriy qilishga majbur bo'ldi. Biron-bir ahamiyatga molik shahar jangsiz taslim bo'lmadi. «Osiyoliklar, albatta, O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarimiz qonli solnomasining dahshatli tafsilotlarini juda yaxshi biladilar, deb yozadi o'sha

voqealar davrida yashagan M.Zinovev, biroq shunday bo'lsada, yo'limizda uchragan barcha shahar va qal'alarni kuch bilan olishimizga to'g'ri keldi»¹.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida «harbiy vaziyat» omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan, yuzaga kelgan va qoida tarzida «muvaqqat» xususiyatga ega edi. Chunonchi, «Sirdaryo va Ettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom» 1867 yili «tajriba tarzida uch yilga» joriy qilindi. Undan tashqari, 1868 yilning iyunida «Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari», «Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha 1873 yil muvaqqat nizom», «Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha 1874 yil 21 may nizomi» ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi.

Ularning barchasi o'z faoliyatida «harbiy va ma'muriy hokimiyatning birdamligi va uning bitta qo'lda birlashtirilishini» tasdiqladi. SHu bilan birga, yuqorida qayd etilgan vaziyat omili va mahalliy jamiyatning an'anaviy ijtimoiy-huquqiy va madaniy me'yorlarini bilmaslik chorizmni «xalq tomonidan saylangan vakillarga siyosiy xususiyatga ega bo'lmagan barcha ishlarni ichki boshqarish» huquqini berish hamda «imperianing boshqa qismlarida mavjud bo'lgan, imkon qadar, sharoitga to'g'ri keluvchi oliy muassasalarni joriy etish»ga ruxsat berishga majbur qildi. Huquqiy munosabatlar sohasida shariat va mahalliy udumlarni... «ular rus qonuni bilan belgilanadigan» davrga qadar qoldirish; «mahalliy boshqaruvda davlat manfaatlari uchun zararli bo'lgan barcha narsalarni bekor qilish; hokimiyat organlarini mahalliy boshqaruv talablarining yuzaga kelishi va murakkablashuviga qarab sekin-asta rivojlantirish»ga qaror qilindi; «mahalliy vaziyatga ko'ra sudning ma'muriyatdan to'liq ajratilishi mumkinligi» ko'rsatib o'tildi.

1 «Русский вестник», 1868, №5.Х.Зиёевнинг «Завоевание Бухарского и Хивинского ханств царизмом» мақоласидан олин- ган. «Общественные науки в Узбекистане». 1990, №8, 39-бет.

Ushbu umumiy tamoyillar mazkur davrda Turkiston xalqlarining butun turmushiga tadbiq etilib, tartibga solgan ko'p sonli farmon, yo'riqnoma va direktivalarda rivojlantirildi va batafsil ifodalandi. Chorizm tomonidan yaratilgan harbiy-byurokratik boshqaruv tizimi asosiga mahalliy turmushning barcha bo'g'inlari bo'ysundirilgan edi.

Ushbu tizimning boshlig'i podsho tomonidan tayinlanib, xizmat yuzasidan Rossiya Harbiy vazirligiga bo'ysunuvchi general-gubernator hisoblanardi. U ham fuqaroviy ma'muriyat boshlig'i, ham Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni edi. Umumimperiya qonunlariga ko'ra, general-gubernator «samoderjavie huquqlari, davlat manfaatlari daxlsizligi, qonunlar aniq bajarilishining bosh posboni»ga aylantirilgan edi¹.

Podsho yorlig'i K.P.Kaufmanga «barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qo'shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish» vakolatini berardi. U o'lkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga ko'ra besh yilgacha bo'lgan muddatga badarg'a qilish va qarshilik ko'rsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish huquqiga ega edi. Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqtosorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul qilar, kreditlarni taqsimlar, shu jumladan, tub aholiga mansub bo'lgan shaxslarga o'lim jazosi berish haqidagi hukmlarni (agar ular qozilik va biylik sudlari tomonidan chiqarilgan bo'lsa) bekor qilish huquqiga ega edi.

Shunday qilib, general-gubernator o'zining yuridik jihatdan chegaralanmagan hokimiyatiga ko'ra, Turkistonning besh millionlik xalqini boshqarish huquqiga ega edi. Ushbu boshqaruv Rossiya amaldorlarining butun boshli ierarxiyasi tomonidan harakatlantiriluvchi xiyla murakkab byurokratii mashina yordamida amalga oshirilardi. Boshqaruvning ma'muriy organlarini mustamlaka hokimiyati tizimidagi o'rniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin edi: o'lka, viloyat, uyezd va bo'lis boshqaruvi.

¹ Проект всеподданнейшего отчета К.П.Кауфмана..., 163-бет.

Ushbu byurokratik mashinadagi bosh bo'g'in 1867 yili tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorining Kantselyariyasi edi. U ijroiya organi hisoblanib, shtat va inspektorlik, er va soliq majburiyatlari, yo'l qurilishi va tog'-kon ishlari masalalari, Rossiyaning Xiva va Buxoro ustidan protektorata, qo'shni sharq mamlakatlari bilan aloqa qilishga doir masalalarni hal qilish bilan shug'ullanardi. Ushbu munosabat bilan Kantselyariya quyi idoralarga ko'plab ko'rsatmalar va so'rovlar yuborib, ularga javoban ko'plab hisobot va ma'lumotlar olardi; barcha vakillik va ma'lum idoraga qarashli muassasa, oliy hukumat organlari bilan aloqalarni amalga oshirardi, uning bo'linmalarida gullab-yashnagan byurokratik qog'ozbozlik asosida katta ko'lamda ish yuritardi.

O'lkani boshqarish borasidagi turli me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va joriy qilishda Turkiston general-gubernatori Kantselyariyasi- ning roli ayniqsa katta edi. Kantselyariya maxsus tuzilgan hukumat komissiyalari bilan hamkorlikda keyinchalik Rossiya vazirliklari va Davlat Kengashi e'tiboriga havola qilinuvchi Turkistondagi barcha qonunlarning loyihalarini ishlab chiqishda qatnashardi.

Kantselyariya faoliyatida «vazifasini bajarish huquqi berilgan lavozimlarga tayinlash; qo'l ostidagi joylar va shaxslarni nazorat qilish; ishlarni hal qilish va qonunlarning bajarilishi yuzasidan choralar ko'rish; yuqori boshliqlarga taqdim qilish»¹ bilan shug'ullangan farmoyish bo'linmasi muhim o'rin tutardi. U kadrlar masalalari bilan faol shug'ullanardi.

Umuman olganda, o'lka rahbariga harbiy, siyosiy va ma'muriy sohalarda cheksiz vakolatlar berilgan edi. Xufiya maslahatchi F.Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi ham buni alohida qayd etgan, ya'ni «...kantselyariya o'ziga xos bo'lmagan va qonunga xilof hal qiluvchi bosh mahkamalik cho'qqisini egallagan» edi². Markazda uning faoliyati faqat Rossiya harbiy vaziri tomonidan nazorat qilinardi.

¹ Свод законов Российской империи. Спб., 1892. 11-т., 19-бет.

² Гире Ф.К. Отчет по ревизии Туркестанского края. Спб., 888, 10-бет.

Viloyatlardagi mahalliy ma'muriyatni harbiy gubernatorlar boshqarardi. Ular bir vaqtning o'zida u yoki bu viloyatda joylashtirilgan qo'shin sonidan kelib chiqib, korpus yoki diviziya qo'mondonlari maqomiga ham ega edilar. Masalan, Ettisuv viloyatida harbiy gubernator bir vaqtning o'zida Ettisuv kazaklar qo'shinining atamani ham edi.

Xodimlar Harbiy vazir, Ichki ishlar vaziri va Turkiston general-gubernatori bilan oldindan kelishilgan taqdimnomaga ko'ra, podsho tomonidan lavozimga tayinlanar va bo'shatilardi¹.

«1867 yil nizomi»ga ko'ra, ularning qo'liga «ma'muriy, politsiya, sudlov va harbiy hokimiyat», hujjatda aytib o'tilganidek, «viloyat hokimiyatining ahamiyatini mahalliy aholi ko'z o'ngida oshirish, aholining osoyishtaligini ta'minlash va undagi har qanday tartibsizliklarni bostirish uchun»² berilgan edi.

Quyi ma'muriy organlar va mahalliy aholiga nisbatan harbiy gubernatorlarga mohiyatan diktatorlik vakolatlari berilgan edi. Bular: o'troq va ko'chmanchi aholining bo'lis qurultoylarini chaqirish joylarini belgilash, bo'lis boshqaruvchilarini lavozimda tasdiqlash yoki saylovlar bekor qilingan taqdirda, ularni o'z ixtiyoriga ko'ra tayinlash; ariq oqsoqollarini tayinlash va jamoat pulidan ularga beriluvchi maosh miqdorini belgilash; xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan takdirda, yangi saylovlarni tayinlash; o'z ixtiyoriga ko'ra uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezd boshlig'i bundan mustasno bo'lib, ular to'g'risida faqat general-gubernator nomiga takdimnoma yozilardi); uyezd boshliqlari tub aholi vakillariga belgilagan jarima to'lash jazosi yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqish³.

Ma'muriy vazifalar bilan bir qatorda, harbiy gubernatorlarga politsiya va sudlov vazifalari ham berilgan edi. Ular tub aholi vakillariga tuzilgan hukumat

¹ ЎзР МДА. И-1 жамғарма, 27-рўйхат, 659-иш, 18-варак.

² Ўша жойда.

³ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. Спб., 1867, 109-126-бетлар

komissiyalari bilan hamkorlikda keyinchalik Rossiya vazirliklari va Davlat Kengashi e'tiboriga havola qilinuvchi Turkistondagi barcha qonunlarning loyihalarini ishlab chi- qishda qatnashardi.

Kanselyariya faoliyatida «vazifasini bajarish huquqi berilgan lavozimlarga tayinlash; qo'l ostidagi joylar va shaxslarni nazorat qilish; ishlarni hal qilish va qonunlarning bajarilishi yuzasidan choralar ko'rish; yuqori boshliqlarga taqtsim qilish»¹ bilan shug'ullangan farmoyish bo'linmasi muhim o'rin tutardi. U kadrlar masalalari bilan faol shug'ullanardi.

Umuman olganda, o'lka rahbariga harbiy, siyosiy va ma'muriy sohalarda cheksiz vakolatlar berilgan edi. Xufiya maslahatchi F.Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi ham buni alohida qayd etgan, ya'ni «...kantselyariya o'ziga xos bo'lmagan va qonunga xilof hal qiluvchi bosh mahkamalik cho'q- qisini egallagan» edi². Markazda uning faoliyati faqat Rossiya harbiy vaziri tomonidan nazorat qilinardi.

Viloyatlardagi mahalliy ma'muriyatni harbiy gubernatorlar boshqarardi. Ular bir vaqtning o'zida u yoki bu viloyatda joylashtirilgan qo'shin sonidan kelib chiqib, korpus yoki diviziya qo'mondonlari maqomiga ham ega edilar. Masalan, Ettisuv viloyatida harbiy gubernator bir vaqtning o'zida Ettisuv kazaklar qo'shinining atamani ham edi.

Xodimlar Harbiy vazir, Ichki ishlar vaziri va Turkiston general-gubernatori bilan oldindan kelishilgan taqdimnomaga ko'ra, podsho tomonidan lavozimga tayinlanar va bo'shatilardi³.

«1867 yil nizomi»ga ko'ra, ularning qo'liga «ma'muriy, politsiya, sudlov va harbiy hokimiyat», hujjatda aytib o'tilganidek, «viloyat hokimiya- tining ahamiyatini mahalliy aholi ko'z o'ngida oshirish, aholining osoyishtaligini ta'minlash va undagi har qanday tartibsizliklarni bostirish uchun»⁴ berilgan edi.

¹ Свод законов Российской империи. Спб., 1892, 11-т., 19-бет.

² Гирс Ф.К. Отчет по ревизии Туркестанского края. Спб., 888, 10-бет.

³ ЎзР МДА. И-1 жамғарма, 27-рўйхат, 659-иш, 18-варак.

⁴ Ўша жойда.

Quyi ma'muriy organlar va mahalliy aholiga nisbatan harbiy gubernatorlarga mohiyatan diktatorlik vakolatlari berilgan edi. Bular: o'troq va ko'chmanchi aholining bo'lis qurultoylarini chaqirish joylarini belgilash, bo'lis boshqaruvchilarini lavozimda tasdiqlash yoki saylovlar bekor qilingan taqtsirda, ularni o'z ixtiyoriga ko'ra tayinlash; ariq oqsoqollarini tayinlash va jamoat pulidan ularga beriluvchi maosh miqdorini belgilash; xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan taqdirda, yangi saylovlarni tayinlash; o'z ixtiyoriga ko'ra uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezd boshlig'i bundan mustasno bo'lib, ular to'g'risida faqat general-gubernator nomiga taqdimnoma yozilardi); uyezd boshliqlari tub aholi vakillariga belgilagan jarima to'lash jazosi yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqish¹.

Ma'muriy vazifalar bilan bir qatorda, harbiy gubernatorlarga politsiya va sudlov vazifalari ham berilgan edi. Ular tub aholi vakillariga 100 so'mgacha jarima solish va ularni bir oylik muddatga qamoq jazosi bilan jazolash huquqiga ega edilar.

Ularning vakolatiga sud mahkamalari va turmalarning faoliyatini nazorat qilish, jinoiy ishlar bo'yicha chiqarilgan hukmlarni tasdiqlash kirardi².

Harbiy gubernator qoshida yordamchisi ham bo'lib, u harbiy gubernator tobi qochgan, yo'q bo'lgan yoki bo'shatilgan hollarda uning xizmat vazifasini bajarardi³.

Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limi boshliqlariga ham xuddi shunday keng vakolatlar berilgan edi. SHu bilan bir qatorda, Zarafshon va Amudaryo ma'muriyatlariga diplomatik vazifalar ham berilgandi. Zarafshon okrugi boshlig'ining vakolatiga qo'shni Buxoro amirligining bekliklari bilan «chegara munosabatlarini olib borish» ham kirardi, Amudaryo bo'limi boshlig'i esa Rossiyaning Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblanardi.

¹ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. Спб., 1867, 109-126-бетлар

² Ўшша жойла

³ ЎзР МДА. И-1 жамғарма, 27-рўйхат, 659-иш, 24-варак

Viloyat boshqaruvlari muhim mahalliy davlat muassasalari hisoblanar edi. Ular kollegial organ bo'lib, ma'muriy va xo'jalik boshqaruvini amalga oshirishda «1867 yilgi nizom loyihasi» hamda general-gubernatorning maxsus ko'rsatmalariga amal qilardi.

Viloyat boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarar edi. Viloyat boshqaruvlari ma'muriy, sudlov, politsiya, moliya va xo'jalik yuritish funksiyalarini bajarardi. Mohiyatan ular guberniya boshqaruvini takrorlard, biroq ularga nisbatan hiyla keng vakolatlarga ega edi, chunki Rossiyaning ichki rayonlarida mavjud bo'lgan barcha guberniya muassasalari vazifalarini bir o'zi bajarardi¹.

Viloyat boshqaruvlari tuzilishiga ko'ra, bo'linmalardan tashkil topgan bo'lib, ularning soni mustamlaka tuzumi qaror topishi va kuchayishi bilan ortib bordi. CHunonchi, agar 1867 yili Sirdaryo va Ettisuv viloyat boshqaruvlarida atigi uchta - taqsimot, xo'jalik va sudlov bo'linmalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 80-yillarning o'rtalariga kelib oraliq chegara, qurilish, qishloq davolash, veterinariya va hisob-kitob ishlari bo'linmalari ochildi². Bundan tashqari, har bir viloyat boshqaruvi qoshida bosmaxona va statistika komitetlari tashkil qilindi.

Viloyat boshqaruvi bo'linmalari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash bilan harbiy gubernator shug'ullanar edi.

Ilmiy, texnik, tibbiy hamda u yoki bu viloyat uchun muhim sanalgan boshqa masalalarni hal qilish uchun viloyat boshqaruvlari qoshida hozirlik kengashlari tashkil qilindi. Ushbu kengashlarda maslahatchi va ekspertlar sifatida ish olib borish uchun mutaxassislar taklif etilar edi³.

Taqsimot bo'limi xodimlarining majburiyatlariga quyidagilar kirardi: viloyat hududiy bo'linishi va qurilishi, general-gubernator, harbiy gubernatorlar va hukumat farmonlari, buyruqlari, farmoyishlarini tanlash,

¹ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. Спб., 1867, 11-12-бетлар, 41-бет.

² Обзор Сырдарьинской области за 1885 г. Т., 1886, 252-бет

³ Кўрсатилган асар, 141-бет.

saralash va e'lon qilish; qonunchilikni yuritish va ma'lumot xususiyatiga ega hujjatlarni berish; viloyat amaldorlar apparatining xizmat va ta'til ishlari bilan shug'ullanish va h.k.

Viloyat boshqaruvida bosh rolni o'ynovchi xo'jalik bo'linmasiga quyidagi muhim vazifalar yuklangan edi: o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida er taqsimoti, vaqflar bilan bog'liq ishlarni yuritish, suvdan foydalanish va tub aholiga solik, solish ishlarini boshqarish; mahalliy pul majburiyatlari smetasini tuzish va mahalliy sarf- harajatlarni boshqarish, boj yig'implarining nazorati va nizoli ishlarni hal qilish; turli shartnomalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash, yakka shaxslarning iltimosiga ko'ra, viloyat xom ashyo manbalari bilan ish olib borish, sanoat korxonalari va firmalar ochishga litsenziyalarni rasmiylashtirish; savdo bitimlari va pudratlarini rasmiylashtirish va hokazo.

Ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda amaldorlar ma'muriy faoliyat me'yorlari, qonuniylik va huquqiy himoya tamoyillariga kam rioya qilardilar. Ularning shaxsiy istagi ko'p holda har qanday ko'rsatma va qonundan ustun kelardi.

Umuman olganda, o'lkadagi biron-bir jamoat tuzilmasi 1867 yil qonunlariga ko'ra, maxsus tashkil qilingan organlar va ularda ishlovchi amaldorlarning boshqaruvi, kuzatuv yoki nazoratisiz faoliyat yurita olmasdi¹. Mustamlakachilik hokimiyatining tub aholining turmush sohalariga "tumshuq suqishi", uni tartibga solishga urinishi quyi hokimiyat organlari tuzilishi va funktsiyalarida yanada aniqroq ko'zga tashlanadi.

Chunonchi, agar 1867 yili Sirdaryo va Ettisuv viloyat boshqaruvlarida atigi uchta taqsimot, xo'jalik va sudlov bo'linmalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 80-yillarning o'rtalariga kelib oraliq chegara, qurilish, qishloq davolash, veterinariya va hisob-kitob ishlari bo'linmalari ochildi². Bundan tashqari, har bir viloyat boshqaruvi qoshida bosmaxona va statistika komitetlari tashkil qilindi.

¹ ЎзР МДА. И-1 жамғарма, 27-рўйхат, 659-иш, 27-28- варақлар.

² Кўрсатилган асар, 141-бет.

Viloyat boshqaruvi bo'linmalari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash bilan harbiy gubernator shug'ullanar edi.

Ilmiy, texnik, tibbiy hamda u yoki bu viloyat uchun muhim sanalgan boshqa masalalarni hal qilish uchun viloyat boshqaruvlari qoshida hozirlik kengashlari tashkil qilindi. Ushbu kengashlarda maslahatchi va ekspertlar sifatida ish olib borish uchun mutaxassislar taklif etilar edi¹.

Taqsimot bo'limi xodimlarining majburiyatlariga quyidagilar kirardi: viloyat hududiy bo'linishi va qurilishi, general-gubernator, harbiy gubernatorlar va hukumat farmonlari, buyruqlari, farmoyishlarini tanlash, saralash va e'lon qilish; qonunchilikni yuritish va ma'lumot xususiyatiga ega hujjatlarni berish; viloyat amaldorlar apparatining xizmat va ta'til ishlari bilan shug'ullanish va h.k.

Viloyat boshqaruvida bosh rolni o'ynovchi xo'jalik bo'linmasiga quyidagi muhim vazifalar yuklangan edi: o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida er taqsimoti, vaqflar bilan bog'liq ishlarni yuritish, suvdan foydalanish va tub aholiga soliq solish ishlarni boshqarish; mahalliy pul majburiyatlari smetasini tuzish va mahalliy sarf-harajatlarni boshqarish, boj yig'imlarining nazorati va nizoli ishlarni hal qilish; turli shartnomalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash, yakka shaxslarning iltimosiga ko'ra, viloyat xom ashyo manbalari bilan ish olib borish, sanoat korxonalari va firmalar ochishga litsenziyalarni rasmiylashtirish; savdo bitimlari va pudratlarini rasmiylashtirish va h.k.²

Ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda amaldorlar ma'muriy faoliyat me'yorlari, qonuniylik va huquqiy himoya tamoyillariga kam rioya qilardilar. Ularning shaxsiy istagi ko'p holda har qanday ko'rsatma va qonundan ustun kelardi.

Umuman olganda, o'lkadagi biron-bir jamoat tuzilmasi 1867 yil qonunlariga ko'ra, maxsus tashkil qilingan organlar va ularda ishlovchi amaldorlarning boshqaruvi, kuzatuvi yoki nazoratisiz faoliyat yurita olmasdi.

¹ Обзор Сырдарьинской области за 1885 г. Т., 1886. 252-бет

² ЎзР МДА. И-1 жамғарма, 27-рўйхат, 659-иш, 27-28- варақлар.

Mustamlakachilik hokimiyatining tub aholining turmush sohalariga "tumshuq suqishi", uni tartibga solishga urinishi quyi hokimiyat organlari tuzilishi va funktsiyalarida yanada aniqroq ko'zga tashlanadi.

Turkiston o'lkasining ayrim shahar markazlarida «1867 yil nizom loyihasi»ga muvofiq, ayrim munitsipal funktsiyalarga ega bo'lgan hamda turli soliq va savdo poshlinalarini taqsimlash va yig'ish bilan shug'ullangan jamoat xo'jalik muassasalari tashkil qilindi.

1876 yili K.P.Kaufman farmoyishi bilan shahar xo'jalik boshqarmalari bekor qilindi va shahar xo'jaligi rus uyezd ma'muriyati nazoratiga olindi. Faqat Samarkand va Yangi Marg'ilon shaharlarida bunday boshqarmalar saqlab qolindi. Ular harbiy gubernatorlar tomonidan tayinlangan rus harbiy amaldorlari va mahalliy savdo- garlar vakillaridan tashkil topgan edi.¹

Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining siyosiy va ma'muriy markazi hisoblanib, o'ziga xos ma'muriyat tizimiga ega edi.

Bu erda shahar ma'muriyatini shaharning maxsus boshlig'i boshqarardi. SHaharning «eski» va «yangi» qismlarida alohida jamoat-xo'jalik boshqaruvlari tashkil qilingan edi. «Eski» Toshkentda boshqaruv a'zolari shaharning oliy tabaqa vakillari tomonidan saylanardi, «Evropa» qismida esa rahbarlar Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori tomonidan tayinlanardi.

Toshkentdagi jamoat-xo'jalik boshqaruvlarining faoliyati, boshqa shaharlarda bo'lgani singari, shahar boshlig'ining farmoyishlarini bajarishdan iborat edi.

1877 yili Toshkentda 1870 yil 16 iyulda chiqarilgan «SHahar nizomi» joriy qilindi. Unga muvofiq shahar xo'jaligi boshqaruvi shahar Dumasi qo'lga o'tdi.

Saylovlarda qatnashish huquqi 25 yoshga to'lgan, rus fuqarosi bo'lgan, ko'chmas mulkka ega, soliq- larni to'lovchi, ishi sud yoki tergov ostida bo'lma- gan toshkentliklarga berilgan edi².

¹ ЎзР МДА. И-17 жамғарма, 16-рўйхат, 55-иш, 101-варақ; 3-рўйхат, 203-иш, 26-варақ.

² ЎзР МДА. И-1 жамғарма, 16-рўйхат, 1650-иш, 5-варақ.

Madrasalar, machitlar hamda ko'chmas mulk, shu jumladan, vaqflarga ega bo'lgan boshqa muassasalar ham saylovlarda ovoz berish huquqiga ega edi. Shaharning mehnatkash aholisi saylov huquqidan mahrum etilgandi.

1.3 Markaziy boshqaruv, Viloyat va tuman boshqaruvi, Toshkent shahri idorasi. Qishloq boshqaruvi tuzilmalarining shakllanishi.

XIX asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyo xalqari taqidirida keskin va fojiali burilishi yasagan davr bo'ldi. Podsho tuzumining XIX asr 60-80 – yillaridagi harbiy yurishlari natijasida ular avval-boshdan «chet o'lka» yo'nilishida va Rossiyaga bog'liq holda yuzaga kelgan va rivojlangan yangi huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimiga kiritildi. Zo'rlik yo'li bilan joriy qilingan bu munosabatlar mintaqada an'anaviy qaror topgan munosabatlarni va ularning milliy asosda rivojlanish imkoniyatlarini ko'porib tashladi. Yangi munosabatlarni huquqiy rasmiylashtirish tegishli hokimiyat institutlari va «metropoliya - koloniya» yoki «markaz – chet o'lka» prinsipiga ko'ra ish olib borgan boshqaruv tizimini yaratish yo'li bilan amalga oshirildi.

Turkistonda boshqaruvni tashkil qilishga Podsho tuzumi uni bosib olgan damdan boshlab qirishdi. 1865 yil 2 martda Rossiya Senatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizdan Issiqqo'lgacha bo'lgan O'rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh xududlari Turkiston viloyatini tashkil qilish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Ushbu hududda, dastlabki hisob – kitoblarga ko'ra, 453 ming kishi istiqomat qilar edi.

Turkiston viloyatining ichki ma'muriy-hududiy bo'linish tizimi sof harbiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosini harbiy-hududiy birliklar tashkil qilardi.

Viloyat uch bo'limga: o'ng qanot, markaz va chap qanotga bo'lingan edi. Keyinchalik Sirdaryo rayoni nomini olgan o'ng qanotga Aral'sk, 1-fort (keyinchalik Kazalinsk deb nomlandi) va Perovsk; markazga Turkiston va Chimkent rayonlari; chap qanotga Avliyoota, Marke va Pishpak shaharlari qirardi.¹

Viloyatning ma'muriy markazi qilib dastlab CHimkent shahri belgilandi. Podsho qo'shinlari Toshkentni egallaganidan so'ng, to u Rossiya tarkibiga rasman kiritilguniga qadar, bu shahar Turkistonning ma'muriy markazi bo'lib turdi.

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. Т., «Академия» нашриёти. 2002. 29,30 бетлар.

Imperiyaga rasman qo'shib olingan damdan e'tiboran Toshkent va uning tevaragi Toshkent rayoni deb atalgan alohida ma'muriy birlikni tashkil qildi. 1866 yili Turkiston viloyati tarkibida Erjar va Zomin bo'limlari, O'ratepa va Jizzax rayonlari tashkil qilindi.

Hududni ichki tashkillashtirish imperiyaga xos ma'muriy an'analar ruhida, mutlaq harbiy qo'mondonlik va Podsho g'aznasi manfaatlaridan kelib chiqib o'tkazildi. Davlat o'z tarkibiga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish su'ratlariga ko'ra, «buyuk rus» markazidan orqada bo'lgan xalqlar yashovchi hududlarni kiritar ekan, Podsho tuzumi, eng avvalo, arzon va samarali boshqaruv hamda mustamlaka ekspluatatsiya tizimini yaratish haqida qayg'urdi.

Mustamlaka o'lkalarni boshqarish asoslari absolyutizm davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, ular samoderjaviyning Volga bo'yi, Sibir, Qozog'iston, Kavkaz va boshqa qator xududlardagi manfaatlarini o'zmi-ko'pmi ta'minlab kelardi. Ular zahirida harbiy va harbiy bo'lmagan hokimiyat birlashar hamda ma'muriy, sudlov, xo'jalik va boshqa funktsiyalar bita muassasa qo'lida jamlanardi. Xudi shunday boshqaruv usullari, deyarli o'zgarmagan shaklda, yangi tarixiy sharoitda Turkistonda ham joriy qilina boshladi.

Podsho tuzumi Turkistonda keng istilochilik harakatlarini boshlar ekan, xududiy egalik qo'lamiga doir tayyor puxta rejaga ega emasdi. Binobarin, bosib olingan erlarda boshqaruvni tashkil qilish bilan bog'liq tayyor loyihalar ham yo'q edi. Hatto XIX asrning 60-yillari boshlarida ham markazi Toshkentda bo'lgan «Alohida Qirg'iz cho'li general-gubernatorligi»ni tashkil qilish haqidagi xom takliflar hukumat doiralarida nomaqbul deb hisoblab kelinardi. SHunday bir sharoitda Turkiston viloyatining ma'muriy qurilishini tartibga solishga qaratilgan ma'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish tashabbusi Podsho harbiy qo'mondonligi qo'liga o'tdi. Shu mazmundagi birinchi xujjat YAngi Qo'qon liniyasi qo'mondoni general M.G. Chernyaevning shtabida ishlab chiqilib, Peterburgga «O'rta Osiyo chegara viloyati haqidagi nizom loyihasi» ko'rinishida taqdim etildi. Bu loyiha Harbiy vazirlikda qayta ishlandi va 1865 yilning

6 avgustida Aleksandr II «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom»ga imzo chekdi.¹

Ushbu qonunchilik hujjatida hokimiyatni tashkillashtirish tizimi Kavkazorti hududidagi singari «harbiy-xalq boshqaruvi» deb yuritildi.

Ushbu hujjatga muvofiq, mahalliy ma'muriyat boshlig'i harbiy gubernator hisoblanib, uning qo'liga harbiy va harbiy bo'lmagan hokimiyat berilgan edi. Bu lavozimiga rus amaldorlari tayinlanib, mahalliy aholi ustidan umumiy nazorat yurituvchi mahalliy boshqaruvchilar bo'ysundirilgan edi. Ularning vazifasi – karvon tijorati xavfsizligini ta'minlash, tub aholidan soliq yig'imlarini to'plash, aholining majburiyatlarni va ma'muriyat ko'rsatmalarini bajarishini nazorat qilishdan iborat edi.

Mahalliy boshqaruvchilar zimmasiga sudlov funkstiyalari ham yuklatilgan bo'lib, ular mahalliy va rus vakillari aralashgan qotillik, o'g'irlik va talonchilik bilan bog'liq jinoiy ishlar bilan shug'ullanar edilar.

Bundan tashqari, ular an'anaviy musulmon sudlov muassasalarining faoliyatini ham nazorat qiladilar. Mahalliy boshqaruvchilarning xo'jalik funkstiyalari o'rmonlarning butligi, sug'orish tarmoqlaridagi suv taqsimoti va bu tarmoqlarni yaroqli holdi saqlashni kuzatib borish bilan chegaralangan edi.²

Xuddi shunday majburiyatlar «1865 yilgi muvaqqat Nizom»da shahar hokimlari zimmasiga ham yuklatilgan bo'lib, bu lavozimiga yirik shaharlarda rus ofisterlari tayinlanardi.

Ushbu boshqaruv apparatida «mahalliy» deb ataluvchi ma'muriyat ko'makchi rol o'ynar edi. Xonlik davrida bo'lgani kabi, shaharlarning tub aholisi yashaydigan mahallarni oqsoqollar boshqarardi. Bosh oqsoqolga mahalla tomonidan saylanuvchi shahar tumanlari oqsoqollari bo'ysunardilar. Polistiya funkstiyasini raislar bajarardilar. Ular bozordagi savdo va jamoat tartibini ehnazorat qilardilar. Soliq yig'implari bilan zakotchi shug'ullanardi.


¹ Собрание узаконений и распоряжений, издаваемое при Правительствующем Сенате. Спб. Пг., 1863-1917, 1 бўлим, 7-хужжат, 1865 й.

² ЎзР МДА. И – 450 жамғарма (Управляющий местным населением центра области), 1-рўйхат, 16-иш, 30,31-варақлар; 11-иш, 1,8,13,20-25-варақлар.

Turkiston viloyatining ko'chmanchi aholisi urug'lar, bo'limlar va guruhlariga bo'linardi. Urug'larni urug'boshilar – manaplar, sultonlar va kata biylar; bo'limlarni – biylar; guruhlarni – to'g'ochlar boshqarardilar. Sulton, manap va biy unvonlari asosan otadan bolaga meros bo'lib o'tardi. Shunga qaramay, sulton, manap va biylarning o'rniga saylangan yangi shaxslar mahalliy aholi boshqaruvchisi, ya'ni Podsho harbiy amaldorining tasdig'idan o'tishlari lozim edi¹.

«1865 yil 6 avgust nizomi»ga ko'ra, o'troq aholi uchun qozilik sudlari, ko'chmanchi aholi uchun esa biylik sudlari xizmat qiladigan bo'ldi. Bu sudlarning tuzilishidagi o'zgarishlar natijasida qozikalon lavozimini bekor qilindi, barcha qozilarning huquqlari tenglashtirildi, qozilarni uch yilda bir marta saylash tartibi joriy qilinib, da'vogarga arizasini ko'rib chiqishlari uchun o'zi ko'proq ishongan qoziga murojaat qilish xuquqi berildi.

Shariat qozisi (“xalq sudi”).



Qozilar hokimiyatining cheklanishi natijasida mahalliy aholining rus fuqarolari yoki Podsho hukumati manfaatlariga u yoki bu darajada daxl etuvchi ishlari Podsho sudlariga o'tkaziladigan bo'ldi; shariat qonunlariga ko'ra, o'lim jazosi buyuriladigan


¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 33 бет.

yoki tan jarohatlari etkazilishi mumkin boʻlgan barcha jinoiy va fuqaroviy ishlar boʻyicha chiqarilgan hukmlar Turkiston viloyati harbiy gubernatori tomonidan tasdiqlanadigan; savdo sotiq bilan bogʻliq ayrim baxsli ishlarni koʻrib chiqish uchun rus va mahalliy savdogarlardan iborat tijorat sudlariga (ular chiqargan qarorlarni soʻng viloyat harbiy gubernatoriga tasdiqlash uchun taqdim etish sharti bilan) beradigan boʻldi. Viloyat harbiy gubernatoriga, shuningdek, qozilik sudi hukmlarini rus harbiy-jinoiy qonunlariga muvofiq tegishli jazolar bilan almashtirish huquqi ham berilgan edi¹.

Markaziy boshqaruv.

Podsho yorligʻi K.P.Kaufmanga “barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qoʻshni mamalakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish” vakolatini berardi. U oʻlkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga koʻra besh yilgacha boʻlgan muddatga badargʻa qilish va qarshilik koʻrsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish huquqiga ega edi. Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqdorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul qilar, kreditlarni taqsimlar edi².


I. Markaziy boshqaruv.



¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. Т., «Академия» нашриёти. 2002. 34 бетлар.

² Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 46 бет.


Chor Turkistonida viloyat boshqaruvi.



Viloyat boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarar edi.viloyat boshqaruvlari ma`muriy, sudlov, polisiya, moliya va xo`jalik yuritish funksiyalarni bajarardi.Mohiyatdan ular guberniya boshqaruvini takrorlardi,biroq ularga nisbatan hiyla keng vakolatlarga ega edi,chunki Rossiyaning ichki rayonlarida mavjud bo`lgan barcha guberniya muassasalari vazifalarini bir o`zi bajarardi.¹

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 51 бет.


Chor Turkistonida tuman boshqaruvi.



Uyezd ma'muriyatini uyezd boshlig'i boshqarib, unga uyezdga joylashgan qo'shinlar ham bo'ysunar edi. Uyezd boshliqlari viloyat harbiy gubernatorlarining taqdimnomasiga ko'ra, general – gubernator tomanidan tayinlanib, ishdan olinardi. Uyezd boshlig'i bir vaqtning o'zida ispravnik, polismeyster, zemstvo boshlig'i, shahar hokimi, yer soliq xizmati raisi ham edi. Uyezd boshqaruvining shaxsiy tarkibiga uyezd boshlig'idan tahsqari, uning yordamchilari va kanselyariya xodimlari ham kirardi. Uyezd boshlig'i betob yoki yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini yordamchilari bajarardi. Ma'muriy ishlar bo'yicha yordamchi odatda, uyezd kanselyariyasini boshqarardi.¹

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 54 бет.

**Shahar boshqaruvi.
Tuman shaharlari idorasi.**




Turkiston o'lkasining ayrim shahar markazlarida “1867-yil nizom loyihasi”ga muvofiq, ayrim municipal funksiyalarga ega bo'lgan hamda turli soliq va savdo poshlinalarini taqsimlash va yig'ish bilan shug'ullangan jamoat xo'jalik muassasalari tashkil qilindi.

1876-yili K.P.Kaufman farmoyishi bilan shahar xo'jalik boshqarmalari bekor qilindi va shahar xo'jaligi rus uyezd ma'muriyati huzuratiga olindi.¹

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 56 бет.


Toshkent Dumasi aʼzolari oʻrtasidagi ushbu adolatsiz nomutanosiblik Girsning tavitish hisobotida ham qayd etib oʻtiladi. U koʻpgina masalalar shaharning “Osiyo” qismi aholisi zarariga hal qilinayotgani va “shaharning ikkala qismi vakillarining Dumadagi ozmi-koʻpmi adolatli nisbati ikki xalqning birlashuvida foyda beribgina qolmay, shu bilan birga toʻgʻri va teng huquqli oʻz-oʻzini boshqarishni ham kafolatlashi mumkin”ligini oʻqtirib oʻtadi.¹

Toshkent shahri idorasi



¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 59 бет.

Podsho Turkistonida qishloq boshqaruvi.




Bo'lis qurultoyiga bo'lis boshqaruvchisi, xalq sudyalari va ularga nomzodlarni saylash; quyi ma'muriyatlarning mansabdor shaxslariga maosh belgilash; ko'priklar, yo'llar, xo'jalik qurilmalarining holatini nazorat qilish; suvdan foydalanish va suv ta'minoti ishlarini boshqarish huquqi berilgan edi.

Bo'lis boshqaruvchisi xo'jalik ishlaridan tashqari polisiya funksiyalarini ham bajarardi: bo'lisning ichki osoyishtaligini nazorat qilar, xalq sudida ko'riladigan jinoyatlar bo'yicha surishtiruv ishlarini olib borar, aholi e'tiboriga mustamlaka ma'muriyatining barcha qonun va farmoyishlarini yetkazardi.

K.P.Kaufman buyrug'iga ko'ra, harbiy gubernatorlar, ularning yordamchilari, harbiy-okrug boshqaruvidagi bo'lim boshliqlari, general-gubernator

kanselyariyasi boshlig'i va uyezd boshliqlari chiqarildi. Bundan tashqari, harbiy gubernatorlarga uyezd sudyalariga tanbeh va hayfsan berish huquqi berildi.¹

Aleksandr II tomonidan 1864 yilda sud nizomlarining joriy etilishidan so`nggi umumsaltanat sudi (XX asr boshlari)



Hokimiyat bilan hamkorlik qiluvchi halq sudyalarining amalparastligi, g`arazgo`yligi va poraxo`rligi ularni darg`azab qilib, tuzumga nisbatan nafratini oshirardi.

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 63 бет.


Turkistonni boshqarish mustamlaka apparatida polisiya muhim rol o`ynar edi. U, muntazam armiya singari, samoderjaviye quroli, uning o`lkadagi manfaatlarning tayanchi va himoyachisi hisoblanardi.¹

**Rus imperiyasi ichki ishlar vazirligi polisiya departamenti organi –
Turkiston tuman muhofaza bo`limi (maxfiy siyosiy polisiya –
oxranka) - TRMB
1.Shaxsiy tarkib**



¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 74 бет.

Turkiston o`lkasida polisiya – jandarm boshqarmasi bo`limi.¹



Mahalliy ma`muriyatning general-gubernatordan tortib bo`lis boshqaruvchisiga qadar bo`lgan barcha amaldorlari polisiya vakolatlariga ega edi. General-gubernator “mahalliy sharoitga ko`ra zarur va foydali deb topgan har qanday Podshoalarni ko`rish”, “siyosiy jihatdan zararli” hisoblangan shaxslarni besh yilgacha muddatga badarg`a qilish va hokimiyat vakillariga qarshilik ko`rsatgan taqdirda ularni harbiy sudga berish” huquqiga ega edi.

Viloyat harbiy gubernatorlari tub aholini “o`z ixtiyoriga ko`ra” hibsga olish huquqiga ham ega bo`lganlarida, bu ularning polisiyachilik hatti-harakatlariga keng yo`l ochdi.

Uyezd boshliqlariga metropoliya ispravnigi vakolati, shu jumladan polismeysterlik funksiyalariga ham berildi. Qo`qon, Samarqand, Yangi Marg`ilon singari yirik shaharlarda hatto polismeysterlar ham uyezd boshliqlari kabi jazoga

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 76,77 бет.

tortish huquqlarini oldilar. Kichkina xato qilishi va gapga kirmaganligi uchun xam tub aholi vakillari jarima yoki bir oylik jazoga tortilardi.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriyat va polistiya turmalarni muntazam nazariyatda tutishardi. O'lkaning barcha yirik shaharlarida va kata qishloqlarida xam harbiy va harbiy bo'lmagan maxkamalar tasarrufida to'rmalar qirilgan edi. Turkiston o'lkasida to'rma qurish va ularning ushlab turishi uchun har yili Podsho g'aznasidan 70-80 ming rubl miqdoridagi mablag' ajratilardi.

II BOB TURKISTONDA RUS GENERALLARI AMALGA OSHIRGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI.

2.1 Turkiston o'lkasida harbiy generallari amalga oshirgan mustamlaka tadbirlari.

Turkiston o'lkasida hukmronlik qilgan harbiy generallar o'lkada mustamlakachilik zulmini kuchaytirishgan. Ularning har-biri mahalliy aholiga nisbatan shovinistik siyosat yurgizishgan. Har-bir general Turkistonda o'zini cheklanmagan hukmdor sifatida faoliyat olib borishgan. Turkistonning birinchi general-gubernatori Kaufman ham o'lkada shunday siyosat yuritgan

Kaufmanning bunday «o'zboshimchaligi» taftishchi Girsga keyinchalik o'lkani boshqarish uchun podshoh tomonidan unga berilgan huquqlardan ancha-muncha chetga chiqqanligi va O'rta Osiyo chekka o'lkasini boshqarish uchun 1867 yilda ko'rsatilgan eng asosiy qoidalarni o'zgartirgan deb aytishga bahona bo'lgan edi.¹

Turkistonni boshqarish yuzasidan amaldorlarning yozishmalari ancha jo'shqin bo'lgan va 10 yildan ko'proq davom etgan. Kaufman, o'lka iqtisodiy hayotidagi islohotlarni ularning cho'zib yuborilishi, nafaqat «davlat g'aznasiga, shuningdek Rossiyaning Turkistonlagi siyosiy mavqeiga ham zarar etkazadi» deb hisoblab, tezroq o'tkazilishini uqtirgan edi. Kaufman o'zining markazdagi muxoliflariga jumladan shunday yozadi: «Agar biz o'lkani shu tariqa boshqarsak, aholi istiqbolda ham bizni o'zining hukmdori emas, balki adolatli tarzda har ehtimolga qarshi tasarrufida qudratli harbiy kuch bo'lgan poliyastiya agentlari deb hisoblaydi. Biz uni tartibning zohiriy shakllariga rioya etishga o'rgatamiz, ammo hayotning o'ziga jiddiy ta'sir o'tkaza olmaymiz. Bunday hatti-harakat bag'oyat halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin».²

80-yillarning boshlariga kelib «harbiy xalq» boshqaruvi (unga xos harbiy-ma'muriy zo'ravonlik xarakteri bilan), ya'ni mohiyatan feodal boshqaruv tizimi

¹ Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению, в 2-частях Ч. Администрации Управления краем, 4-бет.

² Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 181-182 бет.

metropoliya savdo sanoati doiralari va mahalliy tadbirkorlar manfaatlarini bilan bog'liq bo'lgan yangicha munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgani oydinlashdi. Hukmron doiralar tomonidan ba'zan ancha tahdidkor jaranglagan, hatto samoderjavie «poydevori»ni barbod qiladi, deb hisoblagan mustamlaka ma'muriyatini tanqid aslida «o'zbiri»dan chiqqan edi. Lekin bu doiralar tanqidga uchragan 1871 va 1873 yilgi loyihalarni eng katta va aholi zich yashovchi Farg'ona viloyatida sinovdan o'tkazish borasida Kaufmanga xalaqit berishmadi. Podshohlik ma'muriy tizimining ikkala – markaziy va mahalliy tarmog'i Turkiston xalqlari manfaatlarini va ehtiyojlari xususida faqat xo'jako'rsinga g'amxo'rlik qilardi, amalda esa Podsho tuzumi uchun o'ta muhim bo'lgan vazifalardan birini – o'lkani mustamlakaga aylantirishni tezlashtirish va mustamlaka tartibotini mustahkamlash vazifasini hal qildilar.

Ammo, Kaufman siyosati bilan shartlangan O'rta Osiyoni «o'zlashtirish» sur'atlari Rossiya hukmron dorialarini ham, burjuaziyani ham qanoatlantirmasdi. Buning oqibatida Turkiston ma'muriyati har ikkala tomon tanqidi o'tiga duPodsho bo'ldi. Markaziy rus matbuoti Kaufman va uning ma'muriyatiga qarshi o'ziga xos «urush» olib bordi, ustiga ustak bu narsa Rossiya guberniyalari hokimiyati singari Turkiston hokimiyatiga ham qonunsizlik, davlat mulkini talon-taroj qilish, poraxo'rlik, yolg'on va boshqa nuqsonlar begona emasligi tufayli ancha osonlashgan edi. Rossiyaliklar Turkistondagi bu xildagi «stivilizastiyachilar»ga «janob toshkentliklar» deya laqab ham berishgan edi. Ular mustamlakalarda yo'l qo'yayotgan suiste'mollar haqidagi dalillar vaqti-vaqti bilan gazetalar tomonidan turli yo'sinlarda yoritilar va jamoatchilik fikri ko'z oldida Kaufman ma'muriyati obro'siga putur etkazardi.¹ Kaufman ma'muriyati tevaragidagi gazetalar urushi «Russkiy mir» gazetasida 1873 yil mart-noyabr oylarida Turkistonga tashrif buyurgan amerikalik diplomat Evgeniy Skayler depeshasi tarjima va chop etilganida avj nuqtasigacha yuksaldi.

¹ Дмитриев Г.Л. Деша Е.Скайлера и проблемы Среднеазиатской политики царизма 70-х годов XIX в. Сборниках научных трудов ТашГУ, № 317, Т. 1976, 33-бет.

Rossiyaning O'rta Osiyo siyosatini, xususan, mustamlaka ma'muriyatining tamomila diniy murosaga kelishi va musulmon ruhoniylari ishlariga aralashmaslikka asoslangan diniy siyosatini, yo'llar va ko'priklarni qurish va ta'mirlash yuzasidan tadbirlarni, irrigastiya sohasidagi ishlarini, sanitariya-gigiena Podshoa-tadbirlarini ijobiy baholagan E.Skayler uning keskin jihatlariga til tegizolmasdan o'tolmaydi. U sanoat siyosati butkul barbod bo'lganini, savdo siyosati kifoya qilgulik darajada faol emasligini qayd etadi hamda o'zining rus zamondoshlari izidan borib yangi mustamlakaning Rossiya uchun zararli ekanligi haqida yozadi, Turkiston ma'muriyatining ishchanlik fazilatlarini tavsiflovchi misollar keltiradi, diplomat adolatli tarzda uning saflarida mo'may pul izlagan yoki kreditorlar va sudlov ta'qibidan qochib panoh izlagan kimsalar borligini to'la asosli ta'kidlaydi; Perovski, Avliyoota va Qurama uездlaridagi poraxo'rlik va davlat mulkini talon-taroj etishga oid misollar keltiradi; Xo'jand, Verniy, Kopal, Perovsk va boshqa joylardagi hokimiyatlarning ma'muriy zo'ravonligidan misollar keltiradi. Depeshada mansabga doir jinoyatlarga Kaufman tomonidan etarlicha Podshoa ko'rilmagani alohida ta'kidlanadi.¹

E.Skayler depeshasi tevaragidagi kurashga Moskva va Peterburgning deyarli barcha nufuzli nashrlari: «Piterskie vedomosti», «Nedelya», «Novoe vremya», «Sin Otechestva», «Moskovskie vedomosti», «Golos» va boshqa nashrlar qo'shildilar, ustiga-ustak yangi, har holda Turkiston ma'muriyati foydasiga guvohlik beruvchi dalillar ma'lum bo'ldi. Yangidan-yangi ayblovlar ijtimoiy-siyosiy tizim sifida Podsho tuzumining o'ziga ko'lanka solishi ravshanlasha boshladi. Ana shunda stenzura muassasasi, matbuot ishlari boshqarmasi aralashdi va «Russkiy mir» gazetasi nashr etilishini uch oyga to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qilindi, rus matbuotida E.Skayler depeshasini muhokama qilishga taqiqlov joriy etildi, Turkiston ma'muriyati sha'niga tanqidiy mulohazalar bildirish rasman man etildi.

Kaufman Turkistonda ta'limni rivojlantirishni, rus millati va mahalliy xalqlar farzandlari birga ta'lim olishi nazarda tutilgan «rus tuzem» maktablari

¹ Гременицкий О. Очерки о развитии народного образования в Туркестанском крае. Т., 1896, 3-бет.

tashkil qilishni yoqlovchi sifatida ish ko'rdi. O'z direktivalarida u tarbiya asosida «diniy tafovut emas, balki ham provoslav, ham musulmon farzandlarini Rossiyaning bir-biriga o'xshash fuqarolari qilishga yordam berguvchi bir xil va aynan qoidalar» turishi lozimligini tushuntirdi. Rus-tuzem maktablariga o'qituvchi kadrlarni tayyorlash uchun 1879 yilda maxsus O'qituvchilar seminariyasi tashkil etildi. Ammo maktablarning ahvoli uzoq vaqt achinarli ahvolda qoldi va faqat 80-90-yillarda, ma'muriy tuzilmalar va davlat muassasalarining byurokratik ta'minotning tilmochlar, mayda xizmatchilar va xizmatlar ehtiyoji keskin ortgan kezlarda «eshako'ldi» nuqtadan siljidi.

Shuning barobarida, o'zining ba'zi vorislaridan farqli o'laroq Kaufman ma'muriyat amaliyoti jarayonida Turkistonga uning tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, madaniyati, tabiiy boyliklarini tatbiq etish maqsadida kelgan Rossiya jamoatchiligi vakillariga ko'mak berishga ulgurdi. Garchi uning olimlar, rassomlar, yozuvchilar va shunchaki sayohatchilarga homiyligida, albatta, rus ma'muriyatining «stivilizastiyalashtiruvchi missiyasi»ni ta'kidlash, aksariyat rossiyaliklar nazdida ekzotik bo'lgan bu yiroq zaminda «Rossiya ulug'vorligi»ni ta'kidlash istagi ham balqib turgani sir emas.

1882 yili Kaufmanning o'rniga general-gubernator lavozimiga 1865 yili tashkil etilgan Turkiston viloyatining harbiy gubernatori, vakolatlarini suiste'mol qilganligi va Peterburg direktivalarini ijro etmaganligi uchun 1866 yilda bu lavozimdan olib tashlangan M.G.Chernyaev o'tirdi. 17 yildan keyin u Turkiston ma'muriyatiga birinchi shaxs sifatida rahbarlik qila boshladi. Ammo ma'muriy faoliyatga yomon tayyorgarlik ko'rgan general bu erda qo'pol zo'ravon sifatida dong taratdi, uning salaflariga «zuluklar» (qonxo'rlar) laqabi berildi.

A.I.Dobromislov Chernyaev hukmronligi davri haqida shunday yozadi: «Axmoq sifatida oti chiqqan, O'rtamiyona va zaif amaldorlar unchalik aziyat chekmadilar; kasalmand va injiq qariya tartibotining butun mshkuloti ishbilarmon va u yoki bu darajada uquvli kishilar gardaniga tushdi». Ko'pgina madaniy tashabbuslarga ziyon-zahmat etkazildi: Turkiston xalq kutubxonasi tarqatib yuborildi, bir talay qimmatli kitoblar va sharq qo'lyozmalari yonib ketdi, Toshkent

Kimyo laboratoriyasi tarqatib yuborildi, ipakchilik maktabi yopildi. 1884 yilda u shoshilinch tartibda Peterburga chaqirib olindi.¹

Chernyaevning Turkistondan tez orada chaqirib olinishiga uning tashqi faoliyatidagi qusurlari sabab bo'ldi. Gap shundaki, 1882-1884 yillarda Angliya Afg'onistondagi vaziyatdan foydalanib, O'rta Osiyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirishga yangidan urinadi. Ana shu, nihoyatda keskin vaziyatda CHernyaev hukumat oldiga Buxoro amirligi va Xiva xonligini tugatish va ularni Rossiya qo'shib olish rejasini qo'yadi. Uning ushbu masala yuzasidan rasmiy xati Rossiya Tashqi ishlar vazirligining O'rta Osiyo masalalari bo'yicha majlisida muhokama qilindi, unda vazir N.F.Girs, moliya vaziri N.X.Bunge qatnashdi.

Chernyaev 1883 yili afg'on feodallari bosib olgan Pomirdagi SHug'on, Rushon va Vahon bekliklari tojik va qirg'izlarning rus tabaqaligini qabul qilishi to'g'risidagi masalani hal qilishga urindi, ammo bu Peterburg tomonidan qat'iy taqiqlandi. Ilgari ham o'zboshimchalikka yo'l qo'ygan CHernyaevni, oldingi harbiy-siyosiy shoshqaloqligi inobatga olinib, Turkistondan shoshilinch chaqirib olishga qaror qilindi.²

Yuqorida aytib o'tilgan tashqi siyosiy masalalar bilan Peterburg Harbiy okrugi gvardiya shtabining sobiq boshlig'i yangi harbiy general-gubernator N.O.Razenbax katta kuch-g'ayrat bilan shug'ullana boshladi. Uning Rossiya va Angliya O'rtasidagi chegara masalalarini tartibga solish to'g'risidagi Peterburga yuborgan bildirishnomalari layoqatidan va bu davrda vujudga kelgan vaziyatni ancha hushyor baholashdan dalolat beradi.

N.O.Razenbax 1886 yilgi Turkiston «Nizomi»ning uzil-kesil variantini ishlab chiqish bo'yicha graf Ignat'ev komissiyasi ishida samarali ishtirok etdi. Uning qo'llab-quvvatlashi bilan yangi davlat muassasalari: general-gubernator huzuridagi Kengash, Samarqand viloyat boshqaruvi, pochta-telegraf okrugi boshqarmasi, Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi tashkil etildi.

¹ Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Ташкент, 1912, 258-бет.

² Черняевнинг 1876 йили Сербиядаги ўзбошимча ҳаракатлари назарда тутилаяпти. Ўшанда Болқон масаласини дипломатия йўли билан ҳал қилишга интилган Россия ҳукуматининг хоҳиш-иродасига қарши ўлароқ у Сербия армиясига Туркияга қарши урушда қўмондонлик қилган ва мағлубиятга учраган.

Vrevskiy o'lkani 8 yil boshqardi, general-gubernator lavozimini egallab turish davomiyligi borasida faqat K.P.Kaufman undan ko'p faoliyat ko'rsatgan xolos. U hukmronlik qilgan yillar (1889-1898) ko'p sonli xalq g'alayonlari, jumladan, jazo otryadlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan Toshkentdagi 1892 yilgi «vabo» isyoni kambag'allarning Farg'ona viloyati volostlari va uездlaridagi 1893, 1895, 1896, 1897 yilga chiqishlari bilan tarixga kirdi.

1894 yilda u tomondan maxfiy maslahatchi T.S.Kobeko rahbarligi ostida komissiya tuzilib, turli vazirliklar va mahalliy ma'muriyatlar vakillari uning tarkibiga kirgan edilar. Uezd er-soliq ishtiroki to'g'risidagi soliq'larga tortish tartibini o'zgartirgan Yangi nizom qabul qilingan edi. YAkka tartibda soliqqa tortish o'rniga volostlar va uездlar bo'yicha taqsimot joriy etildi, bu narsa qishloq aholisi ahvolini yanada og'irlashtirib yubordi, zotan, hovlilar bo'yicha soliq taqsimoti tevaragida odatda kurash avj olib ketardi.

Vrevskiy mahalliy sud tuzilishini ham qayta tashkil etishga urinib ko'rgandi, jumladan, 1892 yilda u tomondan yangi «Xalq sudъyalariga yo'riqnoma» tartib berilib, uning mohiyati qozilar va biylar lavozimlarini o'rindoshlik asosida olib borgandi saylab qo'yish asoslarini bekor qilishdan iborat. Amaliyotda u baribir qo'llanmadi.

Toshkentda amal qilgan «Sh ahar Nizomi»ni Vrevskiy «siyosiy jihatdan» xavfli deb hisoblagan va bu masala yuzasidan Bosh shtabga jo'natgan ko'p sonli taqdimnomalari tub aholidan vakillarni avvalgidek 3/1 nisbatda emas, balki umumiy tarkibda 5/1 nisbatda bo'lishiga erishgan. «Bunday tartibni,- deya hisoblagandi u, - tuzemlarning ruslashgan avlodlari samoderjavie ne'matlarini idrok etish borasida yuksaklikka erishmaguniga qadar nomuayyan istiqbolda saqlab turish zarur».¹

Vrevskiy tor milliy siyosati, tabiiyki, xarakterli jihati boshliq xohish-amrini so'zsiz bajarish bo'lgan amaldorlar apparatining barcha bo'g'inlarida aks sado berdi. 1895-1898 yillarda Turkistonda er-soliq komissiyalarining a'zosi bo'lgan knyaz G.Mansurov tomonidan keltirilgan byurokratik boshqaruv ierarxiyasida

¹ Давлат Думаси IV чақириқ V сессияси 17-йиғилиши стенографик хисоботи, 1916 й. 15 декабр.

quyiroqda turuvchi amaldorlarning xarakteristikasi diqqatga sozovordir. Jumladan, u shunday yozadi: «Amaldorlar o'rnida o'z-o'ziga mahdudlashib ketgan, o'z-o'zini bostiruvchi va o'z-o'zidan mamnun, o'ziga o'lkadagi chinakam va yagona xo'jayin sifatida qarovchi, o'lka ularning qarshisida titrab turishi va izzat-hurmat ko'rsatishi va haq to'lash kerak bo'lgan amaldorlardan iborat edi. Turkiston amaldorlari aksariyatining past ma'naviy darajasi, shuhratparastligi, g'arazgo'yligi knyazni o'lkada ma'murlarning butun aholi ustidan krepostnoy huquqi natural tarzda amalga oshirilmoqdadir, degan xulosa chiqarishga majbur qilgan.

Turkiston jamiyatidagi keskin ahvol Vrevskiy ma'muriyatining ish usullari jumladan, yig'imlar va soliqlar miqdorini va mahalliy aholining erga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning asl ekanligini belgilovchi er-soliq komissiyalari amaldorlarining ish usullarini yanada murakkablashtirgan edi. Bu amaldorlarning aksariyati faqat jarima yozib berish hadisini olgan va o'tkazilayotgan tadbirlar to'g'risida aniq tasavvurga ega emasdilar. Vaqf va erga egalik qilish huquqini beruvchi boshqa hujjatlarni tekshirayotganda mahalliy imloni bilmaganliklari sababli ularni osongina qalbaki deb tan olardilar.¹

Vrevskiyning buyruqlari mahalliy aholi gardaniga oq podshoh ma'muriyatining barcha vakallariga «ta'zim va izzat-ikrom» bilan munosabatda bo'lish majburiyatini yukladi. Bu «ta'zim»ga qanday erishilgani xususida tasavvurga ega bo'lish uchun G.Mansurovning bozorlardan biriga tashrif buyurgan paytdagi fikr-mulohazalarini keltiramiz. «Bozorga etishimizga bir necha o'n sajen qolganida to'satdan bir to'da notanish odamlar (aftidan, bozor ma'muriyati vakillari) bozorga qarab yopirildilar, ana shu bozordagi ming-minglab olomonga yopishdilar va u erda hozir bo'lgan sotuvchilar va xaridorlarni qamchi zarbalari kimga tegishini o'ylab o'tirmasdan qamchi oshata boshladilar. CHamasi bu narsa odatga aylanib qolgan shekilli. Mahalliy amaldorlar eng zo'r izzat-ikromni singdirish maqsadida tuzem aholining Rossiya hokimiyati vakillari bilan ana

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 191-192 бет.

shunga o'xshash qarshilovi amalga tatbiq etilgan». Kuppа-kunduzi bu kabi zo'ravonlik mavjud tuzumga xos xususiyat edi.¹

1882 yili Turkistonda «kuchaytirilgan qo'riqlav» nizomi amalga kiritilishi ham ma'muriy zo'ravonlikni yanada oshirdi. Unga binoan hokimiyatning repressiya Podshoalari ko'pincha xalq g'alayonlari va qo'zg'olonlarini bostirish uchun harbiy ekspeditsiyalar ko'rinishida amalga oshirilardi. Biroq bunda ham aniq-taniq qonuniyat ko'zga tashlanadi, ya'ni mustamlakachilar tomonidan qonunsizlik va zo'ravonlik qanchalik ko'p bo'lsa, ular o'zlarini xalqqa nisbatan qanchalik tiyiqsiz tutsalar, kurashning eng keskin shakllari ham shunchalik tez etilib bordi.

Hukumat qo'shinlari bilan qurolli olishuvga aylanib ketgan 1898 yili Andijonda ro'y bergan xalq qo'zg'oloni aynan shunday kurashga misol bo'ladi. Qo'zg'olonchilarning zulm va tahqirlashdan ozod bo'lishga intilishi ularning harakatlariga kuch bag'ishlagan edi. Qo'zg'olon ishtirokchilari ustidan qonli ta'zir rahbari, qishloqlar va mahallalarning minglab aholisi ustidan terror tashkilotchisi Vrevskiyning o'rniga Priamur'dan kelgan, hisob bo'yicha beshinchi general-gubernator S.M.Duxovskiy bo'ldi.

U o'z faoliyatini Farg'ona viloyati mahalliy ma'muriyatini tozalashdan boshladi: harbiy gubernator Povalo-Shviykovskiy lavozimidan olib tashlandi, volost va qishloq ma'muriyatining 53 nafar vakili ishdan chetlatildi. Xalq sudlari ustidan kuchaytirilgan nazorat o'rnatish, ularning ishlari muhokamasida qatnashish topshirig'i olingan edi. Ammo Duxovskiyning ana shu tadbirlarining barchasi unchalik muvaffaqiyat qozonmadi. Mahalliy tilni bilmagan va savodhon tilmochlarga ega bo'lmagan rus ma'muriyati, Turkiston o'lkasini taftish qilgan graf K.K. Palen guvohlik berishicha «nihoyatda yordamga muhtoj bir ahvolda edi».²

O'z salaflaridan farqli o'laroq Duxovskiy musulmonlar masalasini keng ko'lamda o'rganish tashabbuskori sifatida ish ko'rishga ulgurdi. Uning tomonidan

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 192 бет.

² Отчёт по ревизии туркестанского края, произведенный по высочайшему повелению сенатором, гофмейстером, графом К.К. Паленом. Вып. 1-18. Уездные управления, т.10, Краевое управление, Т.10, СПб, 1910, 61-62 бетлар.

«Turkistonda islom» degan «umumtabaaviy» ma'ruza tuzilgan edi. Unda «xristianlarni musulmonlar bilan yaqinlashtirish» bo'yicha Podshoa-tadbir sifatida qo'yidagilar taxmin qilingan edi: o'lkadagi barcha xizmatchilar musulmonlar turmushi bilan mufassal tanishib chiqishi, barcha muassasalar kutubxonalari va mahkamalari rus tilida islom haqidagi eng asosiy ma'lumotnomalar va dasturilamal asarlariga ega bo'lishi. Lekin, «Islom bo'yicha materiallar to'plami»ni muntazam nashr etish; barcha musulmon nashrlariga stenzura joriy etish bu takliflarning barchasi qog'ozda qolib ketdi. 1900 yil noyabrida Duxovskiy Turkistondan chaqirib olindi.

Uning o'rniga Podsho tuzumining 60-70 yillaridagi harbiy yurishlarida generallar Chernyaev va Kaufmanlarning safdoshi bo'lgan YA.I. Ivanov keldi. U Chernyaev otryadidagi otliq-artilleriya batareyasi xorunjiyidan 1883 yilga qadar general unvonigacha xizmat qildi va uezd boshlig'i martabasidan to general-gubernator martabasigacha erishdi. U o'zini boshqarish tizimi mukammal emasligi 35 yillik ish stajiga ega Ivanovga yot emasdi, shuning uchun ham u o'zini qonunlar yaratish borasida sinab ko'rdi. Uning topshirig'ig'a ko'ra general-gubernator mahkamasining boshqaruvchi Nesterovskiy ko'p sonli komissiyalarni yig'di, o'lkani boshqarish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni tahlil qildi. Bu ishlarning barchasi uch yarim yil, ya'ni 1903 yil sentyabrga qadar davom etsa-da, hech bir jiddiy natija bermadi. Nesterovskiy loyihasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'muriy masalalar bo'yicha huquqiy va ma'muriy qarorlar xudi ilgaridek Turkiston jamiyatining biror-bir ishtirokisiz byurokratiyaga mo'ljallangan edi. Aynan ana shu sababga ko'ra loyiha peshonasiga, faqat, Turkiston general-gubernatori mahkamasi arxivini to'ldirish yozilgan ekan.

Markazdan import qilanayotgan sostial-demokratik, esercha, anarxiyacha va boshqa g'oyalar tarqalishi bilan, O'rta Osiyo va Orenburg – Toshkent temir yo'llarida avj olayotgan ishchilar harakati bilan kurash N.A. Ivanovning alohida tashvishlarini sohasiga aylandi, shu boisdan u viloyatlarda tez-tez safarlarda bo'lar edi. U o'lkadagi vaziyat to'g'risida, ko'pgina shaharlarda «davlat jinoyatchilari»ning faoliyati to'g'risidagi yuqori instanstiyalarga bildirishnomalar

yog'dirdi, «bu narsa kata yovuzlik», shubhasiz, nafaqat zarali, qolaversa xatarli ekanligiga ishora qildi.

Ichki ishlar vaziri fon Pleve e'tiborini «davlat jinoyatchilarining O'rta o'quv yurtlari tarbiyalanuvchilari orasida targ'ibotchilik faoliyatini» tarqalishiga qaratdi va «bunday kishilarni o'lkaga surgun qilishni butunlay to'xtatish»da unga shaxsan yordam berishini iltimos qildi.¹ Vazirining esa Turkiston masalasiga qo'li tegmasda. Bu vaqtga kelib tuzum imperiya markazida jon bergulik holatga kelgan va bu agoniya bilan saqlanish maqsadida Pleve xam Yaponiya bilan «kichkina muzaffarona urush»ni tayyorlayotganlar orasida edi.

Bundan buyog'iga, ma'lumki, birinchi rus inqilobi boshlanadi. 1904 yil mayda Ivanov vafot etadi, 1905 yili Turkistonda siyosiy ish tashlash avj olgan bir pallada Turkistonga navbatdagi general-gubernatori N.N. Tevyashov keladi va u 1906 yilda to'satdan vafot etadi. Mustamlaka tuzumi tarixida ilk marotaba yangi general-gubernator D.I. Subotich o'lkadagi inqilobiy kayfiyatlarga hamdardlik qilgani uchun mansabidan chetlashtiriladi.² Subotichga qadar va undan keyingi Turkistonning guberniya ma'muriyatlari orasida liberalizmga ayblanganlar bo'lmagan. Barcha general-gubernatorlar eng jo'shqin sodiq tabaalik sa'y-harakatlarini namoyon etishgan, podshoh tomonidan erkalangan, ko'p sonli mukofotlar va imtiyozlar bilan siylangan edilar. Subotich chernosotenchi bo'lib chiqmadi, Nikolay II uni tayinlashda hammasini hisobga olmagan ekan. Aftidan, u qandaydir burjua partiyasi qarashlarini baham ko'rgan. Bu haqda uning lavozimni egallayotgandagi darhaqiqat «mustamlaka xo'jayini» og'zidan chiqqan «isyonkororna» nutqi ham dalolat beradi. «Rossiya davlati fuqarosining qanday bo'lishidan qat'i nazar o'z siyosiy e'tiqodidan foydalanish huquqini e'tirof etaman. Men har kimning o'z qarashlarini targ'ib qilish huquqini tan olaman. Bu o'z qarashlarimdan kelib chiqadi. Nega o'z doktrinasiga foydasiga aql bilan, mantiq bilan, asoslarning ishonarliligi bilan kurashilmasligi kerak».

¹ ЎЗР МДА, И - 1-фонд, 31-руйхат, 212-йифма жилд, 7-8 варақлар.

² Ўша жойда, 414 варақ.

Senator K.K. Palen Subotichni o'lkada ro'y berayotgan «siyosiy voqealarni tan olmaslik»da ayblaydi. Bunday ayblovning asosli ekanligini faktlar ham tasdiqlaydi: 1906 yilning bahori va yozi qatag'onning susaytirilishi, turli siyosiy tashkilotlar faoliyatining jonlanishi, jumladan, 1906 yil fevral va sentyabrda RSDRPning ikkita Turkiston konferenstiyasi o'tkazilishi, 1906 yil iyulda Turkiston temir yo'llari delegatlarining s'ezdi o'tkazilishi, kasaba uyushmalarining ancha keng tarmog'i tuzilishi, «Russkiy Turkestan» va «Samarqand» gazetalarning Toshkent va Samarqanddagi sostial-demokratik guruhlar oshkora matbuot organiga aylantirilishi qayd etilgan. Ustiga ustak, Peterburgdan kelgan «hech ikkilanmasdan, ayab o'tirmasdan qat'iy ish ko'rilsin» degan ko'rsatmalarga zid o'laroq, Subotich Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarida jiddiy g'alayonlarga yo'l qo'yadi, xususan Toshkent, Ashxobod va Krasnovodsk garnizonlarida tahdidlilari bo'lib o'tadi (1906 yil yozida).

Mashhur reakstioner va jazokor general-ad'yutant Maksimovich Subotichga madadga yuboriladi, u aksilinqilobiy faoliyati etarli emas deb tan olinganlarni, hatto bu sohada o'rnak bo'lgulik bo'lib chiqqan generallar Saxarov, Mastievskiy, Malixin va ko'plab boshqalarini lavozimidan olib tashlaydi. Inqilobiy voqealar qatnashchilarini ta'qib qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi qadamlar qo'yiladi.¹

General-gubernator lavozimiga Subotich o'rniga kelgan, 1892 yilgi Toshkent qo'zg'olonining eng shafqatsiz bostiruvchilardan biri N.I. Grodekov bu borada to'la hajmda ishlar qilishga ulgurdi.² Uning harakatlari shakllangan jazo «an'analari»ga zid emasdi. Boshqarish taktikasi va uslubiyoti ham o'zgardi – «isn ko'targan cheka o'lka» «tartib» o'rnatish uchun ko'pdan-ko'p kuch-g'ayrat talab qilar edi. Qishloqlar va shharlarda yangi politsiya punktlari, otliq-politsiya qorovullar katta miqdorini yollash, siyosiy qidiruv organlarini, Turkiston bo'limini tashkil qilish, qamoqxonalar va avaxtalar tarmog'ini kengaytirish talab etilardi.

¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Курсатилган асар, 196 бет.

² 1864 йили Польша миллий-озодлик ҳаракатини бостиришда иштирок этган. 60-80 йилларда чоризмнинг Ўрта Осиёдаги ҳарбий юришларида қатнашган. 1883-1893 йилларда Сирдарё вилояти ҳарбий губернатори бўлиб ишлаган. Тошкентдаги «вабо» исёни шафқатсизларча бостирилганидан сўнг Приамурьёга ўтказилган ва 1907 йили яна қайтарилган.

Mahkumlarning asosiy ommasi «boshqaruv tartibiga qarshi qilmishlari», «tartib va osiyishtalikni buzganlik», «mansayudor shaxslar sha'nini tahqirlash va unga qarshi tahdid» va hokazolar uchun unda jazonlar edi. 65 yashar general ko'p kuch-g'ayrat bilan mehnat qiladi va Subotich bilan bog'liq «tarix»dan keyin otaxon-podshoh ko'z oldida Turkiston ma'muriyatining «yaxshi nomi»ni tiklaydi.

Turkiston xalqlari uchun bu yillar dahshatli terror va ayovsiz qatag'onlar, og'ir sinov sanalari bo'ldi.

Grodekodan keyin 1909 yilda Mshenko toqq'iz oy hukmronlik qildi, K.K. Palenning so'zlariga qaraganda, u «qandaydir yirik tadbir o'tkazishga ulgurmasi».¹ 1909-1914 yillarda general-gubernator lavozimini general A.V. Samsonov egalladi.

Uning Turkiston general-gubernatori lavozimidagi faoliyati o'z salaflarining ichki siyosatidan farq qilmadi. U ayanchli xizmat sharoitiga va ofiuerlar tarkibining g'ayriinsoniy muomalasiga qarshi qo'zg'olon uchun Toshkent yaqinidagi Troitsk lagerlariga tashlangan 14 nafar rus askarini ikkilanib o'tirmay dorga torttirdi va 228 kishini Sibirga katorgaga jo'natdi. Ayni paytda SHtabga sovuqqonlik bilan yuborgan bildirishnosmasida: «Harbiy davr qonunlari bo'yicha sud qilingan qurolli qo'zg'olon tashviqotchilari va ishtiroqchilari munosib jazoga mustahqiq bo'ldilar»² deb yozgan edi. Samsonov «maksimal qon to'qish» tarafdori ekanligini yashirib o'tirmadi, faqat ugina «bunday chiqishlar maqsadsizligi va dvlathokimiyati kuchini» jamiyatga namoyish etadi deb hisoblagan.

U 1912 yilda qo'zg'olon ko'targan sapyorlardan qasos olishda o'z kuchchegarani bilmadi. Binobarin, mahqum askar A. Fyodorov o'z rotasida bo'lgan boshqa bir A. Fyodorov haqida gapirgan Pototskiy ko'rsatmalariga asoslanib uni qatorgaga xukm qilinganini, uni esa hatto bilmasligini ta'kidlab ariza bergan edi.

¹ Пален К.К. Отчёт... 85-бет.

² Туркистонга ўтказилгунига қадар Уссурийск отлик бригадасига ва 1904-1905 йиллардаги рус-япон урушида Сибирь казаклар дивизиясига қўмондонлик қилган. 1907 йилда Дон қўшинлари атамани. 1909-1914 йилларда Туркистон генерал-губернатори. 1914 йилда Шарқий-Пруссия операцияларида иштирок этган Шимоли-ғарбий фронт армиясига қўмондонлик қилган. Фронт қўмондони генерал Я.Г. Жилинский ва армия қўмондони генерал П.К. Ренненкамфнинг айби билан 1914 йил 30 августда Сольдау остонасида куршовга тушиб қолган. Ўз-ўзини ўлдирган.

Bu ariza bilan tanishib chiqqan va familiyasi haqiqatan ham o'xshashligiga ishonch hosil qilgan Samsonov aybsiz odamni qatorgaga jo'natadi hamda «O'qidim» deb bimalol yozib ham qo'ygan edi.¹

Samsonov o'z salaflarining Turkistondagi turli siyosiy tashkilotlarga nisbatan an'analarini xam to'la hajmda qo'llab-quvvatlaydi. «Patronlar ayalmasin» buyrug'ining muallifi Samsonov eserlar, anarxistlar va social-demokratlar ishi bo'yicha bir necha dahshatli-tantanavor poroesslarni uyushtirdi, o'zi podshohga bildirganidek, o'lkani inqilobiy boshboshdoqlikdan xalos qilishga harakat qiladi. Porocesslarga atayin keng oshkoralik tusi berilgan, materiallar matbuotda e'lon qilib borilgan, Peterburgdan advokat – toshkentlik A.F. Kerenskiy taklif etilgan edi. Ko'ramizki, u 1864 yilgi demokratik sudlov ustavlari ruhiga mos ish ko'rgan, ammo bunda o'zining asosiy a'moli yashirmaydi va peterburgdagi boshliqlarga «bita aybdorni oqlagandan ko'ra o'nta aybsizni jazolash yaxshiroq deb hisoblayman» deya ochiqdan-ochiq yozadi.²

Samsosnovning ma'muriy faoliyati jadal sanoat qurilishi davriga to'g'ri keldi va u bu yo'nalishda Podsho hukumati manfaatlari borasida bir qator Podshoa-tadbirlarni amalga oshirdi. Turkiston – Sibirъ temir yo'li qurilishi masalalari bilan uzoq shug'ullandi, 1912 yilda bu ishni amalga oshirishga ruxsat oldi; bo'sh yotgan erlarni sug'orish loyihasini tayyorladi va suv qonunlari asosida xususiy tadbirkorlarga sug'orish ishlari bo'yicha tadqiqot-qidiruv ishlariga ruxsat berish qoidalarini ishlab chiqdi; Sirdaryo viloyatining sug'orma paxtachilik zonasida tub aholi erlarini ekspropriauiya qilishga qonuniy tus berdi; ko'chirib keltirilgan poselkalari jadval qurilishiga yordam berdi. 1914 yilda podshoning buyrig'iga ko'ra harakatdagi armiyaga chaqirildi.

1914 yil iyuldan to 1917 yil fevrali davomida turkistonda tag'in boshliqlar almashdi: uch nafar muvaqqat generallar Flug, Erofeev, Martson va to'rtinchisi «qonuniy» A.N. Kuropatkin.³ Muvaqqatlar orasida Erofeev alohida ajralib turadi.

¹ Овирский О.Я. Революционные движения в царской армии в Туркестане. Т., 1960, 82-бет.

² Тутунджан Т. Пятьдесят лет восстания туркестанских саперов. Т., 1962, 32-бет.

³ А.Н. Куropаткин Туркистонда тўрт маротаба бўлган: 1866-1871 ва 1875-1877 йилларда Туркистон ҳарбий округида хизмат қилган, истилочилик юришларида иштирок этган; 1879-1883 йилларда Туркистон ўқчи

Uning bir yarim oylik ma'muriy ijodining gultoji 1916 yil 21 iyuldagi buyruqdir, jumldan unda shunday deyilgan: «Tuzem aholining rus hokimiyati oldida ta'zim bajo keltirishi belgisi sifatida tuzemlarning hammasi barcha muassasalar ofiuerlari va amaldorlariga ta'zim qilib izzat-ikrom bilan salom bersinlar».¹ Mahalliy aholi ot va aravada shoshmasdan yurishlari, do'konlardan chiqishlari, qarishdan kelayotgan mustamlaka ma'muriyati amaldoriga to'xtab ta'zim qilishlari kerak edi. Jonsolmas amaldorlar joylarda ruslar boradigan va sayr qiladigan jamoat joylariga mahalliy aholi kirishini mann qilingan hollar ham uchraydi. Erofeevning «majburiy xushmuamolalik» to'g'risidagi bu buyrug'i Rossiya bo'ylab keng mashhur bo'ldi. IV Davlat Dumasining sessiyalaridan birida deputat Ja'farov buni «rus hokimiyatini balchiliqqa qorib tashlash» tariqasida baholagan edi.

General-gubernator lavozimiga yangi, ancha masloshuvchan, uncha dag'al bo'lmagan nomzodni shoshilinch izlashga to'g'ri keldi va tanlov buning uchun harakatdagi armiyadan chaqirilgan A.N. Kuropatkin chekiga tushdi. Taniqli tarixchi M.N. Pokrovskiy uning Turkiston general-gubernatori etib tayinlanishini shunday talqin qiladi: «1917 yilga kelib janob Kuropatkin sahnadan, podshoh Rossiyasining eng mas'ul mansablaridan alloqachon tushib qolgan edi. U boshqa siyosat yurita olmas, strateg sifatida u haqda hech kim so'z yuritmasdi. Frontlardan biriga qo'mondonlik qilishga urinishi ham tussiz kechdi hamda urush va imperiya nihoyasida keksa general uchun butunlay oddiy Kuropatkin frondan minglab verst yiroqda «Turkiston general -gubernatori» maqomi bilan qanoatdagiga qaraganda poliuiyaga xos edi, sartlar va qirg'izlar bilan jang qilish nemislar bilan urushishdan ko'ra osonroq edi, bir necha kishini dorga tortib, orzulari amalga oshmagan mikado g'olibi 1916 yilgi O'rta Osiyo inqilobini ajoyib bir tarzda tor-mor etdi».

Darhaqiqat, Turkistondagi 1916 yilgi milliy-ozodlik harakatini bostirishga Kuropatkin 1916 yil yozidan to 1917 yil davomida harakatda bo'lgan yirik harbiy kuchlardan foydalandi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 14 batalyon, 33 sotnya,

дивизияси командири бўлган, туркманлар ерларини босиб олишда иштирок этган; 1890-1898 йилларда Закаспийск вилояти бошлиғи; 1916 йил июлдан то 1917 йил феврида Туркистон генерал-губернатори, 1917 йил мартда эса Муваккат ҳукуматнинг Туркистондаги комиссари бўлган.

¹ Ковалёв П.А. Революционная ситуация 1915-1917 гг. и её проявление в Туркестане. Ташкент, 1971, 120-бет.

42 uskusna, 69 pulemyot ishga solingan edi. Uch mingdan ortiq odam sudga tortilgandi.

SHu bilan birga, borgan sayin chuqurlashayotgan siyosiy va iqtisodiy tanazzul sharoitida Kuropatkin mustamlaka ma'muriyatining mahalliy aholi zodagonlari bilan «sulh tuzishi» kampaniyasini boshlab yuborishga urinib ko'rganki, bu narsa uning bir qancha farmonlarida o'z aksini topgan. Masalan, milliy burjuaziya vakillari frontorti ishlariga aholining ba'zi qatlamlarini yollashdan ozod qilish bo'yicha «sinalmagan» viloyat, uezd va shahar qo'mitalari tarkibiga jalb etilgandi. Ular orasida ruhoniylar vakillari, faxriy va shaxsan obro'li kishilar, davlat muassasalari amaldorlari va xizmatlari bo'lgan. Ishchilarni ro'yxatga olish joyi bo'yicha yollash amaliyoti ma'qullangan edi. Va nihoyat, mahalliy aholini frontorti ishlariga safarbar etishni 1916 yil 15 sentyabrga qadar kechiktirish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. Bundan tashqari, Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi Nizomni ishlab chiqishga navbatdagi daf'a kirishilgan edi. Biroq buch ora-tadbirlarning barchasi tub aholi yashovchi viloyatlardagi norozilik alangasini vaqtincha o'chirdi, xolos, uning qozoq, qirg'iz, turkman eralariga tarqalishini to'xtatib qola olmadi.

1917 yil martda Kuropatkin Muvaqqat hukumat Bosh komissari lavozimiga ko'tarildi, ammo harbiy-frontorti ishlariga safarbar etish eski siyosatini davom ettirdi va 1917 yil iyuniga qadar qo'shimcha 80 ming odam jo'natishga va'da berdi. Guyoki ruslarga hujum qilishga tayyorgarlik ketayotgani haqida mishmish tarqatgan Kuropatkin va uning yordamchilari Toshkentdagi qurol-aslaha arsenalidan badavlat rus aholiga kata miqdorda vintovkalar va o'q-dorilar berish to'g'risida farmoyish berishdi. Anna shu operatsiya ustida ko'lga tushgach, Kuropatkin buni muqaddam armiya ehtiyojlari uchun tortib olingan 18465 vintovkaning shunchaki qaytarib berilishi deb izohladi va bu tabiiy operatsiya oxiriga etkazilmadi, deb bayonot berdi.

SHuning barobarida, shafqatsiz inflyatsiya va iqtisodiy tanazzulni jilovlash bo'yicha tadbirlar ko'rilmadi. Xalqning ahvoli og'irlashib bordi, milliy zulm saqlanib qoldi. Joylarda esa podshohning avvalgi ma'murlari qolishgan va

ishlayotgan edilar. Bularning barchasi eski hokimiyatni almashtirish uchun xalq harakatining o'sishini keltirib chiqardi. 1917 yil 30 martda Kuropatkin lavozimidan chetlatildi va uy qamog'iga mahkum etildi. 4 aprelda esa unga, uning yordamchisi Erofeyevga va okrug shtabining boshlig'i Isversga Turkiston sarhadidan chiqib ketishga ruxsat berildi.

2.2 1892-yilgi qo'zg'olon va uning Podsho Rossiyasi tomonidan ayovsiz bostirilishi.

O'lkada nihoyatda og'ir hayot, Podsho hukumatining obodonchilik va sog'liqni saqlashga e'tibor bermasligi orqasida turli kasalliklar kuchayib boraverdi. Ayniqsa, vabo kasalining paydo bo'lishi fojeali bo'ldi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1892 yil 1 iyunda Jizzax uezdida vabo kasali paydo bo'lgan. SHu munosabat bilan viloyat harbiy gubernatorining farmoni bilan Sirdaryoning chap qirg'og'idagi CHinozda, ya'ni Toshkentdan 65-70 km uzoqlikdagi joyda tibbiyot punkti ochildi. Bu erda vaboga chalingan bir nechta kishilar kasalxonaga yotqizila boshlandi. O'sha yilning 7 iyunida esa Toshkent shahrida vabo kasali borligi ma'lum bo'ldi. Podsho ma'muriyati unga qarshi Podshoalarni hayotga tatbiq etib bordi. Bunga ko'ra, vabodan o'lgan kishilarning murdasini vrachning ruxsatisiz ko'mmaslik lozim edi. SHuningdek, murdalarni shahar ichidagi eski mozorlarga emas, uning chekkaroq joyida ochilgan yangi qabristonlarga ko'mish tavsiya etildi. Ammo vrachlar va hamshiralarning etishmasligi orqasida murdalar 3-4 kun mobaynida qolib, havoning issiqligi tufayli sasiy boshlalanagan. Ayollarning murdasini rus erkak vrachlar ko'zdan kechirgan. «Tub aholining so'zlariga ko'ra, - deb yozadi mualliflardan biri, - sanitarlarning orasida turli kasbdagi va ofisterlar kiyimini kiygan yoshlar polistiyachilar bilan birgalikda «po'sht» deyishib, mahalliy aholining uylaridagi ayollar yashaydigan xonalarga kirishgan. Ular tozalikni nazorat qilish bahonasida ota-onalari huzurida ayollarga va qizlarga nisbatan turli o'rinsiz qiliqlarni qilishgan»¹.

Murdalarni yuvish va ularni ko'pchilik bilan qabristonga olib borish ta'qiqlanadi. Garchand ko'rsatilgan ma'muriyat Podshoalari vaboni imkon boricha daf etishga qaratilgan bo'lsada, lekin ularni amalga oshirishda qator qo'polliklarga va zo'ravonliklarga yo'l qo'yildi. Hayotda din hukm surib turgan bir paytda murdalarni yuvmaslik va bir necha kun saqlash, hamda ota-bobolar mozorlarini berkitish o'sha davr sharoitiga zid, gunohday bo'lib ko'rinar edi.

¹ Тереньтев М. История завоевания Средней Азии. Санкт-Петербург, 1906, с.73.

Xullas, hukumatning vaboga qarshi Podshoalari, zulm va adolatsizlikdan sabr kosasi to'lib-toshgan shaharliklarning bosh ko'tarishiga turtki bo'ldi. Ayni bir paytda go'yo vrachlar suvga oq poroshok tashlab, xalqni zaharlayotgan va kasallarga ham berib o'ldirayotganliklari haqida mish-mishlar ahvolni yanada keskinlashtirdi. Bu xususda manbada bunday deyiladi: «Doktor CHinozda kasalni surishtirmay bemorlarga dori berib, odamlarni darhol o'ldirmoqda, degan so'zlar Toshkentda eshitilmoqda. Shahar mirshabi savdogarlarga murdalarni kafanga o'ramaslik va hech qanday diniy rasmlarsiz ko'mish haqida ko'rsatma bergan».¹

Umuman aytganda, vabo kasalining vahimasi va turli xil mish-mishlar shahar va atrof qishloqlariga tarqalib, kishilarning g'azabini qo'zg'otdi. Murdani ko'pchilik bilan qabristonga olib borishning ta'qiqlanishi ham qattiq norozilikni uyg'otdi. 20 iyunda shaharning Sebzor dahasidagi Xonaqo masjidida ko'pchilik to'planib, oralaridan 3 vakilni saylashib norozilikni shahar boshlig'iga ma'lum qilishni topshirdilar. 22 iyunda shahar oqsoqoli Muhammad YAqub vakillarni chaqirib, mish-mishlarga ishonmaslikka da'vat etdi. O'sha kuni SHayhontuhur dahasidagi Tallak masjidida kishilar yig'ilishib shahar boshlig'i nomiga xat yozdilar: «Bizlar murdalarni yangi mozorlarga dafn etishga qarshiligimizni va eski mozorlardan foydalanishni davom ettirishimizni shahar boshlig'iga ma'lum qilishlikni mingboshidan va katta oqsoqoldan so'ragan edik, chunki murdani yangi qabristonga olib borish qiyinchiliklar tug'diradi. Xususan, sharoitga ko'ra murdalar elkalarda ko'tarilib borilishi shart. Ammo, shu paytgacha xatga javob berilmadi». SHahar ayollari ham Turkiston general-gubernatoriga xat yozishib, o'z noroziligini izhor etgan edilar. Shayhontuhur dahasiga qarashli O'qchi mahallasidagi masjidlarning birida ham 150 kishi Podsho ma'muriyatiga yozilgan norozilik xatni muhokama qilgan, unda ellikboshilar Yunus Muhammad va Mulla Mirsodiq, Muhammad Alimxon, Abulqosim Domullaev singari nufuzli kishilar qatnashgan.

Butun voqeaning jonli guvohi va shahar boshlig'i S.R.Putinstev tergov vaqtida bergan ko'rsatmasi masalani yanada oydinlashtiradi: «Iyun oyining boshlarida, - degan u, - vabo kasali tarqalishiga qarshi qaratilgan choralar turli

¹ ЎзР МДА, ФИ-1, 31-рўйхат, 30-иш, 170-бет.

mulohazalarni yuzaga keltirib, xalqda ularga nisbatan ishonch qolmadi. Hatto vrachlar vabo kasaliga yo'liqqanlarni azob-uqubatlardan tezroq xoli qilish maqsadida maxsus poroshok berib odamlarni o'ldirmoqdalar degan ovozarlar tarqaldi. SHuningdek, ruslar anhor arig'idagi suvni zaharlab tub aholini qirmoqchi degan so'zlar eshitilib turdi. Bundan tashqari mahalliy xalq vabo kasali bilan o'lganlarni shahar ichidagi mozorlarga ko'mish ta'qiqlanganiga qarshidirlar. SHahar chekkalarida ochilgan mozorlarda murdalarni maxsus belgilangan kishi tomonidan yuvilishi, janoza o'qilishi va darhol dafn etilishi ko'rsatilgan edi. Ammo, murdani ko'pchilik bilan mozorga olib borishga ruxsat berilmadi».¹

Xullas Podsho ma'muriyatining vaboga qarshi Podshoalarini diniy aqidalarni umuman mahalliy sharoitni hisobga olmay amalga oshirishi foydadan ko'ra ziyoni ko'proq bo'ldi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra har kuni 100 ga yaqin odamlar o'lgan.

Rasmiy ma'lumotda esa 7-24 iyun davomida vaboga 64 kishi chalinib 43 tasi o'lganligi qayd qilinadi.² Vabo kasaliga qarshi qaratilgan Podshoalar xalqning og'ir siyosiy va iqtisodiy sharoitini yanada keskinlashtirib, bamisoli «olovga kerosin» quygandek bo'ldi. Natijada qo'zg'olon boshlandi. Ammo, Podsho ma'muriyati vakillari diqqatini qo'zg'olonning asosiy sabablaridan chalg'itish maqsadida mahalliy yuqori tabaqa vakillarining mansabni egallash uchun olib borgan kurashlarining mahsuli deb tushuntirishga harakat qildi. SHu munosabat bilan bu masalalarga to'xtash ayni muddaodir. Qurilayotgan davrlarda Toshkent shahri Sebzor, SHayhontuhur, Besh-YOg'och va Ko'kchadan iborat 4 dahadan iborat bo'lgan. Har bir dahada bittadan oqsoqol, qozi, mingboshi, yuzboshi va yigitlardan iborat mirshablar xizmat qilgan. Ular xalq tomonidan «saylangan». Viloyat harbiy gubernatori katta oqsoqolni tayinlagan va bunga barcha dahaning oqsoqollari bo'ysindirilgan.

O'z navbatida katta oqsoqol shahar boshlig'i bo'lmish S.R.Putinstevga bo'ysungan. Katta oqsoqollik lavozimi 1884 yilda joriy etilib, unga o'sha yili

¹ ЎзР МДА. ФИ-723, 1-рўйхат, 3-иш, 12-бет.

² Ўша жойда, ФИ-1. 3-рўйхат, 30-иш, 167-бет.

Inog'omxo'ja Umarxo'jaev tayinlangan. Inog'omxo'ja Umarxo'jaev S.R.Putinstevning ishonchini qozonib, o'lka rahbariyatining bir necha marotaba mukofotlarga sazovor bo'lgan. «U tub aholi orasida obro' va nufuzga ega bo'lgan kishi edi. Buni isboti uchun shuni dalil qilib o'tish lozimki, odatda boshliqlar ustidan shikoyat qilishga moyil xalqdan unga qarshi ikki martagina ariza tushgan xolos. Ulardan biri Inog'omxo'ja o'zi fosh etgan va surgun qilingan jinoyatchidan va ikkinchisi Chimkent uездidagi bir qozoqdan olingan edi. Bu qozoqning yozishicha, 1891 yilda Inog'omxo'ja Pista ko'miri bilan savdo qiluvchilardan pora olgan ekan. Viloyat harbiy gubernatori Grodekov bu shikoyatni tekshirmay va to'g'riligini aniqlamay, 1892 yilda Inog'omxo'jani mansabdan chetlatib, o'rniga SHayxontohur oqsoqoli Muhammad Yaqubni tayinlagan».¹

Natijada Inog'omxo'ja va uning tarafdorlari o'z mavqelarini yo'qotganliklari uchun xalqni Muhammad Ya'qubga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga da'vat etgan emish. Shu ravishda qo'zg'olon sabalari ikki guruhning mansab uchun kurashiga yo'yib yuborilgan. Bu haqda so'z yana keyingi sahifalarda o'z o'rnida bo'lishini ta'kidlab aytib o'tish lozimki, qo'zg'olon yuqorida qayd qilingandek siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarga ega edi. Ammo bundan qat'iy nazar mahalliy yuqori tabaqa vakillari orasida o'z vatanini mustaqilligini tiklash tarafdorlari yo'q emas edi. Ularning ko'pchiligi qo'zg'olonda bevosita qatnashmagan bo'lsalarda, lekin unga xayrixohlik bilan qaraganlari bor edi.

Shaharning katta oqsoqoli Muhammad Ya'qub vaboga qarshi qaratilgan Podshoalarni amalga oshirish ishiga boshchilik qilib, xalqning g'azabiga uchragan. Chunki, u qo'pollik bilan harakat qilgan. Uning so'ziga qaraganda 23 iyunda Hayit bayramining birinchi kunida shaharning jami masjidida erat soat 5 da nomoz o'qilgandan keyin S.R.Putinstev kelib xalqqa murojaat qilgan: «Xalq orasida, - degan u – vaboga qarshi ko'rilyotgan Podshoalar xususida noto'g'ri fikrlar yuribdi. Hozirda unga shahar katta mablag' sarflamoqda. Aytilgan Podshoalar vaboni tarqalib ketmasligi va xalqni foydasi uchun qilinayotir».

¹ Ўша жойда, 169-бет.

Bu so'zlar tobora keskinlashib borayotgan vaziyatni yumshatish maqsadida aytilgan, albatta. S.R.Putinstevning o'zi jome' masjididagi uchrashuvni shunday tasvirlaydi: «23 iyunda erta soat 5 dan keyin juma masjidiga keldim. Bu erda men nihoyatda ko'p to'plangan odamlarni ko'rdim. Menimcha, maschitda va atrofidagi ko'chalarda o'n ming kishi to'plangan edi. Mening huzurimda hayit nomozi o'qildi. Shundan keyin men xalqqa qarata rus tilida so'zladim. Meni gaplarimni rus tilini yaxshi biladigan Ko'kcha dahasining oqsoqoli Ibrohimbek tarjima qilib turdi. Bu kishi ilgari mening tarjimonim edi. Men o'zim o'zbekchani bilganligim uchun tarjimani aniq qilinayotganligini sezib turdim. Aholini bayrami bilan tabriklab, turli mish-mishlar asossizligini va barcha ishlar xalqning foydasi uchun qilinayotganligini ta'kidladim. SHuningdek ko'rilayotgan Podshoalar tufayli kasallar kamayayotganligi, agar rus hukumati yomon niyatda bo'lsa, 27 yil ilgari o'lkani bosib olayotganda barcha erli xalqni qirib tashlashi mumkinligini aytdim.¹

SHayxontohur qozisi Sharifxo'ja xalqqa qarata: «Ko'rib turibsizlarki, vaboga qarshi qanday Podshoalar ko'rilmogda, shuning uchun barcha mish-mishlar noto'g'ridir», - degan. Shundan keyin Sharifxo'ja jome' maschitida S.R.Putinstevni, Muhammad Yaqubni, to'rt dahaning oqsoqolarini mehmon qilgan. Bu erda Muhammad YAqub chaqimchilik qilib mahallalarda, xususan Sebzor dahasida noroziliklar bo'layotganligini S.R.Putinstevga ma'lum qildi. Bu kishi ketgandan keyin Sebzor dahasining oqsoqoli Komilbek shahar boshlig'i oldida aytgan so'zlari uchun noqulay ahvolda qolganligini xafa bo'lib, Muhammad YAqubga bildirgan. Bunga javoban Muhammad YAqub mahallalarda murdalar tekshirilmasdan va bekitilgan holda shahar ichidagi mozorlarga ko'milayotganligini ayblab, boshliqlarga ma'lumot berib turgan. Uning bu hatti-harakatlari xalqning nafratini qo'zg'atib, obro'yini to'kkan.

Bundan tashqari Muhammad Yaqub shahar atrofidan, ya'ni qishloqlardan kelgan mardikorlarni va «qora ishlar» bilan shug'ullanuvchi kishilarni surishtirmay kasalxonaga yotqizaverganidan yoki ushlab turganidan ular shahardan qochib ketavergan. Bu holat ham mardikorlarni Muhammad YAqubga nisbatan nafratini

¹ ЎЗР МДА.ФИ-723, 1-рўйхат, 3-иш, 12-бет.

uyg'otgan. Shu orada Inog'omxo'jani ishdan olinishidan norozi bo'lgan kishilar Muhammad Yaqubni qoralashga aytgan. Umuman aytganda, ezilgan va talangan xalq olomoni birinchi navbatda Muhammad Yaqubdan o'ch olishga ahd qildi va bosh ko'tardi. Qo'zg'olon Sebzor dahasida boshlandi. Muhammad Yaqubning so'ziga qaraganda avvalo 2000 kishilik xalq olomoni uni uyiga borganda bu erda olomon uni topolmagandan keyin uyini ostin-ustin qilib, to'rt ming so'mlik mol-mulkini talaganlar. Hatto uyiga o't qo'ymoqchi bo'lib turganlarida qo'shin kelib qolgan.¹

Bu olomon tepasida Eshon Azizlar (Zayniddinxon), Odil Qosimxo'ja, bozor oqsoqoli Ziyoy Isamuhammedovlar turganlar.

Qo'zg'olonchilar Muhammad Yaqubni uyidan topolmagandan keyin Yangi shaharga, mahkama tomon yo'l oldilar. Qo'zg'olon haqida uning qatnashchisi Mulla Sarimsoqov tergovda degan: «Xaloyiq, shu jumladan men vaboga qarshi Podshoalarni bekor qilinishini so'rab g'alayon ko'tardik. Bu harakat mansabdorlarni o'ldirishni, Muhammad Yaqubni uyini yondirishga qaratilgan chaqiriqlar bilan boshlandi. SHahar ahli murdalarni eski mozorlarga dafn etishga ruxsat bermayotgan va boshqa adolatsizliklarni qilayotgan katta oqsoqol Muhammad Yaqubni yomon ko'rardilar. Bizning egarchi mahallamizda SHamsi Muhammad degan kishi vabodan emas, balki oddiy kasaldan vafot etdi. Ammo Muhammad Yaqub ruxsat bermagandan keyin uni Shayxontohur mozoriga yashirincha ko'mdik. Katta oqsoqol buni tekshirishga o'z odamini yubordi. Ruxsatsiz dafn etish Sebzor dahasida ham sodir bo'lgan ekan. Shu paytda bizning mahallamiz orqali Sebzor dahasining kishilari o'tib qoldi. Bizlar ham ularga qo'shildik. Ularning orasida men, Hasanxo'ja Eshon, Abdurashidxo'ja, Tojixon Abdurahmonov, Nazir Muhammad va boshqalar bor edi. Yo'lda bizlarga ko'p odamlar qo'shildi. Ularni orasida chetdan kelgan kishilar ko'p edi. CHunki katta oqsoqol ularni surishtirmay bekordan-bekorga kasalxonaga yotqizdirdi. Kimning boshi boylangan bo'lsa, o'shani ushlab kasalxonaga jo'nataverdi. Mardikorlar va ulgurchi ishlar bilan shug'ullanuvchilar shahardan qochishga majbur bo'ldilar.

¹ Ўша жойда, ўша бетда

Olamonning soni 2-3 ming kishiga etdi. Hech kim odamlarni chaqirmadi, aksincha ular tamomila ixtiyoriy ravishda ko'tarildilar. Bizlar mahkamaga borganimizda, shahar boshlig'i S.R.Putinstev paydo bo'ldi. Xaloyiq baqirishib, Muhammad Yaqubni o'ldirishlarini bayon etdilar. Men olomonni tinchlanishga chaqirganimda ko'kragimdan ushlab siltadilar».¹

S.R.Putinstev Muhammad Yaqub bilan mahkamaga Voronstev ko'chasidan kelayotganda ko'p sonli olomonga duch kelgan. Bu erda ularga qarshi toshlar otilib, Muhammad Yaqubning boshi, elkasi va beli jarohatlandi. Qo'zg'olonchilar unga: «Bizlarni Yangi qabristonga jo'natmoqchimisan, lekin biz seni o'zingni o'ldirib, u erda jo'natamiz» - deb baqirishgan. Muhammad Yaqub qochib, mahkamaga yashirinadi. Qo'zg'olonchilar ketma-ket mahkamaga kelishib: «Oqsoqolni beringlar, o'ldiramiz» - deb baqirishdi. Shu paytda ikki-uch mingdan iborat olomon mahkama hovlisiga bostirib kira boshlaganda Muhammad YAqub shu erdagi mahkama kotibini uyiga kirib yashirinadi. Tashqaridan «oqsoqolni ber!, Uni o'ldiramiz» - degan so'zlar doimo eshitilgan.² Kotibning xotini Muhammad Yaqubni shkafning ichiga va uning soqchisi Sayfullani stol tagiga yashirgan edi. SHu vaqtda qo'zg'olonchilardan bir guruh kishilar kotib uyiga kirib oqsoqolni o'ldirishlarini aytganlar. Ammo ular oqsoqolni topa olmaganlar.

Mahkamada qo'zg'olonchilar S.R.Putinstevga ham hujum qilganlar. Uni o'zining ko'rsatishicha voqea quyidagicha bo'lgan: - Sobor ko'chasida, - deydi u, - menga Muhammad YAqub va soqchilar qo'shilishdi. SHunda mirshablar olomonna rus (yangi) shahriga kelayotganligi haqida xabarni keltirdilar. Iqon ko'chasi bo'ylab, Voronstev ko'chasiga chiqqanimda, - deydi Putinstev, - olomonni Samarqand ko'chasiga kelayotganini ko'rdim. Men olomonga yaqinlashdim, lekin ular Voronstev va Samarqand ko'chalarini kesadigan joyda meni qurshab oldi, Muhammad YAqub olomonni to'xtatishga ko'p harakat qildi. SHunda olomon tomonidan unga unga toshlar otildi va u otga minib qochdi. Orqasidan bir guruh qo'zg'olonchilar quvib ketdilar. Men qurshab olgan bir guruh

¹ Ўша жойда, 188-189 бетлар.

² Ўша жойда.

qo'zg'olonchilar bilan O'rda bozori tomon tomonga yurdim, lekin olomonni shahar mahkamasining hovlisiga bostirib kirayotganini eshitib, orqaga qaytdim. Bu erda Muhammad Yaqubning borligini anglab olomonni to'sish maqsadida darvonani oldida turib oldim. So'ngra men olomondan Muhammad Yaqubning aybi nimada deb so'radim. Ular qichqirgan holda oqsoqol murdalarni dafn etishga ruxsat bermayotganligini aytdilar.

Xulosa qilib aytganda, Podsho xukumati ko'pdan-ko'p masalalarni ma'muriy jixotdan tartibga solib turish amaldorlar zo'ravonligiga keng maydan yaratib berdi.

III BOB. TURKISTON O'LKASIDA HARBIY-MA'MURIY VA TABAQAVIY AMALDORLAR HOKIMIYATINING YUZAGA KELISHI

3.1 Turkiston oliy-harbiy amaldorlar byurokrtiyasining shakllanishi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Turkistonda mustamlaka hokimiyat tuzumining shakllanishi XIX asrning 60—80-yillari o'rtalarida chorizm bosqinchilik istilolari jarayonida ro'y berdi. Boshqaruv o'zak tamoyillari Rossiya imperiyasi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga asoslanar hamda bu vaqtga kelib boshqa milliy mintaqalarda to'plangan mustamlakachilik tajribalarga tayanar edi. Chorizmning asosiy vazifalari ham ana shularga muvofiq tarzda belgilandi: Turkiston xalqlarining istilochi tuzumga qarshilik ko'rsatishining barcha shakllarini ayovsiz bostirish, xonlar, beklar, mahalliy zodagonlar boshchiligidagi ilgarigi hokimiyat mexanizmini buzib tashlash, Rossiya davlatchiligi asoslarini zo'ravonlik bilan singdirish hamda o'lkaning boy moddiy va insoniy resurslarini ekspluatatsiya qilishning arzon va samarali tizimini barpo etish.

Aytib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish harbiy, noharbiy va sud hokimiyatini qo'l ostida birlashtirgan hamda boshqaruv tizimining barcha hal qiluvchi bo'g'inlarini egallab olgan harbiylashtirilgan byurokrtiyaning ishiga aylandi. Faqat volost va qishloq darajasidagina hokimiyatni tashkil qilish shunchaki mahalliy jamoat ixtiyoriga berib qo'yilgan edi. Boshqaruvni «mustaqil», ammo chorizm amaldorlari nazorati ostida amalga oshirishi lozim bo'lgan mahalliy ma'muriyat va sudlov organlarini shakllantirishning «saylab qo'yiluvchi tizimi» e'lon qilingan edi.

Turkiston jamiyatidagi ishlar ahvoli to'g'risidagi butun axborotlarni o'z qo'l ostiga jamlagan, to'la-to'kis siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan hamda jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotini tartibga solishga erishgan general-gubernatorlar va harbiy gubernatorlar bu ma'muriyatning oliy bo'g'ini edi.

Quyida Turkiston oliy byurokratiyasi tarkibini, xizmati davomiyligi, uning miqdori, pul ta'minoti, tabaqaviy mansubligi va savodxonlik darajasi masalalarini ko'rib chiqamiz.

1867 yildan to 1917 yilga qadar Turkistonda podshoh tomonidan tayinlangan 12 nafar general- gubernator almasldi, jumladan: K.P.Kaufman (1867-1882 yillar), M.G.CHernyaev (1882-1884 yillar), N.O.Rozenbax (1884-1888 yillar), A.B.Vrevskiy (1889-1898 yillar), S.M.Duxovskiy (1898-1901 yillar), N.A.Ivanov (1901-1904 yillar), N.N.Tevyashov (1904-1905 yillar), D.I.Subotich (1906 yil), N.I.Grodekoy (1907-1908 yillar), P.I.Mishenko (1909 yil), A.B.Samsonov (1909-1913 yillar), A.N.Kuropatkin (1916 yil 22 iyul - 1917 yil 31 mart).

1914-1916 yillar davomida o'lkada uch «muvaqqat» - alaloqibatda podshoh tomonidan ana shu lavozimga tasdiqlanmagan generallar Flug, Martson va Erofeev hukmdorlik qilishdi.

General-gubernator lavozimini ikki yilgacha olti kishi, uch yilgacha ikki kishi, besh yilgacha ikki kishi, sakkiz yilgacha bir kishi, o'n to'rt yilgacha bir kishi egallab turgan.

Shunday qilib, general-gubernatorlardan teng yarmi o'z xizmatida ikki yildan ko'p bo'lmagan. Faqat Birinchi jahon urushi davrida 4 kishi almasldi, general-gubernatorlardan oxirgisi A.N.Kuropatkin atigi 8 oy o'lkada hukmronlik qildi. Turkiston general-gubernatorlarining tez-tez almashinishini deyarli ularning barchasi yoki, hech bo'lmaganda, salmoqli qismi o'lkani ma'muriy boshqarish masalalarida qobiliyati etarli bo'lmaganligi, ko'pincha egallab turgan mansab ular zimmasiga yuklaydigan rolga munosib emasligi bilan izohlash mumkin.

- General-gubernatorlarning ro'yxati ularning barchasi Rossiyadagi eng imtiyozli dvoryanlar tabaqasiga mansub ekanligidan dalolat beradi. 10 kishi oliy harbiy ta'lim olgan, Bosh shtab akademiyasini bitirib chiqqan, ikki nafari o'rta harbiy ta'lim ko'rgan - Mixaylovskiy Artilleriya bilim yurtini va Gvardiya praporshiklari va yunkerlar maktabini bitirgan edi. Quyidagi amal va

unvonlarga ega bo'lishgan: bittasi — general, ettitasi - general-leytenant, uchitasi - general-ad'yutant, bittasi esa kavaleriya generali.

- Turkiston general-gubernatorlari bir yilda o'rtacha 30-35 ming rubl maosh olar ediki, bu ko'rsatkich Rossiya ichki guberniyalaridagi gubernatorlar maoshidan 4 baravar ko'p edi. I.A.Rubakin ma'lumotlariga qaraganda, Rossiyada gubernatorlar bir yilda o'rtacha 8 ming rubl maosh olishgan¹. Bundan tashqari, o'lkadagi pul sarfiyoti taftishlaridan shu narsa ma'lumki, Turkiston general-gubernatorlari uylari va dalalari ta'minotiga yiliga 12 ming rublgacha mablag' sarflangan².

- Harbiy gubernatorlar, qoida tariqasida, O'rta Osiyo bo'ylab harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan, Turkistonning tinch shahar va qishloqlarini ish-g'ol qilishda «alohida mahorat» namoyish etgan ofitserlardan tayinlanar edi. Ana shundan 5—6 yillik xizmat davomida poruchik va shtabs-kapitanlar general-mayor yoki general-leytenantga aylanishardi. Ularning maoshi bir yilda 12 mingdan 15 ming rublgachani tashkil etar, bu esa Markaziy Rossiyadagi gubernatorlarnikidan 2 baravar ko'p edi³.

- O'zbekiston va Rossiya arxiv materiallari mustamlakachilikning 50 yil mobaynida harbiy gubernatorlar xizmati davomiyligini ko'zdan ke- chirishga imkon beradi. U quyidagicha bo'lgan: Sirdaryo viloyatida har biri o'rtacha 7 yildan xizmat qilib, 7 kishi almashgan, bular - N.N.Golovachyov, V.N.Trotskiy, N.I.Grodekov, N.I.Korol'kov, I.I.Fedotov, M.YA.Romanov, A.S.Galkin; Farg'ona viloyatida 1876 yildan boshlab o'rtacha 4 yildan xizmat qilgan 10 kishi almashgan, bular - M.D.Skobelev, A.K.Abramov, N.A.Ivanov, N.I.Korolkov, Povalo-Shviykovskiy, Chaykovskiy, G.A.Arendarenko, Susanin, V.I.Pokotilo, A.I.Gippius; Samarkand viloyatida ham 1887 yildan boshlab o'rtacha 3 yildan ko'p xizmat qilgan 8 ta harbiy Turkistonga podporuchik unvonida kelgan, 6 yil davomida barcha harbiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan, 1868 yilga kelib esa general-mayor unvonini olgan edi. Go'yoki

¹ Рубакин И.А. Россия в цифрах. Спб., 113-бет.

² Ўзбекистан Республикаси Марказий Давлат архиви, III-фонд, 564-йиғма жилд, 317-варак.

³ Ўзбекистан Республикаси Марказий Давлат архиви, III-фонд, 564-йиғма жилд, 317-варак.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori V.N.Trotskiy 1866 yili o'lkaga polkovnik unvonida kelgan, 1870 yilda general-mayorga aylangan edi.

Endi Turkiston general-gubernatorlari va ular muhitining qisqacha shaxsiy tavsifiga ko'chamiz. 1867-1917 yillarda Turkistonda hokimiyat tepasida bo'lgan bu odamlar qanday kishilar edi, ularning xatti-harakatlari motivlari, o'zaro, boshqa kishilar bilan bo'lgan munosabatlari qanaqa bo'lgan bu masalalar, bizningcha, mustamlaka hokimiyati tizimini tavsiflab, Rossiya samoderjaviyesi ichki siyosatining yalpi manzarasini yanada to'ldiradi.

Birinchi general-gubernator KP.Kaufman imperiyaning boshqa chekka o'lkalarida katta ma'muriy va harbiy xizmat tajribasiga ega bo'lgan holda Turkistonga kelgandi¹. U 40-50-yillarda Kavkazda; 60-yillarda Pol'shada xizmat qilgan, 1865 yili SHimoli-g'arbiy guberniya general- gubernatori va Vilen harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni etib tayinlangan edi².

Shimoliy-g'arbiy guberniyada bir yil xizmat qilgan Kaufman «isyon» bilan kurashib, o'lka demokratiy ziyolilarining xalq orasida vatan- parvarlik va erksevarlik g'oyalarini yoyishga barcha urinishlarini chippakka chiqardi. Biroq tez orada Rossiya jandarmeriyasi boshlig'i graf P.A.Shuvalov bilan o'rtalarida mojaro ro'y berdi. O'sha davr esdaliknavisligining guvohlik berishicha, Kaufman 1863 yilgi Pol'sha qo'zg'oloni ishtirokchisi I.Ogrizkoni sudga tortadi. I.Ogrizkoga Shuvalovning millati polyak bo'lmish rafiqasi homiylik qilardi. Oqibatda 1866 yil 9 oktyabrda farmoni oliy chiqarilib, unga ko'ra Kaufman «egallab turgan lavozimidan general-ad'yutant unvonini qoldirgan holda bo'shatish» asnosida 11 oylik ta'tilga chiqarildi. 1867 yilda esa Turkistonga yuborildi.

Turkistondagi xizmati davomida Kaufman o'zini shafqatsiz istilochi, ayni mahalda iste'dodli va serg'ayrat ma'mur sifatida namoyon etdi. U o'ziga

¹ Kaufманский сборник. М., 1910. 3-бет.

² Ўз Р МДА, И-1-фонд, 33-рўйхат, 323-йиғма жилд ва 305- йиғма жилд; 35-рўйхат, 10- йиғма жилд, 223-йиғма жилд, 440-йиғма жилд, 88- йиғма жилд, 334- йиғма жилд, 319- йиғма жилд, 203- йиғма жилд, 296-йиғма жилд, 308- йиғма жилд; И-17-фонд, 1-рўйхат, 36871- йиғма жилд; И-18-фонд, 1-рўй- хат, 2085- йиғма жилд.

noma'lum o'lkani murakkab sharoitiga moslasha bildi va Turkiston general-gubernatori lavozimida ishlash bobida o'ziga xos rekordni zabt etdi.

Kaufman ancha oqil va savodli ma'mur edi, ammo Rossiya generalitetining tipik vakili sifatida liberalizmga moyil emasdi va bosib olingan o'lkada samoderjaviy siyosatini qattiqqo'llik bilan yurgizdi. 15 yil mobaynida Kaufman o'lka va chor armiyasi boshida turdi, chorizmning yangi mustamlakadagi manfaatlarini o'ziniki o'rnida ko'rib «podshoh va vatanga» sadoqat va e'tiqod bilan xizmat qildi.

Kaufman chorizmning bu davrdagi barcha bosqin-chilik yurishlariga rahbarlik qildi. Rus qo'shinlarining Samarqandni bosib olishini tasvirlagan, L.Kostenko shunday yozadi: «Qattiq qarshilik ko'rsatishdan g'azab otiga mingan fon Kaufman asir olmaslik to'g'risida buyruq berdi. Buyruq aniq-raso bajarildi. Yaradorlar vahshiylarcha kaltaklandi»¹. Uning buyrug'iga ko'ra Samarqand shahri talon-toroj etildi va yondirildi. Ana shu yurishda chor qo'shinlariga hamrohlik qilgan rus rassomi V.Vereshagin Kaufmanni shunday tavsiflaydi: «... endi esa hovlimizda turli odamlarni sud qilayotgan va jazolayotgan general Kaufmanni ko'rib turibman. Ofitserlar qurshab olgan yumshoqko'ngil Konstantin Petrovich yurish stulida o'ltirar va papiros chekkanicha, mutlaqo qizishmasdan: otilsin, otilsin, otilsin,» deb, buyruq berardi². Turkiston xalqlarining fojiasi chor generallari tantanasiga aylandi, jumladan, Kaufman Samarqand, Qo'qonni olgani, Liviya va boshqa yurishlarda ishtiroki uchun shon-sharaf va unvonlarga burkandi. 1874 yilda u to'la general unvoniga sazovor bo'ldi va uning ismi sharifi Peterburgdagi Muhandislik bilim yurti taxtasiga «Samarqand-1868» yozuvi bilan oltin harflar bilan bitilishiga farmoyish berdi.

Kaufman har xil davralarga moslashuvchan amaldor sifatida ham ko'zga tashlandi. 60-yillarning boshlarida Harbiy vazirlik devonida uning direktori bo'lib ishlash tajribasi, D.A.Milyutin rahbarligida harbiy islohotlarni

¹ Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. СПб., 1871, 161—бет.

² Верешагин В.В. Самарканд в 1868 году. «Русская старина». 1889, № 9, 617—649-бетлар.

tayyorlash maxsus qo'mitasida ishtiroki, shubhasiz, Turkistonda Kaufmanga qo'l keldi.

Kaufman ma'muriyatning o'lkani boshqarish borasidagi chora-tadbirlarini etarlicha ehtiyotkorona va mahalliy odatlar va an'analarga nisbatan majburan yon beruvchi deya tavsiflash mumkin. O'lkani iqtisodiy o'zlashtirish borasida oldinda turgan vazifalarni yaxshi tushungan Kaufman, o'zining vorislaridan farqli o'laroq, mintaqadagi ichki siyosatda ko'pgina tashabbuslar ijodkori bo'lgan edi. Ma'lumki, uning davrida Turkistondagi rus mulklarida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida qullik qonun yo'li bilan taqiqlangan edi. Turkiston hududiga giyohvand moddalar olib kelinishi qat'iyon taqiqlanib, ular «tashima savdo to'g'risidagi Muvaqqat qoidalar»ga muvofiq qo'lga tushirilgan taqdirda musodara etilar edi. Uning ma'muriyati mahalliy aholining diniy hayotiga, an'analari va urf-odatlariga aralashmaslik printsipiga rioya etdi. Eski musulmon institutlari deyarli o'zgarishsiz qoldi. Mahalliy aholi uchun, masalan, Volgabo'yida bo'lgani kabi, musulmonlikdan voz kechgan va xristianlikka o'tganlarga pul nafaqasi belgilangan bo'lsada, aholi xristianlikni qabul qilishga majbur etilmadi. Kaufman faoliyatining ana shu jihatini Turkistonni boshqarish bo'yicha tadbirlarni ilk marotaba yoritgan Evropa publitsistlari hatto «dohiyona» deb ta'riflagan edilar. Ularning taxmin qilishicha, ana shu tadbirlar tufayli Rossiya mintaqada yirik siyosiy larzalarga duchor bo'lmadi va vaziyatni barqarorlashtirishga erishdi¹. Gap, albatta, Kaufmanning "dohiyligida" emas, balki uning ehtiyotkorligi va vaziyatni hushyor baholay olish layoqatidadir. Harbiy vazir Milyutinga o'zi yozishicha: «musulmonlar bu qadar sovuq vazminlik, bu qadar loqaydlik, hatto oliy hokimiyat vakillariga hurmatsizlik namoyish etishmoqdaki, qandaydir shior mavjudligini taxmin qilish mumkin. Men shu narsaga amin bo'ldimki, odamlarning kayfiyati risoladagidek emas, rus hokimiyatiga itoat etmaslik va

¹ Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края. М., 1980, 34-бет.

qulay vaziyatda undan ozod bo'lish uchun foydalanishga shaylik darhaqiqat mavjud» bo'lgan mamlakatda uzoqni ko'ra olmaslikka yo'l qo'ya olmasdik¹.

«Rus hokimiyatiga itoat etmaslik», «undan ozod bo'lishga shaylik» — Kaufmanning bosib olingan erlardagi majburiy moslashuvchan xatti-harakatlarining asosiy vajidir. Kaufman o'z a'yonlariga «ularning o'z tabaalariga nisbatan yangi mavqei»da ekanligini, ular «qurol bilan ham, qonun hujjatlari bilan ham» ular «o'lkani ma'naviy zabt eta olmaslik»larini, Turkiston xalqlarining «eskirgan siyosiy va ijtimoiy hayoti shakllarini» «fuqarolikning yangi normalari bilan» almashtirish zarurligini singdirishga urindi².

Bu «fuqarolik normalari» esa, ma'lumki, ochiqdan-ochiq mustamlakachilik va ulug'davlatchilik-shovinistik xarakterida edi.

Kaufman tomonidan tayyorlangan Turkistonni boshqarish bo'yicha loyihalar ularni «siyosiy nuqtai nazardan zararli», Kaufmanning yer-soliq masalalariga aralashuvini «bemahal va o'rinsiz» deb hisoblagan Rossiya vazirliklari tomonidan ikki marotaba rad etildi. Kaufmanni «byurokratik radikalizm»da, ya'ni muhim davlat masalalarini hal etishga volyuntaristik yondashuvda ayblash uchun loyihalar etarlicha to'liq ishlab chiqilmagani to'g'risidagi mulohazalar bahona bo'ldi. Adliya vazirligi «tuzemlarning ruslar singari barcha huquqlari sanab o'tilishi»ni ortiqcha deb hisobladi va «qishloq va shahar ahlining qonun bilan belgilangan huquqlari» tub aholiga berilishi bilan cheklanishni tavsiya etdi³. «O'z turmush sharoiti bilan ko'proq imperiyaning eng quyi tabaqalariga to'g'ri keluvchi» qishloq aholisi huquqlari borasida ularni kengaytirishdan tiyilish tavsiya etilgan va u «alohida huquqlarga ega rus bo'lgan fuqarolar ommasiga qiyosan olganda hech qanday» huquqlardan foydalanmasligi uqtirib o'tilgan edi⁴.

O'z navbatida, Ichki ishlar vazirligi Kaufmanning «shahar ahli huquqiy holati»ni Turkistondagi barcha shaharlar aholisiga berish niyatini tanqid qiladi

¹ Ўша жойда, 29-бет.

² Чижов В. Культурные преобразования К.П.Кавфмана в Туркестане. Одесса, 1915, 16-бет.

³ Ўз Р МДА, И-1-фонд, 25-рўйхат, 15-йиғма жилд, 40-варақ.

⁴ Ўша жойда.

va bunday huquqlarga faqat Turkistonning tarixan shakllangan yirik savdo markazlari - Toshkent, Qo'qon, Namangan va Samarqand shaharlari aholisi ega bo'lishi mumkinligiga ishora qilgan edi. Qolganlar borasida esa ruslar ko'chib kelgan, rus savdosi shakllangan aholi manzillari aholisiga berilishi mo'ljallangan edi. Chimkent, Avliyoota, Kattaqo'rg'on va Turkiston ana shunday aholi manzillari jumlasiga kiritilgan edi¹.

Turkiston o'lkasida er tuzilishi masalalari Moliya vazirligida ko'pgina e'tirozlar tug'dirdi. 1873 yilgi Loyihaga muvofiq amlok yerlarini aslida ularga ishlov bergan dehqonlarga foydalanish uchun berish hamda bu tartibni keyinchalik vaqf va mulk erlariga joriy etish rejalashtirilgan.

¹ Ўша жойда, 42-варақ.

3.2 O'lka va viloyat amaldorlari

Mustamlaka hokimiyat tizimining oliy pog'onalari shuningdek Turkiston general-gubernatori mahkamasi va viloyat boshqaruvchi amaldorlaridan ham iborat edi. Mahkama shtati bosqichma-bosqich butlanib bordi: 1868 yilda unda atigi 18 kishi, 1875 yilda 46, 1917 yilda esa 56 kishi bo'lgan. Uning tarkibiga boshqaruvchi, uning yordamchisi, katta va kichik ish yutiruvchilar, xizmat pillapoyasining eng quyi pog'onasida turgan va asosan «texnik rol» o'ynagan mayda amaldorlardan iborat bo'lgan. Bu toifa amaldorlar orasida mahkama boshqaruvchisi istisno tariqasidagi maqomga ega edi. Qoida tariqa- sida, bular Rossiya mansablar tabelida V klassdan past bo'lmagan amalni egallagan chor generallari yoki polkovniklari bo'lishgan.

Ularning faoliyati aslida hech qanday nazoratga tortilmas va tez orada ijro etuvchi amaldordan farmoyish beruvchi amaldorga aylanishardi. Barcha ishlarni shaxsan ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan general-gubernator ular haqida bildiruv berishni boshqaruvchiga topshirar va ko'pincha yo yoki bu ishning hal etilishi boshqaruvchi u haqtsa qanday bildiruv berganligiga bog'liq bo'lar edi. Kaufman hukmronligi davrida 8 yil mobaynida A.I.Gomzin boshqaruvchi bo'lgan, zamondoshlari uni «ma'muriyat faoliyati bilan kam tanish, o'z majburiyatlaridan bir yildan keyinoq ko'ngli sovugan kishi» sifatida tavsiflaydilar¹.

Xizmat mavqeini suiiste'mol qilgani uchun sudga berilgan, bir necha oy qamoqxonada o'tirib chiqish bilan qutulib qolgan mahkama boshqaruvchisi P.P.Kablukovning ishi Rossiya matbuotida keng salbiy oshkora etildi. Zamondoshlarining so'zlariga qaraganda, «to'g'ridan-to'g'ri xizmati sohasida mahoratga ham, alohida xizmatlarga ham ega bo'lmagan» G.P.Fyodorov Rossiyada juda yuqori sanalgan maxfiy maslahatchi lavozimigacha xizmat qildi².

¹ Федоров Г.П. Моя служба в Туркестане. «Исторический вестник». Сентябрь-октябрь 1913.

² Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Т., 1912, У8—551-бетлар.

Tabaqaviy daraja tahlili mahkama amaldorlarining ko'pchiligi dvoryanlardan iborat bo'lganligini, ammo borgan sayin ularning solishtirma nisbati pasaygani va har xil amaldorlarniki ortganini ko'rsatadi. Ko'pincha hech qanday klassli amalga ega bo'lmagan, turli yig'im tabaqalari vakillari, chalasavod va layoqatsiz kishilarni ham ishga qabul qilingan hollar ham uchraydi. Savodxonlik darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, amaldorlar savodxonlik bobida uch razryadga bo'lingan: oliy ma'lumotli shaxslar, o'rta ma'lumotli shaxslar va eng quii ta'lim muassasalarini bitirib chiqqan yoki uyda ta'lim olgan shaxslar, uy ta'limi esa grammatika va arifmetikaning to'rt, amalni bilishdan iborat bo'lardi, xolos¹.

Mahkama boshqaruvchisiga bir yilda 5 mingdan 7 ming rublgacha maosh tayinlangan, Ichki ishlar ma'lumotlariga qaraganda ayni mahalda Markaziy Rossiyadagi 54 nafar boshqaruvchining har biriga yiliga 600 rubldan maosh to'langan². Bu narsa F.K.Girs taftish komissiyasi tomonidan 1883 yilda qayd etilgandi va ana shu misol asosida Turkiston amaldorlari belgilanganidan ustamani g'ayriqonuniy yo'l bilan olishda ayblangan edi³. Boshqaruv tuzilmalariga nisbatan ijtimoiy sohada chor hukumati tomonidan amaldorlar chuqur tomir otishi va Turkistonni tark etmasligi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berildi. Xukumat farmoyishiga ko'ra barcha rus amaldorlariga xizmatning birinchi besh yili uchun asosiy maoshning 20%ini, ikkinchisi uchun 40%ini, uchinchisi uchun 75%ini tashkil etuvchi qo'shilib boruvchi maosh ham tayinlangan edi. O'lkada 20 yil xizmat qilganlar esa maoshning teng yarmida, 25 yil xizmat qilganlar esa butun maosh miqdorida pensiya olishgan. Har yili 28 kun, bir yarim yilda bir marotaba - 2 oy va uch yil mobaynida bir marta 4 oy, faqat vataniga yoki xorijga jo'nab ketganida ta'til berilar edi⁴.

Yuqori amaldorlar doirasi qishlik va yozlik xona, isitish, yoritish vositalari va xizmatkor bilan ta'minlanar, Turkistonda 10 yil davomida

¹ Зайончковский П.И. Правительственный аппарат самодержавной России в XIX в. Москва, 1978, 25-бет

² Ўз Р МДА, И-1-фонд, 28-рўйхат, 423-йиғма жилд, 10-варак.

³ Гире Ф. Кўрсатилган хисобот... 19-бет.

⁴ Ўз Р МДА, И-1-фонд, 33-рўйхат, 212-йиғма жилд, 10- варак; 77-йиғма жилд,

uzluksiz xizmat qilganlar esa temir yo'l bo'ylab tekin yo'l bosish huquqiga ega bo'lardilar. Bu kabi ijtimoiy imtiyozlar Turkistonga turli odamlar e'tiborini jalb etardi. Birovlar xizmat bo'yicha osongina tezroq ko'tarilish va shu jumladan, urush va talon-toraj evaziga boyib ketishni mo'ljallardilar. Boshqalar esa xizmat yoki shaxsiy tartibdagi u yoki bu vaziyatlar ta'sirida o'lkaga kelishardi. Shuning barobarida, mahkama amaldorlari orasida 1868-1892 yillarda taniqli geograf va etnograf P.A.Glaev, bibliograf, Turkiston xalq kutubxonasi noyob katalogi tuzuvchisi N.I.Dmitrovskiy kabi olimlar ham ishlashgan. Amaldorlar P.I.Xomutov, SH.M.Ibragimov, M.Brodovskiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot masalalariga real qarashlari bilan ajralib turishgan.

Umuman, mahkama va viloyat boshqaruvlari apparat tizimining poraxo'rlik, davlat xazinasini talon-toraj qilish, xizmat mavqeidan g'arazli maqsadlarda bezbetlarcha foydalanish avj olgan bir bo'g'ini edi. Amaldorlar orasidan apparatdagi korruptsiya borasida mansabga oid jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilganlar salmog'iga qarab xulosa chiqarish mumkin. Misollar juda ko'p va ular turli yillarga taalluqli. Mahkama yordamchisi Savenkov, Sirdaryo viloyati Kurama uyezdi boshlig'i Guyus ishlari jamoatchilik orasida, ayniqsa, qattiq aks-sado berdiki, ana shu viloyat harbiy gubernatori Golovachyov, Toshkent boshlig'i Medinskiy, hatto Kaufmanning o'zi ham bu ishga qo'shilib qolgan edi. Bu ish nafaqat davlat g'aznasini talon-toraj qilish, balki mahalliy aholining erlariga zo'ravonlik va g'ayriqonuniy, nohaq soliqlar solish bilan ajralib turgan edi.

Bag'oyat konservativ, ammo qonunga itoatkor general M.A.Terentyev o'z asarida yuqorida aytib o'tilgan amaldorlar harakati «texnologiya»sini quyidagicha tasvirlaydi: ko'priklar yo yo'llar qurish yoki ta'mirlash yoxud qandaydir inshootni barpo etish bahonasi bilan nizoli er uchastkalari axtarib topilardi, ularga qalbaki hujjatlar, qoida tariqasida, soxta shaxslarga g'ayriqonuniy yo'l bilan rasmiylashtiriladi, tub aholi bu erlardan haydab yuborilar va shundan so'ng er uchastkalarini katta pulga sotish ustida savdo

boshlanardi. Keles daryosi bo'ylab 539 desyatina, Toshkentdan 5 verst naridagi Qoziqo'rg'onda 2256 desyatina, CHiyako'lda 2171 desyatina va Jo'nariqda 24536 desyatina va boshqa joylarda erlar shu tarzda tortib olingan edi¹.

1877 yilda tergov komissiyasi Savenkov, Toshkent shahri boshlig'i Medinskiy, Golovachyov, Guyus, Kolzakov va turli darajadagi 10 nafar xo'jalik yurituvchilarni sudga tortish to'g'risida qaror qabul qilgan edi. Sud hukmiga ko'ra faqat Savenkov va Guyus Sibirga surgun qilingan edi. 10 nafar xo'jalik yurituvchilar esa Senat tomonidan bundan keyin ma'muriyatda ishlash huquqidan mahrum qilinib, afv etilgandi. Harbiy gubernator Golovachyov unga Kaufman tavsiyanoma bergani bois jazodan qutulishga musharraf bo'ldi. O'zining yaqin xizmatdoshini panohiga olishga intilgan Kaufman o'zining oq podshohga va harbiy vazirga yo'llagan murojaatida «Kavkazdagi va Turkistondagi uzoq vaqt xizmatlari uchun» Golovachyovga rahm-shafqat qilishlarini o'tinadi, Golovachyovning suiiste'mollardagi ishtirokini «parvoyi falaklik» va qayga bosh suqqanini «tushunmaslik» va beixtiyor ishtirokchiga aylanganligi bilan izohlaydi². «Viloyat boshlig'ini g'ayriqonuniy harakatda ayblashning oshkora etilishi o'lkada yomon ta'sir uyg'otishi tufayli» oq podshoh Kaufmanning iltimosini qanoatlantiradi³. Jamoatchilik ko'z oldida rus ma'muriyati- ning «oppoqligi» oq podshoh uchun nihoyatda muhim edi.

Golovachyovni sudga tortmaslik haqidagi «farmoni oliy»ga havola qilgan holda Kaufman Kurama uezdining sobiq uezd boshlig'i Kolzakovni ham jazodan ozod qiladi va bu haqida shunday deydi: «Kamina Qurama uezdi aholisining bunchalik uzoq davom etayotgan keskinligiga yo'l qo'ya olmayman, ulardan ko'plab shaxslar so'roq qilishga chaqirilishi va qamoqqa olinishi lozim; o'tgan davrdagi tergovlarga chek qo'yish kerak. Aholi so'roq va tergovning adog'ini ko'rmayotir, aybdorlar esa hali ham qonun talab qilganidek jazo olganlari yo'q. Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, tergov

¹ Тенентьев М. А. История завоевания Средней Азии. Т.3, СПб, 1906, 274-279, 280-285-бетлар.

² Ўша жойда 286-бет

³ Ўша жойда, 287-бет.

komissiyasig'v. polkovnik Guyusning uezdni vaqtincha boshqarishi bilan kifoyalanishga farmoyish beraman». SHu tariqa 1867 yilgi «Nizom»ga ko'ra o'lka sudlov tizimining boshlig'i bo'lgan Kaufman o'z xohish-irodasini o'tkazgan¹.

Ayni paytda uning Qurama uezdi aholisining tashvishli ahvoli xususidagi argumentlari tamomila o'zini oqlar va haqiqatga moe edi. Aholining chor amaldorlarining talon-toroji va nohaq soliqlaridan noroziligi bu vaqtga kelib oxirgi chegarasiga etgandi.

Joylardan har yili yuzlab shikoyatlar general-gubernator nomiga nohaq soliqlar, yig'imlar normalarini g'ayriqonuniy oshirish, xususiy ob'ektlarni qurishda foydalanish va pul to'lamaslik, qoramollarni haydab ketish, er bilan bog'liq qallobliklar va hokazolar xususida kelib tushardi. Bunga o'xshash harakatlarda u yoki bu tarzda aybdor bo'lgan amaldorlarning aksariyati harbiy gubernatorlar yoki general-gubernator- ning o'zi tarafdorligi sharofatidan ko'pincha xizmatdan bo'shatib yuborish bilan qutulib qolar edilar.

Bu jarayon oliy amaldorlarning rasmiy hisobotlarida o'z aksini topmasdi. Ularda, faqat pashmaloq amaldorlarga daxldor ma'lumotlar bo'lardi va ma'muriyat oliy bo'g'ini qilmishlarini deyarli aks ettirmas edi. Samoderjavie uchun mohiyatan va nufuz nuqtai nazaridan og'riqli, Rossiya amaldorlari orasidagi korruptsiya masala- si, garchi ular bir qancha yashirib bo'lmaydigan faktlarni to'laligicha rad etmasalar-da, senator- lar F.K.Girs (1882-1883 yillar) va K.K.Palen (1908-1909 yillar) bu faktlarni o'zlarining taftish hisobotlarida nihoyatda kamtarona aks ettirganlar. Masalan, Palen «xizmat etikasini mutlaqo tushunmaslik va aholi ehtiyojlarini shubhasiz nazarga ilmaslik sharoitida ma'muriyatlar amaldorlari istisno tariqasidagi o'z maq- sadlarini: xizmatda ko'tarilish va shu yo'l biln moddiy manfaat orttirishni ko'zlaganini» tan oladi². U viloyat boshqaruvlari amaldorlarining ko'pchiligi eng quyi va o'rta ma'lumotga ega ekanligiga, ayniqsa Farg'ona va Samarkand viloyatlari

¹ Ўша жойда.

² ЎЗРМДА, И-1-фонд, 4-руйхат, 1289-йифма жилд, 156-варак.

boshqaruvi amaldorlari orasida «oliy yuridik ma'lumot olgan bironta ham amaldor yo'q»ligiga e'tiborni qaratadi.¹

Viloyat boshqaruvlarining chalasavod amaldorlari keng doiradagi masalalar bilan shug'ullansada, ularni o'z vaqtida va zarur darajada hal etishga qodir emasligi ma'lum bo'ldi. Ana shu muassasalarda o'tkazilgan taftish materiallari ularda ish yuritish risoladagidek emasligini, katta uzilishlar bilan olib borilganini ko'rsatadi. Ishlar zarur darajada muhokama qilinmasdan oylab va hatto yillab yotar edi. Masalan, Sirdaryo viloyati boshqaruvining taqsimot bo'limida 1905 yilda 1415 ta, 1906 yilda 1702 ta, 1907 yilda esa 1788 ta yakunlamagan ish bo'lgan. Xuddi shu boshqaruvning xo'jalik bo'limida 1905-1907 yillarda 10737 ta ish ro'yxatga olingan.² Sudlov bo'limlarida amaldorlarning bamaylixotirligi va layoqatsizligi ma'muriy tartibdagi o'zboshimcha qarorlar bilan «qoplanar» edi. Mansabga oid jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ham ko'pincha shu tarzda hal etilardi.

1 Пален К.К. Отчет... Областное управление. СПб., 1910, 72-бет.

2 Ўша жойда, 9-17-бетлар.

3.3 Uezd va volost xukmdorlari faoliyatiga sharhlar.

Uezd amaldorlari uezdlarda kundalik turmushni ma'muriy jihatdan tashkillashtirishda muhim rol o'ynashi lozim edi. Ularning vazifalari va xususan, politsiyachilik va jazolash huquqlari munatazam va og'ishmay kengayib bordi. Amaldorlarning ana shu huquqlari xususidagi bu kabi «g'amxo'rlik» quyidagicha asoslangan edi: «Boshqaruv joriy etilayotganida Turkiston o'lkasida Rossiyaga qo'shib olinguniga qadar mavjud bo'lgan shafqatsiz jazo choralari o'rganib ketgan tuzemlar bevosita aybdorlarni, ayni uning buyruqlariga itoat etmaganlik uchun jazolash huquqi bilan ta'minlay olmagan hokimiyatni tasavvur eta olmas bir ahvolda ekanligi asosiy vaj bo'ldi»¹.

Kaufmanning kutilganidan ham ochiq oydin e'tirofi bo'yicha asosiy e'tibor boshqaruv ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldorlarning professionalizmiga, hattoki nisbatan ixtisoslashuviga emas, balki zo'ravonlikka va aholini qo'rqitishga qaratilganidan dalolat beradi. Xo'sh, mahalliy aholining asosiy ommasi kun kechirib kelayotgan chekka joylarda kimlar hukmfarmonlik qilishgan?

Bu kishilar chor armiyasining shtabs-kapitanidan to polkovnigi unvoniga ega bo'lgan ofitserlari bo'lishgan. Uezd boshliqlari Rossiyaning - Sankt-Peterburg, Moskva, Minsk, Ekaterinoslav, Samara, Penza va boshqa ichki guberniyalaridagi dvoryan tabaqalariga mansub kishilar edi. Ular orasida oliy va o'rta harbiy ma'lumotga ega bo'lgan, Mixaylovskiy artilleriya bilim yurti, Varshava pexota-yunkerlar bilim yurti, Konstantinovskiy, Pavlovskiy gimnaziyalari va progimnaziyalearini, Aleksandrovskiy, Orenburg bilim yurtlarini va hokazolarni bitirib chiqqan harbiylar bor edi. Universitetlarda oliy ta'lim olganlar haqidagi ma'lumotga duch kelmadik.²

Uezd boshliqlarining yordamchilari va uchastka pristavlari har xil dvoryan, meshchan, ruhoniylar tabaqalaridan chiqqan edilar. Ular orasida

1 ЎзРМДА, И-1-фонд, 20-рўйхат, 8884-йиғма жилд, 8-варақ

2 ЎзРМДА, И-18-фонд, 1-рўйхат, 3252-йиғма жилд, 34, 52, 63, 253-варақлар;

o'quv yurtlarida to'liq kureni tugatmagan, ammo, odatda, Turkiston harbiy okrugi huzurida ofitserlikka o'tkazishda imtihonlarni omon eson topshirgan kishilar ham uchraydi¹.

Lavozim ro'yxatlarining aksariyatida mulkiy ahvoli yoki er mulki to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilmagan. Faqat uezd boshqaruvi amaldorlarining yillik okladi keltirilgan, xolos. Ulardan uezd boshlig'i Turkistonda bir yilda o'rtacha 4 ming rubl olgan, bu narsa esa Rossiya ichki guberniyalaridagi xuddi shunday mansabdor shaxslarnikidan 10 baravar ko'p edi. Boshliq yordamchilarining ta'minoti bir yilda 2-2,5 ming rubl, uchastka pristavlariniki esa 1,5 dan 2,0 ming rublgacha bo'lgan².

Uezd boshqaruvi amaldorlarining faoliyati amaldorlar soni, xizmat pillapoyalari bo'ylab mansabga ko'tarilishlari, ishi sudda va tergovda bo'lganlar va hokazolar to'g'risidagi mufassal ilovalarga ega hisobotlarda o'z aksini topgan. Bu narsa, shuningdek, viloyatlar harbiy gubernatorlari, hamda senatorlar Gire va Palen tomonidan rejali tartibda amalga oshirilgan mahalliy taftish hisobotlarida ham aks ettirilgan. Ulardan boshqaruvning barcha qismlari va darajalari orasidan uezd ma'muriyati avvalboshdanoq nihoyatda qoniqarsiz ish yuritganligini aniqlash mumkin. Buning sabablari orasida taftishchilar uezdlarning kattaligini, amaldorlar mahalliy tillarni bilmasligini va mahalliy aholi bilan muomala qilishga «nafaqat har doim ham ishni mohiyatan to'g'ri va halol oxiriga etkazmaydigan qolaversa, rus hokimiyati va aholi o'rtasida aholini o'z manfaatlari yo'lida ekspluatatsiya qiluvchi vositachi bo'lgan» tilmochlarni jalb etishni ham ko'rsatib o'tishgan³.

Sud, nazorat va g'azna palatasi organlari tomonidan ham uezd boshliqlari sha'niga ularning so'rovlarini inobatga olmaslikka va ish yuritish yomon tashkillashtirilganiga ishora etuvchi ko'plab e'tirozlar bo'lgan. Binobarin, 1895 yili Farg'ona viloyatining besh uezdi taftishi bo'yicha hisobotlarda «ish yuritish qonun talab qiluvchi tartibda emas»ligiga, boshqaruv, xususan pul

1 ЎзРМДА, И-19-фонд, 7617-йиғма жилд, 4-варақ; 9037- йиғма жилд, 38-варақ;

2 ЎзРМДА, И-19-фонд, 1-рўйхат, 7617-йиғма жилд, 4- варақ; 9037-йиғма жилд, 37-варақ.

3 Гире Ф.К. Отчет... 80-бет.

muomalasi boshqaruvi «katta tartibsizlikda» ekanligi ko'rsatilgan. 1908 yili Namangan uezd boshqaruvida hali 1882 yildayoq o'tkazilgan Nazorat palatasi sud chegirmalarining 47 tasi ijro etilmagani¹ bir vaqtlar turli muassasalarga jo'natilmagan ko'plab boshqa ma'lumotlar aniqlangan.

Senatorlarning taftish hisobotlari ham shunga ishora qiladi. Girs shunday yozadi: «Javob tariqasidagi qog'ozlarni to'ldirish bilan cheklanuvchi uezd boshliqlari jiddiy mazmundagi ishlar yuzasidan farmoyishlar to'g'risida boshliqlarga axborot etkazib turmaydilar»². Namangan uezdi boshlig'ining faoliyati yuzasidan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori ham uni takrorlaydi: «Ko'p hollarda soliq yig'uvchilarga, volost boshqaruvchilariga va boshqa xizmatchilarga nisbatan mansab borasidagi turli xil suiiste'mollarga qarshi ta'qib qo'zg'atgan uezd boshliqlari hatto bunday shaxslar qamoqqa olingan hollarda ham menga axborot bermaydilar»². Ijro etmaslik va ishyoqmaslik uchun uezd ma'muriyatini tanqid qilar ekan, boshliqlar ularni xalqqa yaqinroq bo'lishga, u bilan bevosita aloqada bo'lishga da'vat etadi. Ammo uezd boshliqlari bu borada unchalik jon kuydirib o'tirishmasdi.

Har xil qonunga xilof daromadlar olish nuqtai nazaridan u katta imkoniyatlarga ega edi: aholini soliqqa tortishning barcha turlari, yig'imlar va jon solig'i, volost va qishloq boshqaruvchilarini tasdiqlash, ularni ishdan olib tashlash va tayinlash va boshqalar uning qo'lida bo'lgan.

Arxiv manbalarining dalolat berishicha, bularning barchasi amaldorlar «daromadi»ga jiddiy qo'shimcha bo'lgan. Masalan, Xo'jand uездining boshlig'i baron Nol'de har bir hovliga o'ziga xos «norma» - 2 rubl 50 kopeyka qo'shimcha soliq belgilagan edi, buning natijasida u, 90 ming oltin rubl daromad olgan. Ana shu ish yuzasidan sudga tortilgan Nol'de bezbetlarcha: «Biz ham non eymiz», deb aytgan edi³. YOki, Marg'ilon uezdi boshlig'i Dombrovskiy 1903 yili sulhona pulli soliq bahonasi bilan blankalar va xizmat daftarlari to'loviga o'z ehtiyojlari uchun 7 ming rubl yig'dirgan.

¹ ЎЗРМДА, И-23-фонд, 1-рўйхат, 1209-йиғма жилд, 142- варақ.

² Гире Ф. Отчет... 61-бет.

³ ЎЗРМДА, И-17-фонд, 1-рўйхат, 36876- йиғма жилд, 9-варақ.

Bunday misollarni yuzlab keltirish mumkin, kuppa-kunduzi amalga oshirilgan barcha talon- torojlar hech qanday yuridik oqibatlariga olib kelmasdi. Masalan, xuddi o'sha Dombrovskiy shu ishdan so'ng Primor'ye viloyati uездlaridan biri boshlig'i lavozimiga o'tkazilgan va bundan keyingi o'zboshimchalik va davlat g'aznasini talon-toroj qilish yo'li uning uchun yana ochilgan edi. YOxud tovlamachilikda va volost boshqaruvchilari mansablarini pullashda, vaqf erlari bilan bog'liq qallobliklarda jinoyat ustida qo'lga tushirilgan uезд boshlig'i Alekseev g'aznaga uch ming rubl to'lash bilan jazodan qutulib qolgan va bundan buyog'iga ham xizmatni davom ettirish uchun qoldirilgan edi¹. Andijon uězdi boshlig'i Reysling, Farg'onaniki - Bryanov, Samarqandniki - Brjezitskiy, Xo'jandniki - Glushanovskiy, Prjeval'skiy uězdi boshlig'i polkovnik Ivanov va ko'plab boshqa ishlar ham taxminan shunga o'xshash yakun topgan edi.

Uездlar boshliqlari volost boshqaruvchilarini tayinlash va ishdan bo'shatish huquqidan keng foydalanishgan. Farg'ona viloyati volost boshqaruvchilari ro'yxatlarining 1903 yil 1 sentyabrdagi ma'lumotlariga qaraganda, Andijon uězdidagi 20 volost boshqaruvchisidan 15 nafari, Marg'ilon uездida 19 tadan 14 nafari, Qo'qon uездida 23 tadan 12 nafari, Namangan uездida 31 tadan 17 nafari tayinlovga ko'ra ishlagan, O'sh uездida esa 12 uезд boshlig'idan 10 nafari hech qanday saylovsiz tayinlangan edi. Shunday qilib, Farg'ona viloyatidagi 105 uезд boshlig'idan tayinlovga ko'ra 68 kishi yoki umumiy miqtsordan 64,7%i ishlagan edi. Ko'ramizki, uезд amaldorlari mahalliy ma'muriyatni «saylab qo'yish asoslari»ni to'la soxtalashtirib, har bir masalani o'zlari istagan darajada hal qilgan edilar. K.K.Palen «harakat vakolatlari doirasi va o'lkaning mahalliy va rus aholisiga nisbatan jazolash huquqlarining kengligi mahalliy ma'muriyat orasida korruptsiya va suiste'mol qilish hollarining kuchayishiga katta yo'l ochib berdi», deya tan olishga majbur bo'lgan edi².

¹ ЎзРМДА, И-1-фонд, 4-рўйхат, 128- йиғма жилд, 1-4, 27-варақ.

² Пален К.К. Отчет... Всепопданнейшая записка, содержащая главные выводы отчета. СПб., 1910, 7-бет.

Volost boshqaruvchisi lavozimi savdosi odatdagi hodisaga aylandi. Jamoatchilik ko'z oldida rus ma'muriyati «yuz»ini saqlashga uringan Palen hisobotda Zakaspiy viloyati bo'yicha ma'lumotlarni keltiradi, bu viloyatda volost boshqaruvchisi lavozimi uchun 200 dan 2000 rublgacha tarif belgilangan edi. Palenning bu masaladagi «hiylasi» oliy byurokratiyaning, umuman, butun tizimga xos bo'lgan ana shu ijtimoiy illatning oldini olish uchun qandaydir jiddiy chora-tadbirlar ko'rishga qodir emasligidan dalolat beradi. eng oddiy normalarini oyoqosti qilgan va zo'ravonlik bilan ish ko'rgan, mahalliy xalq xonlar zamonidan so'ng «jazolash huquqiga ega bo'lmagan hokimiyatni tasavvur eta olmaydi» deya taxmin qilgan generallar, polkovniklar va ofitserlardan butlangan edi.

Qo'pol harbiy kuchga va aholini qo'rqitishga tayanib ish ko'rish, nainki ijtimoiy-siyosiy, qolaversa, xo'jalik hayotining, shu jumladan, milliy daromadni chorizm va nufuzli ijtimoiy guruhlar foydasiga qayta taqsimlash singari ko'pdan-ko'p masalalarni ma'muriy jihatdan tartibga solib turish amaldorlar zo'ravonligiga keng maydon yaratib berdi. Uning barcha darajalarida g'aznani talon-toroj qilish, korruptsiya, poraxo'rlik va hokazo illatlar odatiy tusga aylangan edi.

XULOSA

Dissertatsiyaning yakunida olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillar umumlashtirilib, quyidagi xulosalarga kelindi.

Turkistonda tashkil qilingan Podsho tuzumining bosqinchilik siyosati, mustabidchilik, markaz va hudud orasidagi munosabatlarning egosentristik illatlari, shuningdek Rossiya tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati, uning boshqa tarixiy davrlarda to'plagan mustamlakachilik an'analari va tajribasi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra o'lkada harbiy zo'ravonlikka, tashqi va ichki iqtisodiy zo'rlash uslublariga, ilgarigi milliy davlatchilik mexanizmlarini parchalash va milliy asosdagi hudud tabiiy tadrijining imkoniyatlarini buzishga, Rossiya davlatligi asoslarini o'rnatishga yo'naltirilgan tizim tashkil qilina boshladi. Kapitalizm va burjua islohotlarining erkin rivojlanishiga tayangan negiz modelining sifat o'zgarishlari metropoliyaning o'zida mazkur jarayonlarning ijtimoiy qoloqligi sababli ilk davrlarda Turkistonda salbiy rol o'ynadi.

Hukumat mustamlakachilik tizimini tashkil etish jarayonining negizida ilmiy adabiyotlarga tayanib quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatish mumkin:

- O'rta Osiyo xonliklari va bevosita Rossiyaga qo'shib olingan hududlarning Rossiya namunasi hamda yurisdiksiyasi bo'yicha birxillashtirilishi;
- tizimning barcha muhim majmualarini egallagan va nazorat qilgan Rossiya byurokratiyasi harbiy, fuqarolik hamda sud hukumatining markazlashtirilishi;
- g'azna uchun arzon va samarali bo'lgan o'lkaning tabiiy, moddiy hamda inson manbalaridan foydalanish tizimini tezda joriy etish maqsadida devonning institustionalizastiya va rastionalizastiya qilinishi.

Shu bilan birga mahalliy jamiyat uchun Podsho tuzumining mustamlakachilik vazifalarini amalga oshirishda, joylarda ijtimoiy tayanch va «ayg'oqchi» kadrlar zahirasi yaratishga xizmat qilgan ba'zi an'anaviy, ijtimoiy-huquqiy va ma'muriy institutlar hamda me'yorlardan foydalanishga asoslangan vositali tayanchi mavjud edi. Tub aholining Podsho tuzumiga sodiq bo'lgan kam sonli vakillaridan «saylov asosida» tuzilgan mazkur institutlari harbiylashtirilgan rus byurokratiyasidan tashkil etilgan o'lka, viloyat va uezd tizimlari hamda davlat idoralari bilan

muvofiglashuvi va uyg'unlashuvi juda qiyin kechdi. Hatto, yuqori darajali markazlashtirish va Podsho amaldorlarining «xushyor» rahnamoligiga qaramay, ular «oqilona» tashkillashtirilmay qolaverdi. Bu hol harbiy-ma'muriy tizimga juda mos kelar edi. «Yuqorida» taxmin qilinganiga qaramay, ular yangi hukumat uchun keng va ishonchli ijtimoiy negiz yaratishga imkon tug'dirdi. Lekin, ularning faoliyati Turkiston tub aholisining noroziligini uyg'otdi hamda hukumat bilan o'tkir siyosiy va ijtimoiy nizolar keltirib chiqardi. Turkistondagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotni umumiy tartibda yo'lga solinishiga doimiy ravishda boshqaruv tizimi, ma'muriy, mirshab va jazo vositalarining kengaytirilishi, mustaxkamlanishi hamda favqulodda va harbiy xususiyatdagi Podshoalar orqali erishilgan. Mustamlakachilik bosimi ostida qolgan mahalliy aholi esa o'z g'oyalarini o'zgartirmadi va o'zining tabiiy rivojlanish bag'riga qaytish hamda milliy davlatchiligini tiklash yo'lini izladi. Ammo, bu o'z-o'zidan bo'lmasdi. Chunki, barcha muammolarni yechishda zo'ravonlikka asoslanish XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Podsho tizimiga xos xususiyatlardan biri edi.

Harbiy-ma'muriy, rasmiy-byurokratik tizimining ustunlarini mustahkamlovchi va Turkiston jamiyatining barcha hayotiy muhim sohalarida Rossiya amaldorlari apparatining hukmronligini tasdiqlovchi farmonlar, qarorlar va ko'rsatmalarning turli vazirliklar hamda idoralar tomonidan tahrir qilingan 1886 yilgi qonun hujjatlari asosida boshqaruvning imperiyaga oid andozalarining kengaytirilishi va mustahkamlanishi bu siyosiy yo'nalishning amaliy ko'rinishi edi. Shu bilan birga metropoliya va mustamlakachilikning turli madaniyatli asoslari, xo'jalik darajasining oshirilishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilishi hamda hudud iqtisodiyotining eksport-xomashyoga tayanishini rag'batlantirish zaruriyati o'z mablag'larini sarflashga va sotuvning yangi bozorlarini kengaytirishga erishmoqchi bo'lgan, ancha kuch yig'ib olgan Rossiya burjuaziyasi manfaatini ko'zlab, umumiy bozor tizimiga xizmat kursatuvchi sohalarda hukumatning nazoratchilik vazifalarini qisman cheklanishiga olib keldi. Mazkur vazifa va vakolatlarning ixtisoslashtirilgan vazirliklar, idoralar xamda ularning Turkistondagi filiallariga topshirilishi haqiqiy mustamlakachilik siyosatini

boshqarish mexanizmini yanada moslashtirish imkonini berdi. Biroq iqtisodiyotni oqilona boshqarish tomon hech qanday siljish bo'lmadi.

Hukumat mustamlakachilik tizimining tadrijiy ma'muriy va sud vazifalarining bo'linishida, imperiyaning yangi burjuaziyaga xos sud nizomlariga moslashtirilgan sud tergovchilari, prokuror nazorati, advokatura hamda oqlovchilar institutining yaratilishida ko'rindi. Ular harbiy-ma'muriy tizimda o'ziga xos posangi bo'lib xizmat qildi, ayni paytda ularning faoliyati cheklangan edi. SHu bois, ular hududdagi rus aholisining yuqori va O'rta qatlamlarigagina o'z ta'sirini o'tkazaoldi. Erkinlashtirilgan nizomlar asosidagi yangicha o'z huquqdni tanish va mulk daxlsizligi huquqi ilgarigidek butunlay Podsho amaldorlari tomonidan nazorat qilindi, «xalq» sudlari xizmatidan foydalanuvchi tub aholining ko'pchiligiga esa mutlaqo daxl qilmadi.

Turkiston xalqi manfaatlari hamda diktatorlik tartibi orasidagi farq tobora kengayib bormoqda edi. Milliy boylikni talon-toroj etayotgan va tub aholining milliy ongini shikastlayotgan amaldorlar ustidan shikoyatlardan tortib, to huqumatga qarshi ochiq chiqishlar hamda milliy-ozodlik harakatigacha bo'lgan mazkur harakatga qarshi kurash shakllari oqilona tashkillashtirildi. Jamiyatdagi beqarorlik va o'tkir ijtimoiy ziddiyatlar mustamlakachilik tizimi ijtimoiy zaxirasi uning islohot qilinishi xisobiga kengaytirilishi, rus apparatiga volost va qishloq tuzilmalarining to'liq tobeligi, hatto tub viloyatlarning sug'oriladigan hududlarigacha ko'chishga oid harakatning rag'batlantirilishi, hukumat jazolovchi vazifalarining mukammallashuvi kabi masalalarni kun tartibiga qo'ydi. Mazkur tizim harbiy-dala hamda maxsus sudlar uchun sudlov olib borish chegaralarini kengaytirar, mirshab nazoratining va siyosiy qidiruvning yangi organlarini joriy qilardi, butun ma'muriyatning mirshablik vakolatlarini pastdan yuqorigacha kengaytirar, doimiy ravishda aksfikrlovchi va mustamlakachilik tartibidan norozilarga qarshi tintuvlar, surgunlar hamda qamashlarni qo'llar edi. Imperiyaning qarashlari bilan chegaralangan, hukmronlik va shovinizm bilan to'liq sug'orilgan tizim tub islohatlarga bo'yin egmadi hamda Fevral voqealari bosimi ostida quladi.

Mahalliy ijro apparatining shaxsiy tarkibi ko'char va ko'chmas mulk egalari, katta zamindorlar, tub aholining Podsho tartibiga sodiq bo'lgan qismidan, ma'lumoti darajasiga hech qanday talab qo'yilmagan holda shakllantirildi.

Mazkur apparatga ma'murlar tanlash ko'zbuyamachilik va qalbakichilikka asoslangan edi. Zero, saylovni bekor qilish, o'ziga ma'qul bo'lgan yangi volost amaldorlarini va sudyalarini tayinlash, rejimga xush kelmaganlarni o'zgartirish huquqlaridan keng foydalanish uезд boshliqlari faoliyatiga xos asosiy xususiyat edi. Mahalliy apparat ta'minotiga byudjetdan mablag' ajratilmas edi. Ish xaqi qishloq yig'inining qaroriga ko'ra belgilanib, aholining zimmasiga tushar edi. Hukumat tartibni saqlash masalasini o'sib borayotgan, bir-biriga zid kuchlarga to'g'ridan-to'g'ri tobe qilib qo'ygan edi.

Turkistonda mustamlakachilik tizimi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari davomida, jamiyatning ijtimoiy-madaniy qatlamlariga jiddiy zarar etkazdi, yangi davrda uning zo'rlab sovetlashuviga zamin yasadi, o'lka xalqlarini milliy davlatchilikdan mahrum qildi.

Podsho va bolshevistik hukumat orasidagi izchillik Turkiston boshqaruvining uslub va shakllarida ham ko'rinadi. Imperiyaning milliy hududlarida Podsho tuzumining rahbarligini ta'minlovchi siyosiy va iqtisodiy model doimiy armiya va zo'ravonlik xususiyatiga ega bo'lgan harbiy-ma'muriy tizim tomonidan qo'llab-quvvatlanar edi. 1886 yil Nizomiga va keyingi yillar qonun hujjatlariga ko'ra qonunlashtirilgan Podsho ma'muriyatining jazo vakolatlari Turkiston harbiy-ma'muriy tizimida boshboshdoqliq, qatag'on vositasiga aylandi. Har qanday tizim erkin insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etmas ekan u o'zoq yashay olmaydi tarix isbotlagan oliy haqiqat insoniy qadriyatlar albatta bir kun qaror topadi.

“Tarix ulug' murabbiy, lekin biz insonlar uning o'gitlariga amal qilmaydigan shogirdlarimiz ” ¹ shunday tarixda ruy bergan voqea hodisalardan to'g'ri xulosa chiqarish bugungi kun tarixchisining eng muhim vazifalaridan biridir.

¹ Mohatma Gandi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шароитлари ва тараққиёт кафолатлари. Т. «Ўзбекистон» 1977, 140-б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. «Ўзбекистон», 1998.
3. Каримов И. А. «Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият» Тошкент «Ўзбекистон» 2006.
4. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. "O'zbekiston" T., 1997
5. О совершенствовании деятельности Института истории АН Республики Узбекистан. Постановление кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 июля 1998 г. Народное слово, 1998, 29 июля.
6. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. Т., «Академия» нашриёти. 2002.
7. Абаза К.К. Завоевание Туркестана. Спб., 1902.
8. Абдурахимова Н.А., Садыков А.С., Шамамбетов Б.Ш. Политические процессы в Туркестане, 1905-1917 гг. Нукус, 1988.
9. Верещагин В.В. Самарқанд в 1868 году. «Русская старина». 1889.
10. Военная экспансия и колониальная политика царизма в Средней Азии. М., 1990.
11. Вошинин В. Очерки нового Туркестана. Свет и тени колонизации. Спб., 1914.
12. Галузо П.Г. Туркестан-колония. М., 1929.
13. Гаффоров Ш.С. Тарих ва тақдир. Россия империясидан Туркситонга кучирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср). Т, 2006.
14. Гаффоров Ш.С. Мустамлака даврида Самарқандда бошқарув тизими ва саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. СамДУ. 2011.
15. Гинзбург А.И. Русские в Туркестане. М., 1991.
16. Гирс Ф.К. Отчет по ревизии Туркестанского края. Спб., 1888.

17. Граменицкий О. Очерки о развитии народного образования в Туркестанском крае. Т., 1896.
18. Григорьев В.В. Русская политика в отношении Средней Азии. Спб., 1874.
19. Дмитриев Г.Л. Деша Е. Скалера и проблемы среднеазиатской политики царизма 70-х XIX в. Материалы по истории, историографии и археологии. Сб. науч.тр. № 517, Т., 1976.
20. Давлат Думаси IV чакирик V сессияси 17-йиғилиши стенографик ҳисоботи, 1916 й. 15 декабр.
21. Демидов А. Динамика мирового хлопкового рынка. М., 1904.
22. Демидов А. Экономический очерк хлопководства, хлопковой торговли и хлопковой промышленности Туркестана. М., 1929.
23. Южаков Ю.Д. Итоги двадцатилетнего управления Туркестанским краем, Спб., т.1, 1886.
24. Дмитриев Г.Л. Деша Е. Скалера и проблемы Среднеазиатской политики царизма 70-х гг. XIX в. Материалы по истории, историографии и археологии. Сб.науч. тр. № 517. Т., 1976.
25. Добромислов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Ташкент, 1912.
26. Дониш А. Путешествие из Бухари в Петербург. Душанбе. 1960.
27. Зиёев Х.З. Национально-освободительное движение 1916 г. Общественные науки в Узбекистане, 1991, №7.
28. Зиёев Х.З. Тарих ўтмиш ва келажак кўзгиси. Тошкент, 2000.
29. Зиёев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлиғига қарши кураш. Тошкент. 1998.
30. Иванов А. Русская колонизация в Туркестанском крае. Спб., 1890.
31. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917).Ташкент, 1997.
32. Кауфманский сборник. М., 1910.
33. Киняпина Н.С. Административная политика царизма в Средней Азии в XIX веке. Вопросы истории, 1983.№4.
34. Кологривов Ю.В. Русские владения в Средней Азии. Спб., 1898.

35. Костелская Н. Из истории Туркестанского края. М., Наука, 1980.
36. Костенко А.Ф. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. Спб., 1871.
37. Крафт Н.И. Судебная система в Туркестанском крае. Т., 1903.
38. Маев Н.А. Материалы для характеристики народного хозяйства Туркестана за 1876 г.
39. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. Спб., 1879.
40. Овирский О.Я. Революционные движения в царской армии в Туркестане. Т., 1960.
41. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению, в 2-х частях.
42. Пален К.К. Отчет о состоянии Туркестанского края, Спб, 1910.
43. Покровский М.Н. Дипломатия и войны царской России в XIX столетии. М., 1924.
44. Положение об управлении Туркестанским краем. Спб, 1886.
45. Пухтаметов П.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX – начала XX вв. Ташкент. 1966.
46. Романовский Д.И. Заметки по Среднеазиатскому вопросу. Спб, 1868.
47. Русский вестник», 1868, №5.Х.Зиёевнинг «Завоевание Бухарского и Хивинского ханств царизмом» мақоласидан олинган. «Общественные науки в Узбекистане». 1990, №8,
48. Rustambek Shamsiddinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. Vatan tarxi(XVI-XX asr boshlari) ikkinchi kitob, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. "Sharq" T.,2010.
49. Садиков Х., Шамсутдинов Р., Равшанов Г., Усманов К. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида (биринчи китоб). Шарқ нашриёти. Тошкент. 2000.
50. Саъдиев А.С. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш. Тошкент, «Ўқитувчи», 1993.

51. Терентев М.А. История завоевания Средней Азии. Т. I-III. Спб., 1906.
52. Трегубов С.Н. Прокурорский надзор в народном суде Туркестанского края. Журнал Министерства юстиции №11-12. Спб., 1903.
53. Ўзбек совет энциклопедияси. Тарихшунослик. 10 жилд. Тошкент, 1978.
54. Фиолетов Н. Судопроизводство в мусульманских судах Средней Азии. Суди казиев. Т., 1910.
55. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. М., 1974.
56. Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана. Автореф... канд.ист.наук. Т., 1995.
57. Чижев В. Культурные преобразования К.П. Кауфмана в Туркестане. Одесса. 1915.
58. Шубинский П.П. Очерки Бухари. Спб, 1892.
59. Юлдашев А.М. Аграрные отношения в Туркестане. Т., 1969.
60. Юнусходжаева М.Ю. Из истории землевладения в дореволюционном Туркестане. Т., 1970.
61. ЎзР МДА. И-1 жамғарма.
62. ЎзР МДА. И-7 жамғарма.
63. ЎзР МДА. И-17 жамғарма.
64. ЎзР МДА. И-19 жамғарма.
65. ЎзР МДА. И-36 жамғарма.
66. ЎзР МДА. И-270 жамғарма.
67. ЎзР МДА. И-336-450 жамғарма. Управляющий местным населением центра области.
68. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Muhamedov H.M, Husanov O. T, Muhamedov B.M. "TASVIR" nashriyot uyi. T.,2009.
69. www.e-tarix.uz/vatan-tarixi/475-vatan-tarixi.html
70. new.doc.uz/download.php
71. www.ulyssseek.com/cached